

UMIDA SHERMATOVA
UMIDA JUMANAZAROVA

O'ZBEK ADABIYOTI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA
MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**UMIDA SHERMATOVA
UMIDA JUMANAZAROVA**

O'ZBEK ADABIYOTI

O'QUV QO'LLANMA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
3-FILIALI

Book trade 2022

Chirchiq-2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

- 14933/82 -

UO‘K 821.512.133

KBK 83.3(5 Uzb)

Sh-51

Shermatova U., Jumanazarova U. O‘zbek adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Book trade 2022”, 2026. 132 b.

Mas’ul muharrir

Xilola Bakiyeva

Taqrizchilar

Arofat Mo‘ydinova

Saodat Qambarova

“O‘zbek adabiyoti” o‘quv qo‘llanmasi mazkur fanning o‘quv va ishchi dasturi asosida yaratilgan. O‘quv qo‘llanmada o‘zbek adabiyoti tarixi fanining mohiyati, tadqiqi va tadbiqu, o‘zbek adabiyotida mavjud adabiy oqim va janrlarining vujudga kelish tarixi haqidagi ma’lumotlar yoritilgan. Shuningdek, o‘zbek badiiy tafakkurining taraqqiy etish tadriji ma’lum asarlar tahlili va talqini vositasida bayon etilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma filologiya yo‘nalishi bakalavriat talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, ta’limning ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar hamda mustaqil shakllarining mavzulari mohiyatini o‘z ichida aks ettirgan.

O‘quv qo‘llanmadan boshlang‘ich ta’lim va gumanitar fanlar fakultetlari talabalari, magistrlar, ilmiy tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9910-618-18-5

© Shermatova U., 2026

© “Book trade 2022”, 2026

KIRISH

*Ta'lim faktlarni o'rganish emas.
Aksincha bu ongni fikrlashga o'rgatishdir.*

Albert Eynshteyn

So'nggi yillar oliy ta'lim tizimi ona tili va adabiyot yo'nalishida "O'zbek adabiyoti" fanidan seminar mashg'ulotlari yuzasidan bir qator o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratilmoqda. Bizningcha, ona tili va adabiyot yo'nalishida "O'zbek adabiyoti" fanini atroflicha, chuqur o'rgatiladigan fan sifatida o'rganilishi ana shu yaratilayotgan o'quv-uslubiy qo'llanmalarning sifatini yaxshilash, mazmunini boyitish hisobiga amalga oshiriladi. Negaki, u maxsus ixtisosliklar asosida "kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi" (Sh.M.Mirziyoyev. 1-tom, 286- bet) ijrosini ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorida qayd qilingan "bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lmagan fanlar asosida tuzilgan o'quv dasturidan bosqichma-bosqich voz kechish va o'quv fanlari sonini optimallashtirish"ga doir ko'rsatmasi bu borada muhim dasturilamal bo'lishi lozim. Qolaversa, mazkur "Qaror"da "o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish" talabining qo'yilishi ham ushbu muammoning ijobiy yechimini ta'minlashga xizmat qiladi.

"Qur'on"ning dastlabki oyati "Iqro"ning boshlanishidan ma'lumki, inson ma'naviyati va ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq kitobxonlik borasida garchi asrlar osha boy tajriba to'plangan bo'lsa-da, uning milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari yuz tutgan Yangi O'zbekiston rivojida davlat ahamiyatiga molik ta'lim-tarbiya masalasi sifatida kun tartibiga qo'yilishi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida "Ona tili va adabiyoti ta'limi o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga", "ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik... asoslarini shakllantirishga" qaratilishi ham yosh avlodni kitobxonlik ko'nikmalarini uzluksiz ta'limning o'rta bosqichida rivojlantirishni taqozo etadiki, bu borada o'zbek adabiyoti tarixi katta imkoniyatga ega.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishida "... ta'lim muassasalari, kutubxonalar, mahallalarda kitob mualliflari bilan ijodiy uchrashuvlarni tizimli ravishda tashkil etish hamda ta'lim muassasalari, ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'qish madaniyati va mutolaa ko'nikmalarini shakllantirish; ta'lim muassasalarida sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan o'zbek va chet el adiblarining mumtoz va zamonaviy asarlarini tanlab, xrestomatiya adabiyotlari ro'yxatlarini qayta ko'rib chiqish va o'quv jarayoniga mutolaa etilgan asarlar asosida insho yozish tizimini joriy etish, adabiyot to'garaklari faoliyatini moddiy qo'llab-quvvatlash" masalasining ta'kidlab ko'rsatilishi ham bevosita o'zbek adabiyoti bilan chambarchas bog'liqdir.

"O'zbek adabiyoti" fanidan ushbu o'quv qo'llanma ana shu ehtiyoj tufayli yuzaga kelgandir.



PAHLAVON MAHMUD – RUBOIYNAVIS

Ta'lim faktlarni o'rganish emas.

Aksincha bu ongni fikrlashga o'rgatishdir.

Albert Eynshteyn

Pahlavon Mahmud (1247-1326) – ulug' shoir, mutafakkir, faylasuf. Xivada tug'ilgan. Shamsidin Somiyning «Qomus-ul-a'lom», Lutf Alibek Ozarning «Otashkada» asarlarida shuningdek «Manoqiba»da yozilishicha, Pahlavon Mahmud olim, shoir, kuragi yerga tegmagan pahlavon, shu bilan birga po'stindo'z va telpakdo'z usta bo'lgan.

Uning «Kanzul haqoyiq» («Haqiqatlar xazinasini») nomli masnaviy yaratgani haqida ma'lumot bor. Pahlavon Mahmudning ruboiylari mashhurdir. Shoir o'z ruboiylarini fors-tojik tilida yozgan. Bu durdonalar asrlardan asrga o'tib, bir necha avlodni tarbiyalab, bizning zamongacha yetib keldi.

Tarixda Pahlavon Abusaid Rumi (XV asr), Pahlavon Mahmud Ushshoq (XV asr) kabi allomalar nomi ham ma'lumdir. Har ikkala Pahlavon musiqashunos, hofiz, bastakor sifatida dong taratgan. Pahlavon Mahmud Xorazmiy esa ruboiylari bilan tarixda qolgan. Har uchchalalari ham maydonlarda kurash tushgani uchun Pahlavon degan nom olganlar.

Pahlavon Mahmud ruboiylarini o'zbekchaga To'xtasin Jalolov, Muinzoda, Vasfiy, Matnazar Abdulhakim, Ergash Ochilovlar tarjima qilgan.

To'xtasin Jalolovning yozishicha, Pahlavon Mahmud ruboiylarining Muhammad Rahimxon Feruz, shuningdek Hasan Murod Qori va boshqa hattotlar tomonidan ko'chirilgan nusxalari ham bor ekan. «Hazrat Pahlavon hikoyatlari», «Manoqibi Pahlavon Mahmud» kabi risolalar alloma hayoti haqida xabar beradi.

Uni Xorazmda Pahlavon Mahmud, Polvonpir desalar, kitobu tazkiralarda Hazrat Pahlavon, Mahmud Piryovaliy, Mahmud Puryovaliy deb tilga olganlar. «Otashkada» va «Qomus-ul-a'lom» da ta'kidlanishicha, Pahlavon Mahmudning jangovarligini, jasurligini bildiruvchi Qitoli taxallusi ham bo'lgan. Chunonchi:

Daste namerasad chu Qitoli ba zulfi yor,

Quvvat zi po-u zo'r bozu nihodasi.

Mazmuni: Qitoli kabi qo'limiz yor zulfiga yetmas, garchi bor quvvat bilan harakat etamiz.

«G'iyos-ul lug'ot»da: «Puryovaliy - Mahmud Xorazmiyning laqabi. Ba'zan bu so'z majoziy ma'noda pahlavonlar boshlig'i hisoblanadigan keksa polvonga ham berilgan», deb yozilgandir.

Eron olimi Said Nafisiy: «Futuvvat - juvonmardlik guruhining peshvolaridan biri mashhur shoir Pahlavon Mahmud Xorazmiydir», deydi.

Darvoqe, Pahlavon Mahmud po'stindo'z va telpakdo'z dedik, chunki u tariqat pirlaridan edi. Hazrat Bahouddin matoga gul solish kasbi bilan mashhur bo'lgan. Zero, tariqat pirlari ma'lum bir kasbni o'rganib, shundan rizq-ro'zlarini o'tkazgan. Payg'ambar alayhis-salomning: «Qur'onni o'qib, unga amal qilinglar. Undan uzoqlashib ham ketmanglar, uning ma'nosiga chuqur yetaman deb, xato va mubolag'aga berilmang, uni tirikchilik vositasi qilib, molu dunyo orttirishga ham o'tmanglar», hadislariga tariqat pirlari amal qilganlar.

Naql qilinishicha, Pahlavon Mahmud Eron va Hindistonda ancha yillar yashagan. Ma'rakalarda kurash tushgan va uni hech kim yenga olmagan. Pahlavon Mahmud oliyhimmat, mard, saxiy, vatanparvar inson bo'lgan.

«Manoqiba»dagi xabarga ko'ra, Pahlavon Mahmud Hindiston xalqi tomonida turib, Hindiston dushmanlariga qarshi jangda ishtirok etibdi. Jang payti o'z jonini xatarga qo'yib bo'lsada, Hind shohi Ray Ropoy Cho'pani o'limdan qutqaradi. Shunda shoh Pahlavon Mahmudning bemisl bu jasorati, mardligini taqdirlamoqchi bo'lib: «Tila tilagingni!», debdi. Pahlavon Mahmud: «Ey buyuk shoh! Bundan ancha yillar muqaddam mening vatandoshlarim - xorazmiylar bu yerga asir qilib olib kelingan. O'shalarni ozod etsangiz. Birdan bir tilagim shu!», debdi. Shoh hayron bo'lib: «Ey himmati baland pahlavon! Agar yarim davlatimni tilaganingda edi, uni gap-so'zsiz senga in'om qilgan bo'lurdim. Agar sohibjamol qizimni o'z nikohingga olmoqni so'raganingda edi, seni o'zimga kuyov etib, toju taxtimni senga bag'ishlagan bo'lurdim. Zero, jasorating ulkan mukofotga munosibdir. Mayli,

tilagingni bajo keltirdim. Vatandoshlaring ozod! Ularni Xorazmga borgunlaricha yegulik oziq-ovqat, kiyim-bosh, ulov bilan ta'minlashni ham buyuraman!», debdi.

Pahlavon Mahmud shohga qarab quyidagi ruboyisini o'qibdi:

O'z nafsiga kim bo'lsa amir,uldir – mard.

Xam o'zgaga bo'lmasa haqir, uldir – mard.

Utmak sira mag'lubni teppb mardlik emas,

Tutsa qo'lidan zabunni er, uldur — mard.

E. Ochilov tarjimasi

Shoir ruboyisini eshitgan shoh qoyil bo'lib, unga sarpo va ulov in'om qilibdi.

Pahlavon Mahmud Hindistondan o'z vatandoshlarini olib, Xorazmga qaytgan. Mo'g'ul-totor bosqinchilariga qarshi jangda shahid bo'lgan vatandoshlari qabri ustida shoir o'z mablag'i hisobidan maqbara qurdirgan va u yerni obod ziyoratgoh etgan.

Pahlavon Mahmud marhum bo'lgandan so'ng, qabri ustiga vatandoshlari purshukuh maqbara qurganlar. Butun olamdan yog'ilib kelayotgan sayyohlar pirimiz, ulug' shoir, mard inson qabrini ziyorat qiladilar. Maqbara devorlariga, peshtoqlariga shoirning ruboiylari darj qilingan. Bu ziyoratgoh Xivada Hazrati Pahlavop pir nomi bilan mashhur.

Keyinchalik ustoz Pahlavon Mahmud maqbarasi atrofida Xorazm xonlaridan Abdulg'ozixon, Shohniyoxxon, Muhammad Rahimxon I, Temurg'ozixon va boshqalarni vasiyatlariga ko'ra dafn qilganlar.

Shuni ham ta'kidlash joizki, Pahlavon Mahmud ruboiylarida Qur'oni karim va Hadisi sharif ta'siri kuchli. Zero, Sharqdagi deyarli barcha shoirlar bu ikki ulug' manba'dan bahramand bo'lib, ijod qilganlari sir emas.

TOPSHIRIQLAR

1. Ushbu to'rtlikning asosiy g'oyasini aniqlang. Qaysi so'z ichiga ruboiyning asosiy g'oyasi yashiringan.

Umrimiz daraxtin past qilma, Rabbiy,

Borliq sharobidan mast qilma, Rabbiy.

O'zing karam birla mard yigitlarni



Nokaslarga zeri dast qilma, Rabbiy.

2. Ushbu to‘rtlikning vaznini aniqlang. Vaznini aniqlashda quyidagi adabiyotlardan foydalanishingiz mumkin.

Jahon chehra - rangu ro‘yi o‘zingsan,

Aql, daryo - uning suyi o‘zingsan.

Gul bargida shabnamdayin o‘tirma,

Bu bog‘chaning rangu bo‘yi o‘zingsan.

To‘xtasin Jalolov tarjimalari.

3. Ruboiyda berilgan badiiy san’atlarni toping.

Ey do‘st, qani ayt, jonmi kerak, jon berayin men.

Har ne eng aziz, sen so‘ra, shul on berayin men

Ey kofiri shaddod, manim qoshima bir kel,

Zunoring olib, o‘rniga iymon berayin men.

4. Quyidagi ruboiy mazmunini qaysi so‘z ifodalagan va o‘sha so‘zning sinonimi hamda antonimi toping. Tasavvufga oid atamalar bormi?

Qalbingdagi shak-shubha, gumon ketmishdir,

Ruh quvvati ham bir kun, inon, ketmishdir.

Topdim deb aniq nishonni mag‘rurlanma,

Topgan u nishoning benishon ketmishdir.

5. Keltirilgan to‘rtlikni qaysi xalq maqoli bilan qisqa qilib ifodalasa bo‘ladi.

Gar haq deya jim tortsa fig‘on do‘st.- chin do‘st.

Qilguvchi ibodatni nihon-chin do‘st.

Ko‘z-ko‘zlama hech berganu olgan noning,

Non do‘sti emas, aslida jon do‘st - chin do‘st.

6. Ruboiyda tashbeh ishlatilgan o‘rinlarni toping. Asosiy mazmunni ochib berishda ularning ahamiyati haqida fikr bildiring.

Bog‘manu bag‘rimda chaman -nolalarim,

Dardimni bilib bosh egdi lol lolalarim.

Ikki ko‘zim ikki ulug‘ daryodir,

Qolgan bari daryolar esa bolalarim.

Matnazar Abdulhakim tarjimasi

Savol va topshiriqlar

1. Pahlovon Mahmud hayoti va ijodi bilan bog‘liq ma’lumotlar kimlarning asarlari orqali yetib kelgan?
2. Pahlovon Mahmud shaxsi va ijodini o‘rganish qachondan boshlangan?
3. O‘zbekistonda qachondan boshlab shoir ijodi o‘rganilib, tarjima qilina boshlangan?
4. Shoir ruboiylari qaysi adabiyotshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan?
5. Pahlavon Mahmud ruboiylarini tarjima qilgan shoirlardan kimlarni bilasiz?
6. Jahon chehra - rangu ro‘yi o‘zingsan... deb boshlanuvchi ruboiyni tahlil qilib ko‘ring.
7. Ey do‘st, qani ayt, jonmi kerak, jon berayin...deb boshlanuvchi ruboiyda keltirilgan o‘zida ramziy ma’no ifodalovchi so‘zlarni toping va ma’nosini izohlashga harakat qiling.
8. Pahlavon Mahmud sag‘anasi haqida ma’lumot to‘plang va shoir shaxsi va ijodi yuzasidan portfolio yarating.
9. Jadvalni to‘ldiring.

Umrimiz daraxtin past qilma, Rabbiy... ruboiysi

Ruboiyda keltirilgan undalma va uni keltirilish maqsadi	
Tasavvufga oid atamalar va ularning izohi	
Ruboiyning qisqacha mazmuni	

Ruboiyda mavjud badiiy tasvir vositalari	
Ruboiyning vaznini keltiring	

**Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy va uning
“Qisasi Rabg‘uziy” asari**



Reja:

1. ***“Qisasi Rabg‘uziy”ning yaratilishi.***
2. ***Rabg‘uziy – manbashunos va tanqidchi.***
3. ***Asarda qissa janri.***
4. ***Hikoyat janri.***
5. ***Rivoyat janri.***
6. ***She‘riy janrlar.***
7. ***Latifa janri.***
8. ***Hikmat janri.***
9. ***Boshqa kichik (xabar, foyda, munojot) janrlari.***

Kalit so‘z va terminlar: *qasida, savol, javob, qissa, rivoyat, xabar, hikmat, ahsan ul-qasas, adabiyotshunos, tanqidchi, hadis, musulmon va yahudiy manbalari, tafsir, hikoyat, g‘azal, latifa, to‘rtlik, mutasavvif.*

Asarning yaratilishi, maqsadi va tuzilishi. Yuqorida aytilganiday, islomni turkiy qavmlar orasiga keng yoyish, payg‘ambarlar hayoti bilan ommani tanishtirish va bu payg‘ambarlar tarixiga oid asarlar yaratish uchun Berkaxon hukmronligi davridan boshlab Oltin O‘rda hukmdorlari astoydil harakat qildilar. “Qisasi Rabg‘uziy” shunday asarlardan biridir.

Rabg‘uziyning hayoti, ijodi to‘g‘risida biron tarixiy yoki adabiy manbada ma‘lumot saqlanib qolmagan. Bu ijodkor haqidagi qisqa ma‘lumotni “Qisasi Rabg‘uziy”dan topish mumkin.

Asar inson zotini Olloh Taolo yaratgani, avvalo xotinni emas, erkak zotini yaratgani, insonni yovuz yo‘ldan qaytargani va pok yo‘lga solgani haqidagi hamdu sano bilan boshlaydi. Shundan so‘ng Muhammad Mustafo s.a.v.ga bag‘ishlangan bir g‘azalni keltiradi. Chamasi, Rabg‘uziy bu g‘azalni o‘zi yozgan.

Shundan keyin Burhoniddin o‘zining kimligi va “Qisasi Rabg‘uziy”ning yozilish sababini quyidagicha bayon qiladi: “...bu kitobni tuzgan, to‘at yo‘linda

tizgan, ma'siyat yobonin kezgan, oz ozuqlug', ko'p yozuqlug' Rabot o'g'uzining qozisi Burhon o'g'li Nosuriddin urug'i... andog' aytur...beklar urug'i, yigitlar arig'i, ulug' otlig', qutlug' zotlig', ezgu qilqlig', islom yorig'lig', mo'g'ul sanilig', musulmon dinlig', odamiylar inonchi, mo'aminlar quvonchi, himmati adiz, aqli tegiz begimiz Nosiruddin To'qbug'a sabbatallohu alo dinil-islom va salomuhu".¹ Bu ta'rifdan so'ng To'qbug'abekka bag'ishlangan o'ttiz uch misradan (bayt?) iborat qasida keltiriladi. Qasidaning talablari va qonun-qoidalariga ko'ra, To'qbug'abekning shaxsiy fazilatlari madh etiladi: u islomga e'tiqod qo'ygan, muttasil Qur'on o'qiydi, himmati osmondan ham yuksak, islomga chin dildan e'tiqod qo'ygan, xulq-atvori yaxshi, ko'proq do'st orttirishga harakat qiladi, ko'rinishi arslon sifatliq, yoshi kichik bo'lsa ham ulug'sifat, zoti toza va h.

Rabg'uziy asarning yaratilgan yili (hijriy 150) va To'qbug'aning unga qilgan iltimosi to'g'risida bayon qiladi. Rabg'uziy keltirgan ma'lumotlardan shu narsa anglashiladiki, To'qbug'a payg'mbarlar tarixiga bag'ishlangan qissalardan yaxshi xabardor. SHuning uchun To'qbug'abek Rabg'uziyga payg'ambarlar to'g'risida asar yaratishga iltimos qilishdan oldin bu xildagi qissalarning mazmuni va shakli to'g'risida ma'lumot beradi. Payg'ambarlar to'g'risidagi ba'zi asarlar to'g'ri, ba'zilar noto'g'ri, ayrimlari nuqsonli, ba'zilarida kamchiligi borligini uqtiradi. Asarga "Qisasi ar-Rabg'uziy" deb nom qo'yganini muallifning o'zi qayd etadi.

Rabg'uziy asarni yozishda Qur'ondan, Abu Ishoq Nishopuriyning forscha "Qisas ul-anbiyo"sidan, Vahb ibn Munabbihning arab tilidagi "Ka'b ul-axbor" (mil.728) asaridan foydalangan. Shuningdek, Sharqda yaratilgan va mashhur bo'lgan "Qisas ul-anbiyo" faqat shulardan iborat emas. Saxi bin Abdulloh at-Tustariy (mil. 896), Muhammad bin Abdulmalik al-Musabbihiy al-Xoroniyy (mil.1029) ham arab tilida "Qisas ul-anbiyo" yozganlar.

¹ Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1 жилд. Тошкент. "Ёзувчи" нашриёти. 1990, 10-бет. (Бундан кейинги мисоллар шу нашрдан олинди, фақат асар номи ва саҳифаси кўрсатилади.)

Rabg‘uziyning “Qisai Rabg‘uziy” asari boshqa “Qisas ul-anbiyo”lardan faqat tuzilishi va til jihatidagina emas, balki muallifning biron dalilni tasdiqlash yoki rad qilish uchun sinchkov olim sifatida munosabat bildirgani bilan ham farq qiladi.

Rabg‘uziy – manbashunos va tanqidchi. Rabg‘uziy qissalarni hikoya qilar ekan, nozik didli, chuqur bilimli adabiyotshunos sifatida qissalarning mavjud variantlarini o‘rganadi, qaysi rivoyat haqiqat, qaysi biri uydirma ekanini tahlil qiladi. U qiyosiy usuldan foydalangan holda, o‘z qarashlarini ilgari suradi. U manbashunos va tanqidchi sifatida qarashlarini tasdiqlash yoki rad qilish uchun rivoyat hamda xabar janrlaridan foydalanadi. Bu jihatdan Rabg‘uziyning rivoyat janridan foydalanish usuli Beruniynikiga o‘xshaydi. Rabg‘uziy deyarli har bir qissa tarkibida “savol” va “javob” keltiradi. Bu “savol” va “javob”lar voqealarga aniqlik kiritish, ularga kitobxonni ishontirish maqsadida keltiriladi. Buning uchun dalillarning bir nechtasini kitobxon hukmiga havola qiladi. Bir misol keltiraylik:

Oллоh Taolo o‘tdan yaratgan Jonn ismli xalq to‘g‘risida uch dalilni Rabg‘uziy bayon qiladi. Biri – Kalbiyning rivoyati, ikkinchisi – Abdulla ibn Abbosning rivoyatidir. Uchinchi dalil sifatida boshqa bir xabarni keltiradi. Har uchalasida keltirilgan dalillar bir-biridan tamomila farqli, bir-birini to‘ldirmaydi, aksincha, bir-biriga ziddir. Rabg‘uziy aslo, mana bu dalil yoki rivoyat ishonchlidir, deb aytmaydi, balki ishonchli dalilni oxirida keltirib, boshqa dalillarga nisbatan batafsil bayon qiladi. Uning ishonchli rivoyat yoki ishonchli xabar janriga qo‘ygan talabi shudir. Yuqoridagi Kalbiy rivoyatida o‘tgan yaratilgan Jonn ismli xalq dunyoni etmish ming yil boshqardi. Abdulloh ibn Abbos rivoyatiga ko‘ra esa, o‘n sakkiz ming yil boshqardi, degan ma’lumotni keltiradi. Har ikkala rivoyat ham Rabg‘uziyda to‘laqonli ishonch hosil qilmaydi va uchinchi dalilni – xabarni keltiradi. Xabarning Rabg‘uziy uchun ishonchliligi shundan iborat: Mavlo Taolo dunyoni yaratganda, erni qushlarga mulk qilib berdi, etti ming yil qushlar boshqardi. Undan so‘ng Jin ibn al-Jonnga berdi, etti ming yil uning xalqi boshqardi. U xalq ko‘p gunoh ishlar qildi, qon to‘kkanlari

uchun, erni ulardan olib, farishtalarga berdi. Etti ming yildan keyin farishtalardan olib, er yuzida xalifa yaraturman, deb xitob qildi.

So‘nggi xabarni Rabg‘uziy ishonchli deb topgani uchun batafsil hikoya qiladi. SHu xabardan keyin keltirilgan “savol” va “javob” aynan xabarda keltirilgan voqealarni yana bir marta tasdiqlash uchun keltirilgan (14-15-bet).

Rabg‘uziy qissa, rivoyat, xabar va boshqa janrlar tarkibiga olib kirgan “savol” va “javob” “Qisasi Rabg‘uziy” tarkibida muhim qism ekaniga e‘tibor qaratish lozim. Rabg‘uziy barcha “savol”ga hikmat, ya‘ni sir, sabab yuklaydi, “javob” ana shu sirlarni, sabablarni ochadi.

Ba‘zan qissa tarkibidagi “savol” bitta bo‘lgani holda, javoblarning bir necha variantlari keltiriladi. Masalan, “Yusuf” qissasi boshlanishida “ahsan ul-qasas” – “qissalarning eng go‘zali” deb ta‘rif beriladi. So‘ngra Rabg‘uziy “Yusuf” qissasining mohiyatiga va qissaning haqiqatan go‘zal qissa ekaniga e‘tiborni qaratadi: “SAVOL: “Ahsan” demakda hikmat ne erdi?” Rabg‘uziy bu savolga to‘qqizta javob ilova qiladi. Javoblar so‘ngida “Yusuf” surasi o‘n turli qayg‘udan xalos qiladigan sura ekanini ta‘kidlaydi (100 b.) Umuman, savol va javoblar qissalarning asosiy mazmuniga urg‘u qaratishga, qissalarni to‘g‘ri tushunishga xizmat qiladi.

Rabg‘uziy o‘z davrining etuk adabiyotshunos olimidir. U dalillarning ishonchli ekanini tasdiqlash usullarini topadi. “Qissai Ismoil alayhissalom” va “Qissai zabihi Ismoil alayhissalom”da Rabg‘uziy ishonchli manbaga tayanish uchun qiyosiy usuldan foydalanadi. Bu usul Rabg‘uziyning nuqtadon adabiyotshunos sifatidagi qirrasini ko‘rsatadi. Jumladan, Ismoil Hojardan tug‘ilgani voqeasini hikoya qilganda, ikki rivoyatni qiyoslaydi. Ba‘zi rivoyatlarga ko‘ra, deydi Rabg‘uziy, Ismoil Hojardan shu erda (ya‘ni o‘zlari yashab turgan Kan‘on yurti? – N.R.) tug‘ildi, ayrim rivoyatlarga qaraganda, Hojarning oy-kuni yaqinlashganda, Sora sabr qilmay, Hojarni o‘zlari yashab turgan joydan Ibrohim bilan bir jo‘natib yubordi. Ikkinchi rivoyatni Rabg‘uziy ishonchli deb topgani uchun, shu variantini hikoya qiladi. Yoki “Qissai zabihi Ismoil alayhissalom” qissasi avvalida ulamolar orasida ixtilof borligini aytadi.

Ixtilof shundan iboratki, “zabih (bo‘g‘izlanadigan, qurbonlik qilinadigan) Ismoilu yo Is‘hoqu?” Bu ixtilofni bayon qilar ekan, bu borada arablar - Ismoil, yahudiylar – Is‘hoq, boshqa ayrim ulamolar esa har ikkisi ham zabih bo‘lgani to‘g‘risidagi munozaraga to‘xtaladi. Shundan so‘ng munozaralarga barham berish maqsadida ishonchli manbaga – Payg‘ambar a.s.ning quyidagi hadisiga murojaat etadi: “*Ikki bo‘g‘uzlanmishning o‘g‘liman*”. Rabg‘uziy ana shu hadisga tayanadi va voqeani shu hadisga bog‘lab davom ettiradi, hadisning qanchalik ishonchli ekanini ochish maqsadida hadisga oid voqeani bayon etadi.

Rabg‘uziy manbalarga tayanib, xulosa chiqaradi, kitobxonda savolga o‘rin qoldirmaslikka harakat qiladi. Kitobxonda savol tug‘ilishi mumkinligini doim nazarda tutadi. Masalan, Rabg‘uziy yuqoridagi hadisni ishonchli manba va dalil sifatida keltirar ekan, buning ortida yana bir savol tug‘ilishi mumkinligini e‘tiborga oladi. Shu o‘rinda Rabg‘uziy tug‘ilishi muqarrar bo‘lgan savolni va savolga javobni tadqiq etadi:

“SAVOL: Mustafo alayhissalom Ismoilin turur, Ishoqdin ermaz...Ikki bo‘g‘uzlanmishning o‘g‘liman demak ne bo‘lur?” Mana, kitobxonni o‘ylantiradigan muammo. Rabg‘uziy bu muammoni etnograf sifatida hal qiladi: “Arabning odati bor. Ammani ota deyurlar. Ulamolardan birisi aytur: agar Ismoil zabih erdi deb uch taloq ont ichsa, evlugi taloq bo‘lmag‘ay, aning uchunkim, Olloh Taolo Qur‘on ichinda Ismoil qurbon qilinmish qissasin tamom qilinmishda xabar berur, yorliqar: *Va bashsharnahu bi Isxaka nabiyyan min as-solihina*. Ammo durustrak qavl ul tururkim, *inni ibnu zabihayn* (Iki bo‘g‘uzlanmishning o‘g‘liman) dan murod biri Ismoil turur, yana biri otasi Abdulloh turur”. Demak, Ismoilning qatorida turguvchi Is‘hoq, ya‘ni Tavrotdagi Is‘hoq emas. Shu javob ortidagi voqeani kitobxonga Rabg‘uziy sharhlaydi, voqeani islomning ilk shakllanish davridagi xabarlarga asoslangan holda batafsil keltiradi. Xabarda keltirilishicha, Mustafo alayhissalomning katta otasi Abdul Mutallib davrida Zamzam qudug‘i qurib qoladi. Abdul Mutallib: “”Olloh Taolo suv bersa, bir o‘g‘limni qurbon qilaman”, deb ont ichadi. Abdul Mutallibning bir xotinidan to‘qqizta o‘g‘li bor edi. O‘sha kunlari boshqa xotini o‘g‘il tug‘di. Bu o‘g‘lini

Abdul Mutallib boshqa o'g'illariga qaraganda ortiq sevar edi. Abdul Mutallib Oллоhga bergan va'dasiga ko'ra, qur'a tashlab, o'g'ilaridan birini qurbon qilmoqchi bo'ldi. Qur'a Abdullohga chiqdi. Abdul Mutallib pichoq olib. O'g'lini qurbon qilishga shaylandi. Makkada Abdullohning Temur maxzum degan onasi tomondan qarindoshi bor edi. U Makkada ancha obro'li odam edi. Temur maxzum, Shom viloyatida mashhur folchiga bor, odam yuboringlar, folbin qanday hukm qilsa, bajaringlar, dedi. Borgan odamlar folbindan o'ragan edilar, folbin shunday deb buyurdi: "Abdullohni va o'nta tuyani yonma-yon qo'yib, qur'a tashlanglar. Qur'a tuyaga chiqsa, tuyani qurbon qilinglar, Abdulloh qolsin. Abdullog' otiga chiqsa, yana o'nta tuya qo'shinglar va qur'a tashlanglar". Qur'a tuyaga chiqquncha shunday qildilar. Tuyalar miqdori yuztaga etganda, qur'a tuyaga tushdi deya tuyalarni qurbon qildilar. Abdulloh qoldi.

Bu voqeani Rabg'uziy "Bu kun shariatda er bahosi yuz tuyadan qoldi", deb izohlaydi va Payg'ambar a.s.ning "Ikki bo'g'uzlanmishning o'g'liman", deb aytgan hadisi ma'nosini shu tariqa to'liq ochib beradi.

Rabg'uziy asarni yozish jarayonida o'zining zimmasida katta mas'uliyat yotganini har doim his qilib turadi. Shu bois ham manbalarni chuqur va diqqat bilan o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. Uning uchun musulmon manbalari ham, yahudiy manbalari ham birdir. U uchun eng muhimi – manbalarning ishonchliligidir. Jumladan, Rabg'uziy o'zigacha yaratilgan tafsirlarni sinchiklab o'rganib, boshqa tarixiy, adabiy manbalar bilan solishtirib chiqqan, ixtilof bor o'rinlarda manbalarga aniq ishora qiladi. Masalan, Rabg'uziy keltirgan rivoyatlarga ko'ra, Yusufga zarar etkazgan akalari payg'ambar urug'idan ekan. Ammo Imom Abulhasan Shofi'iyning "Usmat ul-anbiyo" asarida Yusufning qarindoshlari unga zarar etkazgan paytda yalavoch emas edilar, degan ma'lumotni keltiradi (106-bet).

"Qisasi Rabg'uziy" – badiiy asar. Asar 72 qissadan tashkil topgan. Har bir qissa tarkibida hikoyat, g'azal, latifa, rivoyat, to'rtlik (118-b.), savol va javob, hikmat, hadis kabi janrlar va shakllar bor. Ayniqsa, Yassaviy hikmatlariga

mazmun va shakl tomondan hamohang hikmatlarning uchragani diqqatga sazovor. Bu hikmatlar har bir qissada har bir payg‘ambarga bag‘ishlab yozilgan.

“Qisasi Rabg‘uziy” turkiy tilda so‘zlashuvchi kitobxonlarga payg‘ambarlar haqida to‘laqonli, dalillarga asoslangan, ishonchli ma’lumotlarni etkazish, shu bilan birga, Shayx Shibliy (23), Umar Xattob raziyallohu (34), Imom Shayx Jo‘yboriy (34), Shayx Basriy (107) kabi qator ulug‘ mutasavviflar hayoti va ta’limotiga oid lavhalar bilan tanishtirishdan iborat. Quyida “Qissasi Rabg‘uziy”dagi har bir janrni ko‘rib chiqamiz.

Qissa. Rabg‘uziy qissa janrini bugungi singari adabiy termin ma’nosida – bir butun asar ma’nosida ishlatadi. Zotan, har bir qissa tarkibining tuzilishi, voqealar bayoni, kompozitsiyasi shundan dalolat beradi. Har bir qissa mustaqil badiiy asar singari tuzilgan. Namuna sifatida “Qissai Odam safiy alayhissalom” qissasini olib ko‘raylik.

Qissa Odam alayhissalomning ta’rif-tavsifi bilan boshlanadi: uning tuproqdan yaratilgani va Iblisning vasvasasiga ilinib, qorong‘u olamga tushgani, karomat tufayli yana mukarram bo‘lgani bayon qilingandan so‘ng, o‘n to‘rt misralik she’r keladi:

*Haq yaratdi tangsuq Odamni tafiz er ko‘rkidin,
O‘zga surat tuzdi andog‘ ajun ichra ilkidin.
Taxtini ko‘turub farishta ujmoj ichra kivurub,
Tezginurda chiqmadilar hargiz aning erkidin.*

“Qisai Rabg‘uziy” voqealari izchil xronologiyaga asoslangan, har bir qissa ma’lum maqsadga bo‘ysundirilgan. “Qisasi Rabg‘uziy” – inson qalbi va ko‘ngliga murojaat etib, uni ma’naviy kamolotga yo‘llovchi asardir. Qissalardan ibratli xulosa chiqarish, qissalarda ko‘tarilgan qonun- qoidalar, axloq-odob, o‘g‘itlarni kitobxonga singdirish ham qissalarning asosiy maqsadlaridandir.

Insonni nima yo‘ldan ozdiradi, nima tubanlashtiradi degan savol har bir qissada ko‘ndalang bo‘lib turadi. Rabg‘uziy insoniyatga o‘g‘it bermaydi yoki

nasihat qilmaydi, balki hikoyatlar, payg‘ambarlar hayotidan rivoyatlarni keltirib, kitobxonning hukmiga havola qiladi. Bu olamning boyliklariga ko‘ngil bog‘lash insoniyatni yo‘ldan ozdiradigan illat ekani asarning ko‘p o‘rinlarida ma’lum rivoyatlar vositasida bayon qilinadi. Bu e’tiqodning yorqin namunasi Odam alayhissalom qissasida bayon qilingan:

Olohdan er yuziga yorlig‘ kelib, jamiki insoniyatga qarata, dunyoni ko‘rib keling, dedi. Odamlar kelib, dunyoni ko‘rdilar u erda qoldilar, ozgina qismi qaytib keldi. “Xitob keldi: “o‘zgalarangiz qani?” teb. Aydilar: “Dunyoni ko‘rdilar, ko‘ngillari dunyoni tiladi, anda qoldilar”. Yorlig‘ keldi: “Ujmoxg‘a boring, ujmox nima ko‘rung”. Bordilar, ujmoxni ko‘rdilar, ularningma ukushraki ujmoxta qoldilar. Yorlig‘ keldi: “Azinlaringiz qani?” Aydilar: “Ilohiy, ularma ujmoxni tiladilar, anda qoldilar”. Aymishlar, dunyoda qolganlar kofirlar edilar, ujmoxta qolg‘anlar mo‘‘minlarning omlari (omilari?) erdilar. Ujmoxni unamadin hazratg‘a kelganlari xos qullar erdi. Yorlig‘ keldi: “Dunyog‘a ko‘ngil bermadingiz, ujmoxni unamadingiz, emdi ne tilayursiz?” Aydilar: Ilohiy, bizga dunyo kerakmaz, uqbo kerakmaz. Bizga sen keraksen”. Yorlig‘ keldi: “Kim meni tiladi ersa maning xazinam ichinda qayu balo ulug‘roq ersa ul baloni anga berurman”. Aydilar: “Ula balo bermishda san bizning bila bo‘lg‘aymusen?” Aydi: “Bo‘lurmen”. Aydilar: “Ilohiy, balo tegmishda sen bizning birla bo‘lsang, ul oncha baloni bizga havola qilsang, qabul qilg‘aymiz”, tedilar (23 b.).\

Mazkur rivoyatning mazmunidan ko‘rinib turibdiki, insonlar uchun Olloh ravo ko‘radigan balo – malomatdir. Malomat ham jismoniy, ham ruhiy azobu mashaqqatdir. Ollohning yo‘lida xizmat qilish uchun insonlarga bu dunyo ham, jannat ham kerak emas, balki Olloh ravo ko‘rgan mashaqqatlarni ular xursandchilik bilan qabul qiladilar. Malomatiylarning asosiy aqidalari shundan iboratdir. Aksariyat payg‘ambarlarning hayoti va e’tiqodi ana shu maslakka asoslangan.

“Qisasi Rabg‘uziy”da bir qator payg‘ambarlar – SHis alayhissalom, Idris va Nuh, Hud va Solih, Ibrohim va Ismoil, Ishoq va Lut, Yoqub va Yusuf, Muso va Iso alayhissalomga oid voqealar hamda ularning har biriga xos fazilatlar

hikoya qilinadi. Bu qissalarda Rabg‘uziy asosiy e’tibor qaratgan nuqtalar – mazkur payg‘ambarlarning hunari va a’moli, payg‘ambarning hayoti, fe’l-atvori bilan bog‘liq diqqatga sazovor voqealardir. Jumladan, Shis alayhissalom qissasida hikoya qilinishicha, unga bo‘zchilik hunari ato qilingan. Shundan so‘ng mutasavvif Shaqiq Balxiy bilan bir bo‘zchi hikoyasi berilgan bo‘lib, Shaqiq Balxiy bu bo‘zchini tasavvif yo‘lini davom ettirishga da’vat qiladi.

Yoki Idris alayhissalom qissasida voqealar bayoni quyidagicha: uning ismi Axnux, ko‘p saboq olgani uchun Idris deb nom olgan. Dastlab libos kiygan ham u, tanasiga igna sanchganlarida ham tasbih aytgan ham u edi. Jamiki insoniyatning toat ibodati qancha bo‘lsa, Idrisning toati ularniki bilan teng edi.

Idrisga oid bu ta’rifdan so‘ng farishtaning Idrisni sinoviga oid voqea keltiriladi. Faqat Idrisga Mavlo abadiy yashash huquqini bergan.

Rabg‘uziyning barcha payg‘ambarlar to‘g‘risidagi qissalari hajman va tuzilish jihatidan bir xil emas. Aytaylik, Nuh payg‘ambar qissasida hikoya qilingan voqealar yahudiy va islom manbalarida keng tarqalgan an’anaviy To‘fon afsonasidan keskin farq qilmaydi. Yoki Shis, Solih alayhissalom qissalari to‘g‘risida ham shu gapni aytish mumkin – voqealar qisqa, mazkur payg‘ambarlarning hayotidan bir-ikki lavhani hikoya qilib bilan cheklanilgan. Ibrohim va Yusuf qissalari esa voqealar qamrovining kengligi bilan alohida ajralib turadi. Zotan, bu qissalarda Rabg‘uziyning mahorati ham, mafkurasi ham, falsafiy qarashlari ham aniq yuzaga chiqadi. Bu qissalar bir necha janrlar kesishuvida yaratilgan deb aytish mumkin. Jumladan, Ibrohim qissasi faqat Ibrohim va Soraga oid voqealardan iborat emas, balki ishonchli manbalardan tashqari, xalq orasidagi rivoyatlarni va afsonalarni, boshqa payg‘ambarlar hayoti bilan bog‘liq voqealarni ham bu qissaga olib kiradi. Qissaning eng diqqatga sazovor jihati - Ibrohimning tug‘ilishi lavhasidir. Muso va Iso tug‘ilganda, hukmdorlar tush ko‘rib, yoki bashoratchilarning so‘zlariga ishonib, mamlakatda chaqaloqlarni qirg‘in qilgan edilar. Xuddi shu voqea “Qisasi Rabg‘uziy”da Ibrohimning tug‘ilish lavhasiga ko‘chirilgan. Bu voqealar va majusiy Namrud va Ibrohim o‘rtasidagi bahs-munozaralar, butparastlik oqibatida Namrudning

halokati shuni ko'rsatadiki, Rabg'uziy qissa janriga falsafiy, axloqiy-ma'naviy qarashlarini singdirdi.

Qissaning syujet ham o'ziga xos. Namrudning halokati bilan qissa syujeti nihoyasiga etganday taassurot qoldiradi. Ammo qissaning keyingi voqealari rivoji Ibrohim obrazining to'laqonli chiqishiga imkon bergan. Zotan, Ismoil, Ishoqning onasi Sora, Ishoqning xotini Ruq'a va ularning farzandlari Iyaz va YOqub, Ibrohim va Soraning vafoti voqealari bu qissani bir necha syujet chiziqlari orqali yaratishga asos bo'ldi.

“Qissai Yusuf Siddiq alayhissalom” (soddaroq shaklda Yusuf qissasi ham deyiladi) xuddi Ibrohim alayhissalom haqidagi qissa singari ko'p qirralidir. Yuqorida Yusuf qissasi eng go'zal qissa ekani to'g'risida aytgan edik. Qissaning tuzilishida, voqealar rivojida ham o'ziga xoslik bor. Bu o'ziga xoslik, birinchi navbatda, mazkur qissaning hajman kattaligi bo'lsa, ikkinchidan, qissa tarkibida bir qator janrlar – g'azal, latifa, hikoyat va to'rtlik shakli bor. Har bir janr Yusufning biron qirrasini – odamiylik sifatlarini, e'tiqodini, tengsiz va takrorlanmas ishq egasi ekanini ochadi. Qolaversa, Rabg'uziy o'zining shoirlik mahoratini ham shu qissa orqali namoyon qildi.

“Qisasi Rabg'uziy”dagi Yusuf qissasi – o'zbek adabiyotida alohida hodisa. Qissa janri talablarini to'liq ifoda etadi. Qissa tarkibida bir qator janrlardan istifoda etishdan Rabg'uziyning maqsadi bor. Maqsad shundan iboratki, Rabg'uziy epik asar qahramonining – Yusufning to'laqonli, mukammal obrazini yaratish va qissaning barcha janrlarida bayon qilingan voqealarni Yusuf obraziga bo'ysundirishdir. Shu bois Rabg'uziy Yusufning tarjimai holini xronologiya bo'yicha hikoya qilmaydi, qaysi voqea yoki detal Yusufning biron qirrasini ochadigan bo'lsa, o'sha voqeani keltiradi. Masalan, qissaning avvalida Yusufning keyingi hayotiga oid voqealar - uning go'zalligi, xushxulqligi, otasining suyukli farzand ekani, tushlarni ta'birlash qobiliyati borligi, o'gay akalari unga hasad qilib, sotib yuborganlari va nihoyat, Misr yurtida hokimi bo'lgani bayon qilingan she'r (g'azal) keltiriladi. Bu she'rni Yusuf qissasining epigrafi deb aytish mumkin. Ayni paytda Sharqdagi barcha “Yusuf” va “Yusuf

va Zulayho” qissalarining asosi bo’lgan mana shu syujet “poetik o’zlashtirish”ning mahsuli sifatida qaraladi. Ana shu o’zak syujet orqali kitobxonda Yusuf qissasining an’anaviy syujeti haqida tasavvur hosil bo’ladi. Yusufning izchil hayoti bilan bog’liq voqealar shu she’rdan keyin boshlanadi.

O’zbek qissalarining, xususan, “Qisasi Rabg’uziy”dagi qissalarining yuzaga kelishida Sharqning diniy adabiyotidagi, xususan, Qur’on syujetlarining ta’sir etgani ayon haqiqat. Ayni paytda Sharq adabiyotiga boshqa manbalar – xalq og’zaki ijodi ham ta’sir etdi. Masalan, “Qisasi Rabg’uziy”dagi Yusuf qissasi va ko’plab “Yusuf va Zulayho” dostonlaridagi begunoh yigit va yomon xotin haqidagi syujetlarning ildizi Ramzes davrida shakllangan Misr adabiyotida shakllangan edi. Bu ertak “To’g’rilik va egrilik haqida ertak” deb nomlanadi. Ertakda hikoya qilinishicha, yomon xotin yosh yigitni yo’ldan urmoqchi bo’ladi. Ammo adolat g’alaba qiladi va yigitning begunohligi isbotini topadi.

Asardagi qissa janrining o’ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, biron voqea-hodisa haqidagi hikoya yoki rivoyatni ham Rabg’uziy “qissa” deb ataydi. Masalan, “Qissai binoi Ka’ba”, “Chugurtka qissasi”, “Tavrotning qissasi” kabilan shular jumlasidandir. Bu qissalarda voqealarni bayon qilish usuli payg’ambarlar haqidagi qissalarga monanddir: voqealar keng qamrovli, eng muhim voqealar bayon qilinadi va ularga urg’u qaratiladi.

Hikoyat. Bu janr qissalarning tarkibida berilgan. Rabg’uziy qissaning qahramoni – biron payg’ambar yoki boshqa shaxsning hayotidagi biron voqeani tasdiqlash, kitobxonning diqqatini jalb qilish uchun o’sha voqea mazmuniga hamohang hikoyat keltiradi.

“Qissasi Rabg’uziy”da qissalardan ko’ra hikoyatlar ko’p. Hikoyatlarning ba’zilari biron payg’ambarning sifati va mo’jizaviy qudratini tasdiqlash uchun keltirilgan. Masalan, Iso alayhissalom qissasida Isoning xastalarga shifo berish, o’liklarni tiriltirish qudratini tasdiqlash maqsadida Rabg’uziy bir hikoyat keltiradi.

Hikoyatda aytilishicha, Iso bir xumdan suv ichgan edi, suv achchiq ekan, to’kib tashladi. So’ng ariq suvidan ichgan edi, suv chuchuk ekan. Hayron bo’lib

so‘radi: “Ariq suvi chuchuk, xumning suvi achchiq. Buning hikmati nimada ekan?” Shu lahzada: “Xumdan so‘ra”, degan nido keldi. Olloh Taolo xumga til ato qildi va Iso boyagi savolini berdi. Xum shunday javob berdi: “Men inson edim, o‘ldim. Ko‘p yillar o‘tdi. Etim, tanam, suyaklarim chiridi, tuproqqa aylandi. O‘sha tuproqdan xum yasadilar. Suvning achchig‘i jonning achchig‘idir”. Ayishlaricha, Isoga bir xilda turish ravo emas edi. U yurganda, xastalar manfaat topar edilar. Iso qachon harakatda bo‘lib, yurganda, xaloyiq ozor topar edi.

Yoki Iso haqidagi boshqa bir hikoyatda uning faqirlikni ixtiyor qilgani bayon etiladi. Insonlar mol-dunyo tashvishida umrini behudaga o‘tkazishlari aqldan emas degan o‘gitni ilgari suradi, faqirlik ulug‘lanadi.

Bir kuni Iso cho‘lga chiqdi. Inidan chiqayotgan bir tulkini ko‘rdi. Iso aytdi: “Tulkining uyi bor, Isoniki yo‘q”. Odamlar bu gapni eshitib: “Biz senga bir uy qurib beraylik”, dedilar. “Molim yo‘q”, dedi Iso. Odamlar mol yig‘dilar, so‘radilar: “Qaerda quraylik?” Iso dengiz qirg‘og‘iga bordi va “Qumning ustiga quringlar”, dedi. Odamlar aytdilar: “Qum ustida uy turadimi?” “Oqil odam bu dunyoda uy qiladimi?!” deb javob berdi Iso.

Rabg‘uziy bu hikoyatni keltirish orqali uy qurishni emas, balki hashamatlikni qoralaydi, inson hashamat bilan yashar ekan, buning oqibatida inson ko‘p narsadan – e‘tiqod, maqsad, ko‘pchilikka manfaat keltirish, ruhiy sobitlik, ma‘naviy uyg‘oqlikdan xalos bo‘ladi, deb aytmoqda. Iso ana shu fazilatlarni o‘zida mujassam etgan solih zot ekanini ta’kidlamoqda.

Ayrim hikoyatlarning tuzilishi, bayon usuli esa ertaklarnikiga o‘xshaydi. “Qissai valodati Muhammad Rasulullohi Sallallohu alayhi va sallam”da Muhammad a.s.ning dunyoga kelishiga oid hikoyat bor. Bu hikoyatni uch qismga bo‘lish mumkin. Hikoyatning birinchi qismi xuddi ertaklarning boshlanmasi singari makon tasviri bilan boshlanadi: “Shom viloyatindag‘i malikning bir Fotima otlig‘ qizi bor erdi”. Hikoyadagi bundan keyingi voqealar safar (Fotimaning qullari va xizmatkorlari bilan molu boyliklarini tuyalarga yuklab, Makkaga kelishi) motivini eslatadi. Voqealar rivojida g‘ayritabiiy detal –

Abdullohning qo‘lidagi nur alohida tasvirlanadi, Fotima o‘sha nur ilinjida Abdullohga, menga uylangin, deb taklif qiladi, ammo nur Abdullohdan o‘z zavjasi Aminaga o‘tib qoladi va Amina yukli bo‘ladi. Shu orada Abdulloh vafot etadi. Abdulloh vafotidan keyin Amina o‘g‘il tug‘adi. O‘g‘ilning tug‘ilish lavhasi g‘aroyib tarzda beriladi: jamiki farishtalar o‘g‘il tug‘ilishi arafasida havoda yig‘ilib turadilar. Farishtalar olamning faxri ana shu tug‘ilajak chaqaloq ekanini bashorat qiladilar. CHaqaloq o‘g‘il tug‘ilganda, bir parcha oq bulut tushib, uni osmonga olib chiqib ketadi.

Xuddi shu voqeadan so‘ng Rabg‘uziy voqeani tamomila boshqa tomonga buradi. Bu voqeani kiritma hikoya deb atasak to‘g‘riroq bo‘ladi. Bir parcha oq bulut tushib kelib, chaqaloq Muhammadni osmonga olib chiqib ketgandan keyin Muhammadning sifatlari Tavrotida, Zaburda, Injilda bayon qilingani, oq bulut doimo Rasulg‘a umri davomida hamroh bo‘lgani, Rasulning onasi Amina ammasi Otikaga yuz bergan voqealarni – o‘g‘li bilan bog‘liq mo‘‘jizalarni hikoya qilib bergani va Rasulning keyingi hayotiga oid ko‘p voqealar hikoya qilinadi (2 tom, 104-105). Gunohkor bandalar ming yil kofir bo‘lganda ham, bir soat Muhammadga ergashsa, gunohlari yuvilib ketishi haqidagi voqea bilan Rabg‘uziy kiritma hikoyani nihoyasiga etkazadi.

Ana shu o‘rinda Rabg‘uziy hikoyachilikdagi mahoratini namoyon qiladi. U mazkur hikoyani qolgan joyidan – oq bulut chaqaloqni osmonga olib chiqib ketgan joyidan “*kelduk bayoqi so‘zg‘a*” deya davom ettirib ketadi: “Ul zamonkim, Muhammadni bulut kelturdi. Amina o‘g‘long‘a emukin berayin tedi ersa, olmadi”. Hikoyada bayon qilinishicha, chaqaloq onasini yigirma besh kun davomida emmagandan keyin, Amina qayg‘urib olamdan o‘tdi. O‘g‘ilni doyaga berdilar.

Ma‘lum bo‘ladiki, Rabg‘uziy shu birgina hikoyada bir necha voqealarni, ko‘p detallarni beradi. Barcha voqealar va detallar hikoyatni ertak janriga yaqinlashtiradi. Ertaklarda ko‘p uchraydigan bayon usuli (“endi so‘zni falon podshohdan eshiting” yoki “endi gapni falonchidan eshiting” kabi) orqali Rabg‘uziy mazkur hikoyatni bir necha syujet chiziqli qilib yaratishga erishgan.

Rabg‘uziy qissalar tarkibiga hikoyatlarni olib kirar ekan, hikoyalar syujetiga afsonaviy ruh va mazmun singdiradi, hikoyalarning didaktik mohiyatiga alohida urg‘u qaratadi. Bu bilan Rabg‘uziy o‘z asaridagi hikoyalarning rang-barangligini ta‘minlagan, badiiy asarning muhim adabiy kategoriyalarini – muallif pozitsiyasini, his-tuyg‘ularni, mavzuni, ya‘ni axloqiy, falsafiy muammolarni, g‘oyani shakllantirgan. Ayniqsa, e‘tiqod va badiiy asar butunligini ta‘minlashga erishgan. Nuh alayhissalom qissasida bayon qilingan quyidagi hikoyat ayni shu maqsadlarni gavdalantiradi:

Nuhning bir qizi bor edi. Biri qiziga sovchilikka keldi. Bersammikan, deb o‘yladi. Yana bir keldi, bunga bersammikan, dedi. Xullas, to‘rt sovchi keldi va hammasiga berishni ixtiyor qildi. Hammalar qizni olib ketgani keldilar. Nuh alayhissalom qayg‘uga botdi. Uyiga kirdi. Uyida bir qiz iti va bir mocha eshagi bor edi. Xudoning qudrati bilan ikkalasi ham qiz edi. Xudo jannatdan bir hurni berdi. To‘rtala qizni Nuh to‘rtta kuyovga berdi. Qizlarning hammasi bir-biriga juda o‘xshar edi. O‘zining qizini taniy olmadi. Bir necha kundan keyin sovg‘alar olib, qizlarini ko‘rgani keldi. Bir kuyovidan so‘radi: “Jufting bilan munosabating qanday?” “Yaxshiman, ammo u emaydiyam, ichmaydiyam”. Nuh bildiki, u hur ekan. Ikkinchi kuyovidan so‘radi: “Jufting bilan munosabating qanday?” Kuyovi: “Qanjig‘ ekan”, dedi. Nuh bildiki, it ekan. Uchinchi kuyovidan so‘radi: “Jufting bilan munosabating qanday?” Kuyovi: “Eydi, ichadi. Eshakday yotaveradi”. Nuh bildiki, u moda eshak ekan. To‘rtinchi kuyovidan so‘radi: “Jufting bilan munosabating qanday?” Kuyovi dedi: “Men undan mamnunman, payg‘ambarlar urug‘idan ekan”. Nuh alayhissalom bildiki, bunisi o‘zining qizi ekan. Olib kelgan sovg‘asini unga berdi.

Rivoyat. Qissalar tarkibida qo‘llanadigan sermahsul janrlardandir. Rabg‘uziy keltirgan rivoyatlar mavzu jihatidan turlicha bo‘lib, asosan, hajm jihatidan hikoyatga nisbatan kattaroq, rivoyat qahramonining mo‘‘jizalarini, uning hayotiga oid voqealarni bayon qiladi. Rivoyatda ma‘lum darajada tarixiylik tamoyili bo‘ladi. Shuningdek, afsonaviy-epik ruh rivoyatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Solih yalavoch qissasidagi

rivoyat aynan shundan darak beradi. Rabgʻuziy Solih yalavochni va uning faoliyatini hikoya qilar ekan, u odamlarning qoʻylarini va yilqilarini hurkitib, hadeb bezovta qilaveradigan tuyani kim oʻldirishini bashorat qiladi. Qissaning tarkibidagi rivoyat ayni shundan boshlanadi. Rivoyatning boshlanishida Solih yalavoch bashorat qilgan “qizil yuzli, sariq sochli, chaqir koʻzli” odam tuyani oʻldiradi deb qilgan bashorati oqibatida odamlar shu rang va qiyofada tugʻilgan bolani oʻldiraveradilar. Oxiri Solih yalavoch bilan tuyani oʻldirgan odamlar oʻrtasida ziddiyat kelib chiqdi va odamlar Solihni oʻldirish payiga tushadilar. Rivoyat bayoni davomida Solihning moʻʼjizalari, uning aziz mukarram yalavoch ekani dalillar bilan koʻrsatiladi.

“Qisasi Rabgʻuziy”dagi rivoyatlarning bir turi borki, aqidalar va udumlar rivoyatga asos boʻldi. Rivoyatda voqealarning bayonidan koʻra, maʼlum udumlarning paydo boʻlishi sabablari va omillari asosiy oʻrin egallaydi. Masalan, Odam alayhissalom qissasida qurbonlik udumlarining paydo boʻlish sabablariga oid rivoyat shundan dalolat beradi (1, 28 b.).

Rabgʻuziy ayrim rivoyatlarga aynan tarixiy dalillarni yuklaydi. Masalan, Nuh alayhissalom qissasida insoniyatning paydo boʻlish tarixiga oid rivoyatni keltirar ekan. Bu rivoyatni Rabgʻuziy Kaʼbning asaridan olib keltiradi. Rivoyat epik syujetga ega boʻlmay, faqat Kaʼbning xulosalaridan iboratdir (1,46). Rabgʻuziy Kaʼbning asarida keltirilgan maʼlumotlar rivoyat xulosasi uchun kifoya deb bilgani sababli voqealarni bayon qilishni lozim deb bilmagan.

Rabgʻuziy rivoyat janriga alohida urgʻu berib, bu janrga didaktik mazmun yuklaydi. Ayni paytda rivoyatning ishonchli ekanini tasdiqlash maqsadida, bir tomondan, rivoyatni turli ishonchli manbalardan keltiradi, ikkinchi tomondan, qissada bayon qilinayotgan voqealarga aniqlik kiritish maqsadini rivoyat namoyon etadi. Yusuf qissasida keltirilgan rivoyat bunga yaqqol dalildir. Rivoyatni Rabgʻuziy ikki qismga boʻlib bergan: rivoyatning birinchi qismini Abdulloh ibn Abbosdan keltiradi. Uning asaridan keltirilgan rivoyat Yusufning va Ibn Yaminning taqdiri haqida koʻp asarlarda bayon etilgan anʼanaviy syujetni toʻldiradi, sharhlaydi: Yoqubning Yusuf va Ibn Yamin taqdiri haqida Azroilga

bergan savollari, Azroilning Yoqubga Yusuf va Ibn Yamin begunoh va aybsiz ekanlari haqida bergan xabari, bir kun Yoqub ikkala o'g'li bilan ko'rishuvi muqarrar ekani to'g'risidagi voqealardan iborat. Rivoyatning bu qismi tugallanmasida Rabg'uziy quyidagi o'gitni beradi: "Odam bolalari nasibasi kelishini biladilar, ammo qachon kelishini bilmaydilar, qo'rquvlari shundandir" (153 b). Bu rivoyatdan keyingi – qissaning tarkibiga kirgan voqealar Yusufning Misrdagi mavqei, Yoqub o'g'illarini Misrga don olib kelish uchun yuborishi, Yusuf saroyining tasviri, Yoqub o'g'illari Ibn Yaminni qaytarib berishni so'rab Yusufga qilgan iltijolaridan iboratdir. Qissa voqealari bilan keyin keltirilgan rivoyat uzluksiz davom etgan. Rabg'uziy "rivoyat" deb alohida ta'kidlashiga sabab shuki, bu rivoyatning manbai bor. Manba - Abdulloh Horis Ibn Navfal asaridan keltirilgan voqealardir. Rivoyatda bayon qilinishicha, Yusufga Ibn Yaminni so'rab qilgan iltijolari behuda ketdi. Akalar Yusufdan Ibn Yaminning taqdirini so'raganda, shunday javob berdi: "Uni sotdim, bitik oldim, mana o'sha bitik, u ibroniy tilida, biz ibroniychani bilmaymiz, ibroniycha – sizlarning tilingiz, o'qinglar, biz ham eshitaylik". Aka-ukalar bitikni bir-birlariga uzatdilar, birontasi o'qimadi, "Biz o'qishni bilmaymiz", deb javob berdilar. Yusuf ularga: "Nega o'z tilingizni bilmaysizlar?" deb e'tiroz bildirdi. Oxiri Yahudo o'qigan edi, hamma sarguzashtlar ma'lum bo'ldi. Bitigda Yusufni molik Za'rga sotganlari haqida yozilgan edi. Yusuf: Hozirgacha bo'ri egan der edingiz, u sizlarning tug'ishganingiz ekan; qarindoshni sotmoq ravo bo'lurmi?" deb hammalari tutishga amr berdi. Yusuf ularni azoblab o'ldiringlar, toki boshqalarga saboq bo'lsin, deya farmon qildi. Yusuf akalarining so'nggi iltimosini – bug'doy berajagini va qolgan ishlarini ertaga amalga oshiruvini aytdi.

Bu voqea Yusuf qissalarida uchramaydi. Rabg'uziy mazkur rivoyatni keltirishidan maqsad – insonlarni to'g'ri yo'lga boshlashdir. Shu bois ham rivoyat so'ngida mazkur rivoyatning xulosasi sifatida quyidagi o'git keltiriladi: "Shu tariqa qiyomat kuni Mavlo Taolo hamma bandalarni do'zax o'ti bilan qo'rqitadi, bandalar azobni ko'radilar. Shundan keyin o'z fazilatlari bilan jannatga kiradilar" (1, 157).

Keltirgan rivoyatlar, garchi afsonalar mazmuniga monand bo'lsa ham, deyarli hammasi biron manbadan olingani uchun Rabg'uziy rivoyat janriga mansub deb qaraydi va albatta, rivoyat terminini ishlatadi. Ko'proq rivoyatlarni u Vahb ibn Munabbihdan keltirgan. Buning sababi shuki, "Qisasi Rabg'uziy"ning yaratilishida asosiy manbalardan biri uning asari bo'ldi.

She'riy janrlar. "Qisasi Rabg'uziy"dagi bu janrlar har bir qissada bor. Qissalar, odatda, she'r bilan boshlangan. Asardagi barcha she'rlarning muallifi Rabg'uziyning o'zidir. Rabg'uziy qissalar debochasida payg'ambarlarning hammasiga she'r bilan ta'rif beradi. Har bir payg'ambarga xos fazilat, layoqat, Xudo in'om qilgan qobiliyatlarni bayon qiladi. So'ngra ana shu she'rda payg'ambarga berilgan ta'rif-tavsiflarni qissa davomida sharhlaydi. Qissalarda biron payg'ambarga oid voqealar bilan she'rda keltirilgan voqealar, ta'rifu tavsiflar hamohangdir. Jumladan, "Sulaymon ibn Dovud alayhissalom qissasi"dagi she'rga murojaat etaylik:

*Dovud o'g'li ul Sulaymon Tengrimizning sovchisi,
Er ulog'liq shoh ediyu ham uchar qush elchisi.
Odamiy, uchqan, yugurgan, dev, pari, ham el, bulut,
Og'ulug' bo'lsun ozig'lig' barcha aning ishchisi.
Ko'zi to'rt yuz qangli erdi kunda qushlug' oshig'a,
Borg'usida kur arslon, bo'ri, qoplon qo'ychisi.
Tupuchoq otning urug'i qoldi andin dunyoda,
Tilda hujjat, tanda xidmat, qo'lda mulkat qamchisi.
O'zi "nima'l abdu" atandi ham yalavoch ham malik,
Yo'ldin ozg'anlarg'a erdi o'zi ujmox yo'lchisi.*

Rabg'uziy she'riy janrlarni farqlaydi va har birini o'z nomi bilan ataydi. Keltirilgan she'r qofiyalanishiga ko'ra g'azalni eslatadi. Ammo Rabg'uziy mazkur she'rga nisbatan g'azal terminidan istifoda etmaydi, balki *she'r* deb ataydi. Yoki "Qissai Nuh nabiy alayhissalom"da qissaning butun mazmunini o'zida mujassam etgan she'r bor. Bu she'r ham shaklan - qofiyalanishi jihatdan va mazmunan xuddi yuqoridagi she'rning aynan o'zi. Rabg'uziy bu qissada ham

she'r terminini ishlatadi. Shu turkumdagi ayrim she'rlar maqtaida Rabg'uziy taxallus keltiradi. Quyidagi

Rabg'uziy Nosir tayanma tunla kunduz ingranib,

Sayrag'il, suchuk tilingdin so'z chiqar so'zlar sog'i (2, 197)

g'azal maqtai bunga bir misoldir. Rabg'uziy nima uchun bu turkumdagi – aynan qissalar boshlanmasidagi she'rlarga g'azal terminini qo'llamaydiyu aynan g'azal termini ostida berilgan baytlar uningcha g'azal hisoblanadi? Rabg'uziyning she'riy janrlarga qarashi mavjud an'anaviy usullardan kelib chiqqan. G'azal maqtaida taxallus qo'llamasdan mazkur janr talablariga rioya qilingan she'rlar o'zbek adabiyotida bor.

Rabg'uziy g'azal terminini aynan mazkur janr talablariga javob beradigan she'rga nisbatan qo'llaydi. Yusuf qissasida g'azal termini ostida keltirilgan janr buning yorqin misolidir. Bu g'azalni Zulayho Yusufning firoqida o'rtanganda aytgan.

G'azal

Jilva birla solnu chiqq'an ol yangoqlig' yoni qor,

Ko'zlari yulduz, yuzi kun, olini ko'kning oyidin.

Ko'rsayurman ko'rkingizni ko'rgu bo'lmas ko'zginam,

Ko'rk zakotin berki vojib qilsa ko'rkning boyidin.

Qosh otib ko'nglumni olg'an jon qo'larsiz berayin,

Ul netak oshiq bo'lurkim, qaytsa ma'shuq ra'yidin.

Nogahon bir qubla qo'lsam o'fqa birla hoyqirar,

Jon berib o'lgay telim ul jumla qilg'on hoyidin.

Rabg'uziy qul Nosiruddin ta'bi turluk so'z tuzar,

Gulchirab usruk o'lay ko'z boqsa quymoch qoshidin (1. 126).

Mazkur gʻazal maqtaida Rabgʻuziy taxallusini keltiryapti. Ammo eʻtibor bersak, gʻazal janri qoidalariga xilof qoidani koʻramiz. Bu – gʻazalning matlai qofiyalanmaganidir, yaʼni gʻazalning qofiyalanish tizimi **a-a, b-a, v-a** shaklida boʻlishi lozim edi. Matlasi qofiyalanmagan sheʼrni Idris alayhissalom qissasida ham uchratamiz. Ehtimol, gʻazalning matlai qoʻlyozmani koʻchirish jarayonida tushib qolgan boʻlishi ham mumkin.

Chamasi, *gʻazal* termini ostida Rabgʻuziy mazkur janrga oid hamma sheʼrlarni jamlamagan. Jumladan, yana Yusuf qissasida “sheʼr” termini ostida mulammaʼ sanʼatining namunasi sifatida gʻazal berilgan. Sheʼr maqtai

Rabgʻuziy Nosir koʻrursa yuz oʻvurmas ishqdin,

Bek necha bushub soʻkarsa qul qachon koʻnglin kesar (1, 116).

misrasi bilan tugaydi.

Rabgʻuziy oʻz asarida istifoda etgan sheʼrlarga turli terminlarni ishlatgan. Jumladan, u bayt termini ostida asosan toʻrtliklarni keltiradi. Mazkur toʻrtliklar toʻrt yoki sakkiz misradan iborat, qofiyalanish tizimi *a-a-b-a* yoki *a-a-a-a* shaklida. “Qissai zabihi Ismoil alayhissalom”da keltirilgan ikki toʻrtlik (1,78,79), “Qissai Yusuf siddiq alayhissalom”da berilgan sakkiz misradan iborat toʻrtlik (1,101) shuni tasdiqlaydi. Ayrim hollarda ikki misraga nisbatan bayt terminini qoʻllaydi (Alisher Navoiy ham ikki misraga nisbatan bayt terminidan istifoda etgan oʻrinlar bor). Bu bayt fard mazmunini oʻzida ifoda etadi. Masalan, “Qissai zabihi Ismoil alayhissalom”da quyidagi bayt fard xususiyatiga ega boʻlib, taqdirda boʻlmasa, biron oʻzgarish boʻlmaydi degan maʼnoni ifoda etadi:

Suvda turgʻan ot bolasi necha boʻlsa ul kichik,

Keng dengizning suvi ani eltu-mas (1, 78).

Rabgʻuziyning ijodida eng muhim oʻrin egallagan sheʼriy janrlardan biri – bahoriyotdir. Rabgʻuziy “Qissai Yusuf siddiq alayhissalom”da “bahoriyot” degan nom bilan Navroʻzga bagʻishlangan gʻazalni keltiradi. Rabgʻuziyning bu gʻazalida tabiat, butun er yuzi uygʻongan va bezangan, dillarga xushnudlik baxsh

etadigan fasl ekani, bahor faslining jamiki ko'rk-tarovati tasvirlanadi. Shu boisdan ham Rabg'uziy "bahoriyot" deb nom bergan.

Xullas, Rabg'uziy bu asarida keltirgan she'riy janrlarning ko'pchiligi g'azal janridan, so'ngra to'rtliklardan iborat.

Latifa. Asarda asosan, "Qissai Yusuf siddiq alayhissalom"da keltirilgan. (1: 117,127,) "Latifa" termini ostida hikoya qilingan voqealarning hozirgi latifa, ya'ni yumorga yo'g'rilgan, kulgili voqealarga aloqasi yo'q. Aksincha, latifalarda mo'jizaviy voqealar hikoya qilinadi. Buning ustiga, mo'jizaviy voqea muhim xulosalarga, o'git va hikmatlar kelib chiqishiga omil bo'ladi. Mazkur janrning asosiy belgisi shulardan iboratdir.

Birinchi latifa Yusufning duosi tufayli bir qator mo'jizalar yuz bergani hikoya qilinadi. Hikoya qilinishicha, Molik Za'r Yusufga arz holini bayon qildi:

"Ey Yusuf, senga bir hojatim bor...Molim ko'p, ammo amolim yo'q. Quruq yig'ochman, butog'im yo'q. Sendan duo, haqdin umanchim bor". Yusuf Molik Za'rning iltijosini eshitib, qo'llarini ko'tarib duo qildi: "Ey davlat tojin boshing'a urug'li, ey mazallat javonin egnisha kizukli, quzi tushganlarni yuqoru ko'turgan, ura qo'pg'anlarni yumurg'an, berga san, olg'an san. Bu abushqag'a o'g'ullar karomat qilg'il".

Yusufning duosi ijobat bo'lib, Malik Za'r o'n ikki cho'risidan bir kunda egizak o'g'il – yigirma to'rt o'g'il ko'rdi. Latifa so'ngida cho'rilarining Malik Za'rga qilgan iltifotlarini Rabg'uziy quyidagi hikmat orqali yakunlaydi: "Qamug' to'nlar yigna birla tikilur, azinlarni o'rtar, ammo o'zi yalang qolur, yo kendu chirog' mengizlik o'zi yonar, o'zgalarga yoruqluq berur" (1, 119). Rabg'uziy bu hikmatni cho'rilar orqali Molik Za'rning iltijosi va orzusi ushalib farzandli bo'lgani, cho'rilarining o'zlari esa igna singari yolg'iz qolganiga yoki chiroq singari o'zlari yonib, Molik Za'rning hayotini shod-xurram qilganiga ishora etmoqda.

Ikkinchi latifa Yusuf va Zulayho o'rtasidagi mojaro haqida hikoya qiladi. Yusufning ishqida yongan Zulayho eri Azizi Misrga Yusuf ustidan tuhmat qildi. Latifadagi voqealar bayonida kim haq va kim nohaqligini Zulayho cho'risining

to‘rt oylik beshikda yotgan o‘g‘li Zulayho –nohaq, Yusuf esa haqligiga ishorat bilan guvohlik beradi. Latifa so‘ngida Rabg‘uziy to‘rt oylik chaqaloqning ishorat orqali guvohlik bergani nihoyatda maqbul ish bo‘lganini foydali maslahat sifatida keltiradi. So‘ngra kimdir o‘z gunohini boshqa birovga yuklamog‘i bandalarga ham, Yaratganga ham xush kelmasligini aytish bilan bir qatorda, gunohni boshqalarning oldida oshkora aytmoq ham insoniylikning alomati emasligini, gunohkor va begunohni ajrim qilishda aql bilan ish ko‘rish lozimligini Rabg‘uziy shunday xulosalaydi:

“Ey mo‘min, o‘z yozuqingni o‘zgalarga yuklamagil, eklading ersa Mavlo o‘g‘lontek aning arig‘liqin bilgurtgay, seni rasvo qilg‘ay...O‘ngingda kimarsaning aydini ochmag‘il. Yusufga zarurat bo‘lmaguncha, “Sizlarning makr va hiylalaringiz ulug‘dir”, demadi. Yana o‘g‘lon tanuqluq berdi ersa, ravshan aytmedi, o‘rtukluk aydi. Azizi Misr o‘zi angladi” (1, 128).

Har ikkala latifa o‘zbek adabiyotidagina emas, balki turkiy adabiyotda mazkur janrning mazmunan tamomila yangi namunasi bo‘lib, didaktik adabiyotning uzluksiz davom etganini ko‘rsatadigan dalildir.

Hikmat (1, 24. 25.2- 133). “Qisasi Rabg‘uziy”da hikmat shakl tomondan rivoyat, hikoyat janrlaridan farq qilmaydi. “Qisasi Rabg‘uziy”dagi hikmat “bilimdonlik”, “donishmandlik” ma’nosidan tashqari, “sir” ma’nosida ham ishlatilgan, shu bois Rabg‘uziy hikmatlarida falsafiy mazmun etakchilik qiladi.

Rabg‘uziy hikmatga o‘z asarida alohida urg‘u beradi va hikmatni qissa janrining kaliti sifatida talqin qiladi – qissadagi ma’lum bir voqeaning sabab va natijasini ochish, uning mohiyatini kitobxonga etkazish uchun hikmat keltiradi. Asosiy gap – hikmatning maqsadida, “sir”ni o‘quvchiga etkazishda. Bu hikmatlarda javonmardlik va faqirlikni ulug‘lash o‘z ifodasini topgan. Ilk hikmat “Qissai Odam safiy alayhis-salom”da bor. Rabg‘uziy bu qissada Odam alayhissalomning jannatga kirishi siri nimada edi, degan savolga javob berar ekan, “*mo‘minlarning tanini, molini sotg‘in olib, ujmox (ya’ni jannat)bergusini, ko‘rilmagan narsani bay’ (ya’ni savdo) qilmoq shariatda ravo bo‘lmaz teb*

ujmoxga kivur (ya'ni kirit)”ganlarini (1, 22) asosiy sabab qilib ko'rsatadi. Bu masalada ulamolar o'rtasida ixtilof borligi haqida ham xabar berib o'tadi.

Rabg'uziy o'z hikmatlari “sir”ini faqat savol va javoblarda kashf qiladi. Hikmatlarning janriy belgilari savol va javoblardadir (1; 24, 25).

Ayrim hikmatlarda biron toifaning alomatlari bilan tarixiy voqea, tarixiy shaxslarning sifatlari uyg'unlashtiriladi. Luqmoni hakim valiylarning alomati haqida so'z yuritgan hikmatda ayni shuni ko'rish mumkin. Luqmoni hakim quyidagi uchta alomatni valiylarga xos deb aytadi: birinchisi - javonmardlik, ikkinchisi - yomon xulqdan, hasad va kindan xoli ekani, uchinchisi - ulamo va fuzalolar bilan do'stligi. Ayni paytda bu uch alomatni Muhammad a.s.hayotiga bog'laydi:

“Bilgilkim, Abu Bakr Siddiq va Umar ibn al-Xattob raziyallohu anhumo Rasul alayhissalomning qayin otalari erdilar. Oysha va Hafsa yo'lindin. Yana Usmon va Ali raziyallohu anhumo kuyavlari erdilar. Usmon raziyallohu anhu Ruqayya sababidan. Ul vafot bo'ldi ersa yana Ummi Qulsumni berdi. Aning uchun Zunnurayn atandi. Yana Ali raziyallohu anhu Fotima yo'lindin kuyav erdi teb aymishlar”.

Bu hikmat savol va javob asosiga qurilmagan. Garchi shunday bo'lsa-da, Muhammad a.s.ning sifatlari valiylarda bor ekaniga ishora qilgani yuqorida keltirilgan hikmatdagi faqirlikka hamohangligi bu hikmatlarni birlashtiradi.

Ruboiymi?

Bu bayt murodg'a tekinmak tilar,

Telim xalqlar aro o'kunmak tilar,

Kun, oy sajda qilg'ay arig' yuzga man,

Bu kun otdin inib, yukunmak tilar (1. 114)

Xabar. Xabar janrini ko'zdan kechirish shuni ko'rsatadiki, asardagi biron payg'ambarga oid qissada aytilmagan kichik voqealar bayon qilinadi yoki xabar beriladi, shu tariqa qahramonlarning biron muhim qirrasini ochiladi. G'ayritabiiy voqealar, mo'jizalar ham ayrim xabarlarda ishtirok etadi va shu orqali qissa qahramonlari – payg'ambarlarning to'liq qiyofasi yaratiladi. Masalan, Nuh

payg'ambar haqidagi qissada odamlar solih bo'lmaganlari uchun ularga qirq yil davomida yomg'ir ham berilmadi, farzandlar tug'ilmadi, odamlar, yilqilar qirilib ketdi. Rabg'uziy shu voqeadan so'ng "Xabar andog' kelur" deya xabar keltiradi:

"Avj ibn Unuq to'fonda halok bo'lmadi. Aning uchunkim, dayyor jumlasindin ermas erdi. Dayyor – evluk – barqilig' temak bo'lur. Avjning barqi yo'q erdi, tengizlar atog'inda turur erdi. To'fon suyi tizinga oshmadi".

Xabar janriga oid voqea shundan iborat. Hali to'fon voqeasini Rabg'uziy hikoya qilmagan bo'lsa ham, yuqoridagi voqeadan – jamiki insonlar, jonzotlar qirilib ketgandan so'ng Avj ibn Unuq to'fonda halok bo'lmagani va buning sababini uning xoksorligi – jamiki insoniyatdan farqi boshpanasi yo'qligidan deb izohlaydi. Bu o'rinda Rabg'uziy insoniyatni halokatga eltuvchi yo'l – molparastlik deb uqtirmoqchi bo'ladi. Yoki "Qissai Qorun alayhilla'na"da bayon qilingan voqealarning ishonchli, dalillarga asoslanganini ta'kidlash, qolaversa, Qorunning ochko'zligini, Musoning sabrliligini ko'rsatish maqsadida quyidagi xabarni keltiradi: Muso yalavoch har kuni bani Isroilni yig'ib, minbarga chiqib, majlis qilar, xalqqa nasihat qilar edi. Qorun esa oltin piyolada, Musoning ro'parasida cholg'uchilar hozir qilar, xizmatkorlari oldida sharobxo'rlik qilardi. Muso esa faqat sabr qilardi.

Bu xabar ham hajm jihatidan qisqa bo'lishiga qaramay, Qorun haqidagi asosiy voqealar oqimiga – Qorunning badnafsligi va molparastligiga, Musoning sabrli ekaniga aniqlik kiritish uchun muhim dalil bo'lgan (2, 12).

(1, 23, 26. 41. 180. 2-12,15. 30.31.33.42.)

Foyda. Bu janr "Qisasi Rabg'uziy"da, asosan, didaktik janrdagi kichik hajmdagi voqealarni hikoya qilishdan iborat. Foyda o'z nomi bilan insoniyatning zohiran va botinan solih, to'g'ri bo'lishga undashdir. Masalan, "Qissai Yusuf Siddiq alayhissalom"da ikkita foyda janriga mansub parcha bor (1, 128). Birinchi foydada odam o'z gunohini boshqalarga yuklamasligi, aks holda Yaratuvchi ayblanuvchining gunohini bilishi va tuhmatchiga shunga yarasha jazo berishi haqida bo'lib, Azizi Misrning xotini Zulayho Yusufga tuhmat qilganda, to'rt oylik chaqaloq Yusufning pokligi haqida guvohlik beradi. Yusuf va Zulayho

mojarosi hamda shundan xulosa sifatida Rabgʻuziy “foйда” termini ostida oʻgitni beradi.

Bu oʻgitni berib boʻlgach, Rabgʻuziy odamlar bir-birlariga yomonlik qilmasliklari haqidagi oʻgit boʻlib, Azizi Misr Yusufning toʻni orqasidan yirtilganini koʻradi va bundan xulosa chiqarib, Zulayhoga qarata: “Bu – siz ayollarning hiylasidir. Oʻzingizni pok deb, gunohingizni boshqalarga yuklaysiz. Ayollarning hiyla-makri koʻpdir” deb aytadi. Mana shu hikmatomuz gap foydaning janriy belgisini tashkil qiladi (1, 128).

Yana bir foyda “Qissai meʻroj an-nabiy sallallohu alayhi va sallam” qissasida boʻlib, bunda ham hikmatomuz oʻgitning mazmuni hikoya qilinadi. Foydaning mazmuni shundan iborat: Tangri jannat hurlarini yaratgandan beri, hurlar oʻzlariga oro berar ekanlar, hech bezanishdan tinmas ekanlar. Qiyomat kuni kelganda, ularning koʻrki-tarovati ham yoʻq boʻlar ekanu ammo ularning xoli boʻlmagani uchun chiroydan hech asar qolmas ekan. Qiyomat kuni kelganda, Tangri Bilol habashiyning qora rangidan jamiki jannat hurlariga nuqta-nuqta ulashib berar ekan. Hammasiga bittan hol tegar ekan. Shu hol bilan hurlarning chiroyi nihoyasiga etar ekan (2, 157).

Bu voqea ham maʼlum bir vaziyatga mos oʻgit, xulosa bor. Bu janr hikmatlarga yaqin turadi. **(1, 128,2- 111, 125. 157. 159).**

Munojot. Bu janr asosan, islom paygʻambarlari va xalifalari bayonida bor boʻlib, Ollohning marhamatiga noil boʻlganlari, endi yoʻldan adashmasliklari uchun Undan marhamat soʻraganlari bayon qiliingan **(2; 112, 128. 136).**

Xullas, “Qisasi Rabgʻuziy” oʻzbek adabiyoti tarixidagina emas, balki turkiy adabiyot tarixida ham oʻziga xos, takrorlanmas nasr namunasidir. Asarda istifoda etilgan janrlar XIV asr oʻzbek adabiyotining rivojidan, diniy adabiyotlar bilan mustahkam aloqasidan darak beradi.

Savol va topshiriqlar

1. “Qisasi Rabgʻuziy”da Rabgʻuziy oʻzi haqida qanday maʼlumotlar keltirgan?
2. Rabgʻuziy oʻz asarini yozishda qanday manbalardan foydalangan?

3. Asarda Rabg‘uziyning manbashunos va tanqidchi sifatidagi faoliyatini so‘zlang.
4. “Qisasi Rabg‘uziy”da qissa janri qanday shaklda va mazmunda ifodalangan?
5. Asarda hikoyat janri qanday shaklda va mazmunda ifodalangan?
6. Asardagi rivoyat janri haqida so‘zlang.
7. “Qisasi Rabg‘uziy”da she’riy janrlarga xos belgilar to‘g‘risida so‘zlang.
8. Asardagi latifa janri haqida so‘zlang.
9. Asardagi boshqa janrlar haqida so‘zlang.
10. SHarq afsonalarida “Qisasi Rabg‘uziy”dagi qissalarga hamohang syujetlar haqida so‘zlang.

TOPSHIRIQLAR:

“Qisasi Rabg‘uziy” (nasriy bayoni)

1. TESTLAR:

1. Iblis nima sababdan sadoqatni rad etdi?

- A) Odam uni haqorat qildi
- B) O‘zini otdan yaratilgani uchun ustun deb bildi
- C) Tavba qilishni xohlamadi

2. Odam nima uchun Azroilni eslaydi?

- A) U tuproq olib keldi
- B) Jannatdan haydadi
- C) Uni kechirmagan

3. Odam nima sababdan turli rang va fe‘l-atvorda yaratilgan?

- A) Tuproq turlicha bo‘lgani sababli
- B) Iblis ta’siri bilan
- C) Odamning iltimosi bilan



2. QUYIDAGI G‘AZAL TAQTESINI CHIZING.

*Jilva birla solnu Chiqg‘an ol yangoqlig‘ yoni qor,
Ko‘zlari Yulduz, Yuzi kun, olini ko‘kning oyidin.*

3. “HA YOKI YO‘Q” TESTI (TEZKOR JAVOBLAR O‘YINI)


“Yo‘q” javobi uchun ✕, “Ha” javobi uchun ☑ belgilarini qo‘ying.

- Iblis yulduzdan yaratilgan.
- Azroil yer tuprog‘ini olib keldi.
- Odam aybini tan olib tavba qildi.
- Havvo Odamdan avval yaratilgan.

4. ZANJIRLI HIKOYANI DAVOM ETTIRING

Voqealarni ketma-ketlikda tartiblang.

Namuna:



5. TOP VA JOYLASHTIR

Voqealarni ketma-ketlikda to‘g‘ri joylashtirilishi lozim.

Kartochkalar:

Odam yaratildi	
Iblis itoat qilmaydi	
Odamga ism o‘rgatiladi	
Odamga Havvo yaratiladi	
Taqiqlangan meva yeyiladi	
Odam va Havvo yerga tushiriladi	

QISSA: Ibrohim va Ismoilning qurbonlik sinovi

“TO‘G‘RI YO‘LNI TANLA”

Ushbu topshiriqda qissadan xulosa chiqargan holda to‘g‘ri yo‘lni topishadi. Muhokamaga quyidagi fikrlar qo‘yiladi.

Namuna:



Vazifa: To‘g‘ri tanlovni izohlab, guruhda himoya qilish. Keyin muhokama qilinadi:

- Nega bu yo‘l eng oqilona?
- Nima sababli bu eng to‘g‘ri yo‘l?

IJODIY TOPSHIRIQ: “KEMA ESHIGI YOPILGANDA”

Vazifa:

- O‘quvchilar 3 daqiqa ichida “Kema eshigidan kimlarni olib kirgan bo‘lardingiz?” savoliga javob yozadi.
- Har bir tanlov asoslanadi: “Nega u?” / “Nega boshqasi emas?”

GRAFIK TOPSHIRIQ: “IMON KEMASI”

Vazifa:

- 2 ustunli jadval: “Najot topganlar” va “Halok bo‘lganlar”. Nega?

“Najot topganlar”	“Halok bo‘lganlar”

- Najot: iymon, itoat
- Halokat: g‘urur, iymonsizlik

QISSA: Ibrohim va butlarni sindirish haqida

TAQQOSIY TAHLIL: IBROHIM VA QAVMI

Vazifa:

• 2 ustunli jadval yordamida Ibrohimning soʻzlari va qavmining eʼtirozini yozing. Har bir juftlikni baholang: Kim haq va nima uchun?

Namuna:

Ibrohim	Qavm
“O‘zingiz yasagansiz”	“Biz ota-bobolarimizga ergashamiz”
...	...

SAYFI SAROYINING “SUHAYL VA GULDURSUN” DOSTONI



Reja:

1. Sayfi Saroyi yashagan muhit, uning ijodi.
2. Sayfi Saroyi - iste'dodli tanqidchi.
3. “Suhayl va Guldursun” dostoni.

Tayanch so‘z va iboralar: epik janr, taxallus, Oltin O‘rda davlati, dardli baytlar, tarjimai hoi, zamondosh shoirlarga she‘riy javoblar, qasida, qit‘a, ruboiylar, “Suhayl va Guldursun” dostoni, erkin tarjima, ijod ahli, asliyat, debocha.

Sayfi Saroyi yashagan muhit, uning ijodi. Sayfi Saroyi XIV asrda yashab ijod etgan va epik janr taraqqiyotida sezilaxli iz qoldirgan ijodkordir. U 1321-yili Qamishli qishlog‘ida tug‘ilib, 1396-yili Misrda vafot etgan deb taxmin qilinadi. Shoiming taxallusidan ma‘lum bo‘ladiki, u Oltin O‘rda davlatining poytaxti Saroy shahrida ijod qilgan. Vatan sevgisi, yurt qayg‘usi uning ijodida dardli baytlarni paydo qildi. Shoiming “Yodgornoma” asari muqaddimasida ana shu baytlar bor. “Yodgornoma” - o‘tgan asrning 60-yillar o‘rtalarida Qo‘qon shahri yaqinidan topilgan. Bu asar “Suhayl va Guldursun” nomi bilan Sayfi Saroyi ijodidan o‘rin olgan. U Oltin O‘rdadagi urushlar, nizolar oqibatida vatanni tark etishga majbur bo‘lganini “Yodgornoma”ning muqaddimasida shunday misralar orqali bayon qilgan edi:

*O‘sub tufrog‘im uzra nayzalar, ban evdin ayrildim,
Vatandin benishon o‘ldim-da, o‘zga yurtga evrildim.
Nechuk falak jav(i)r ayladi, qanday(in) gunohimbor?!
Ilohim, o‘yla kim javring, ban elga sodiq ul erdim.*

Shuningdek, Sayfi Saroyi Movarounnahrda va ma‘lum vaqt Turkiyada ham istiqomat qilgan, Sayfi Saroyining quyidagi she‘ri uning tarjimai holiga oid ba‘zi tomonlarni yoritishga yordam beradi:

*Ilohi, bu qari miskin qulingni
Bag‘ishla ko‘rguzub to‘g‘ri yo‘lingni,
Maliklar rasmidir dilshod qilmoq,*

Qarisa qullami ozod qilmoq.

Sayfi Saroyi bu she'rini Misrda - Mamluklar davlatida yashayotgan paytda yozgan bo'lib, hayotining so'nggi yillarini o'sha yerda o'tkazgan. Yuqorida aytganimizdek, Oltin O'rda tanazzulga yuz tuta boshlagan bir paytda Sayfi Saroyi Misrga ketgan. U mazkur she'ri orqali hukmdorl dan o'z yurtiga qaytish uchun ijozat so'ragan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, Sayfi Saroyi shoh saroyidagi e'tiborli shaxslardan bo'lgan. Zamondosh shoirlarga she'riy javoblaridan ham Sayfi Saroyining o'z davridagi baland mavqei haqidaxulosa chiqarish mumkin. Sayfi Saroyi vafot etgan yillari Misr Mamluklar davlatida Zohir Sayfiddin Bari quq ikkinchi marta (birinchi marta 1382 y.) taxtga o'tirgan edi. Misr turk davlatida o'zbek adabiyoti tarixidagi yirik hodisa sifatida Sayfi Saroyi va uning zamondoshlari adabiy merosini keltirish mumkin. Taxminimizcha, Sayfi Saroyining adabiy merosidan oz qismi yetib kelgan. Uning bir necha g'azallari, qasida, qit'a, ruboiylari (uchta forsha ruboiysi ham), "Suhayl va Guldursun" dostoni va Sa'diy Sheroziyning "Guliston" (1258-yili yozib tugallagan) asarining o'zbek tiliga qilgan erkin taqimasi yetib kelgan.

Sayfi Saroyi - iste'dodli tanqidchi. Sayfi Saroyi adabiyotga halol, e'tiqod bilan munosabatda bo'lish tarafdori edi. Uningcha, adabiyot, jumladan she'riyat - bir bog'. Boqqa bulbul ham, zog' ham kelib qo'naveradi. Ijod ahlining she'riyat bog'1 idagi o'rni alohida. Ijodda o'mini topgan shoirlar "bulbul", shunchaki adabiyot atrofida o'ralashib yurganlar "zog'"lardir.

"Suhayl va Guldursun" dostoni. Yuqorida biz bu asar "Yodgornoma" nomi bilan tanilgani haqida aytgan edik. Sayfi Saroyi "Suhayl va Guldursun" dostonida dunyoviy ishq, sevgida vafodorlik, mardlikni kuylaydi. Doston afsona emas, balki tarixiy haqiqat asosida yaratilganini Sayfi Saroyi alohida ta'kidlab:

Emas afsona, chin ushbu bitilmish,

Bu chin, afsonadek ishqda yetilmish

misralari bilan boshlaydi. Dostonning mazmuni quyidagicha: Amir Temur bilan Oltin O'rda xoni To'xtamish o'rtasida bo'lgan jangda To'xtamish xon tomonidan ko'p odam asirga olinadi. Bo'lib o'tgan jangda qonlar daryo bo'lib oqdi.

Asirlar orasida To'xtamishning o'g'li Suhayl ham bor edi. Suhayl ni zindonga tashladilar. Suhayl xuddi Yusuf singari go'zal yigit, fazilatleri bir talay, so'zlari shirin yigit edi. Suhayl ni zindonga tashlaganlaridan keyin, u uxlab qoladi va tush ko'radi. Tushida bir parivash qiz bog'da yurgan emish, Suhayl esa bog'da qizga atab gullar terib yurgan emish. Qiz Suhayl ning ko'ngliga otash tashlab qochib ketibdi. Qizning ortidan yuguribdi-yu ammo bir chuqurga yiqilib tushibdi. Suhayl uyg'onib ketib, bu tush ekanini anglabdi. Shohning qiz; Guldursun kanizlari bilan sayr qilib yurib, zindondagi Suhaylni ko'rib qoladi. Guldursun - o'zini gul, Suhayl ni bulbul deb bildi. Kechasi zindonbon oldiga keldi va zindonga tushib behol yotgan Suhayl ning yuziga yuzini qo'ygan edi, Suhayl o'ziga keldi. Guldursun Suhayl ga: "Men sizning fidoyingizman" deb, Suhayl Guldursunga: "Men sening gadoying bo'ldim", deya ahdu paymon qildilar va ikkovi chohdan chiqib, qochdilar. Ikkovi do'zaxday qizib ketgan sahroda yuraverdilar. Ammo Guldursun ochlikdan, suvsizlikdan yerga yiqilib, jon berdi. Chorasiz qolgan Suhayl ham "menga yaxshidir yor birla o'lmak", deya o'ziga tig' urib, Guldursunning yonida jon beradi. Suhaylning ohu nolasidan sahroda bo'ron ko'tarilib, ikkoviga qum qabr bo'ldi.

Sayfi Saroyi Layli va Majnun voqeasini ham doston nihoyasida tilga oladi. Bundan shuni anglash mumkinki, "Layli va Majnun" dostonlari, xususan, Nizomiyning mazkur nomdagi dostonidagi Layli va Majnun o'rtasidagi ishq timsoli "Suhayl va Guldursun" dostoniga asos bo'lgan. Dostonning yozilgan sanasini Sayfi Saroyi quyidagicha ko'rsatadi:

Yedi yuz to'qson olti navro'z oyi,

Xatm etti buni sayfi Saroyi.

796 - milodiy 1393\94-yillarga to'g'ri keladi. "Suhayl va Guldursun" o'rta asar yozma adabiyoti singari xalq og'zaki ijodi ta'sirida yaratilgan. Doston aruzning hazaji musaddasi maqsur vaznida (mafoiylun, mafoiylun, mafo'iyl) bitilgan.

Xotin sodiq, ani sevgil, aziz er,

Har og'ir ish da ham doyim seni der.

V --- / V--- / V--

Sayfi Saroyi va uning ijodkor zamondoshlari ona Vatandan uzoqda bo'lsalar ham, XIV asming ikkinchi yarmidagi o'zbek adabiyot saviyasini yuqori darajaga ko'tarib, jamiki turkiy xalqlar o'lkalaridagi aholining ona tilida ijod qildilar. XIV asming ikkinchi yarmi - XV asrda Misr madaniy-adabiy muhitini mamluklar tamomila o'zgartirib yubordilar. XV asrda yashagan arab muarrixlari ham qipchoq tilida, ham arab tilida ijod qilgan ko'plab olimlar, yozuvchilar va shoirlarning nomlarini keltiradilar. Ular Misrdagi madrasalarda turli fanlardan dars berdilar. Oltin O'rdadagi o'zaro jangu jadallar oqibatida XIV asming ikkinchi yarmidan boshlab ko'plab madaniyat arboblari Misrga ko'chib borib, yangiyangi turkiy madaniy markazlarni paydo qildilar. Bu davrda qipchoqo'g'uz tilida turli mazmundagi va janrdagi adabiyot shakllandi. Arab va fors tillaridan bu tilga tajjima qilingan bir qator asarlar turkiy adabiyotni miqdor va sifat jihatdan boyitdi. Umuman turkiy madaniy muhit, turkiycha an'ana va rah o'zbek adabiyotining bu o'lkada rivojiga imkoniyat yaratib berdi. "Shohnoma"ning tarjimasi ham ana shu madaniy muhitning mahsulidir. Mashhur venger turkiyshunosi Von Lekok shunday yozgan edi: "Mising madaniyati va san'atining muttasil ravishda rivoji va gullab-yashnashi hokimiyat arablardan turkiy hukmdorlar qo'lga o'tgan davr bilan bog'liq". Misrda nafaqat adabiyot turkiy tilda edi, balki turkiy qavmlar o'zlarining azaliy udum va qadriyatlarini ham saqlab qoldilar.

TOPSHIRIQLAR

(“Suhayl va Guldursun” dostoni)

1. KADRLAR KETMA-KETLIGI

Metod: Doston asosida asosiy voqealarni suratli kadrlar ketma-ketligida beriladi. O'quvchilar qaysi kadr qaysi voqeaga mos kelishini aniqlaydi.



Topshiriq: Quyidagi suratlar (yoki o'qituvchi chizgan tasvirlar) qaysi voqeani anglatadi? Ularni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtiring.

Misol (tasvirli holda):

Suhayl zindonda.

Pari tushida guldun terib yuribdi.

Guldursun chohga tushadi.


Cho'lda vafot etishadi.

Quyidagi jumlar bilan talabalarga rasm yaratishda yordam berish mumkin:

1. **Suhayl zindonda** – Zindan qanday: qorong‘i, zanjirlar bormi, Suhayl qanday holatda (yotganmi, o‘tirganmi)?
2. **Pari tushida guldun terib yuribdi** – Pari qanday kiyimda, bog‘ qanday (bahor, gullar, yorug‘mi)?
3. **Guldursun chohga tushadi** – Choh qanday, Guldursun qanday kiyimda, holati qanday (yig‘layaptimi, Suhayl bilan ko‘rishyaptimi)?
4. **Cho‘lda vafot etishadi** – Qanday sahro (qumli, quruq), Guldursun va Suhayl qanday holatda, qanday kayfiyatni berish kerak?

2. SSENARIY TUZING (IJODIY YOZUV METODIKASI)

Metod: O‘quvchilar 3 ta asosiy sahna uchun sahna ssenariysi tuzadi (suhbat, muhit, harakatlar).



3. QIYOSIY tahlil: Layli va Majnun – Suhayl va Guldursun

Belgilar	Suhayl va Guldursun	Layli va Majnun
Muhabbat qanday boshlanadi?	?	?
To‘siqlar nima edi?	?	?

Belgilar	Suhayl va Guldursun	Layli va Majnun
Yakun qanday bo‘ladi?	?	?

Namuna:

Belgilar	Suhayl va Guldursun	Layli va Majnun
Boshlanishi	Chohda ko‘rishish	Bolalikdan
Yakuni	Birga o‘lim	Ayriliqda o‘lim

4. “TAHLIL QIL” (TASHBEH, ISTIORA, EPITET):

Quyidagi misralardan badiiy vositalarni toping:

“Sevar bulbul gulin, gul bulbulin ham,

Nechun gul aylasin bulbul ko‘zin nam?”

Javob: Bulbul – tashbeh (ma’shuq), gul – tashbeh (ma’shuqa), istiora mavjud.

5. SSENARIY YAKUNINI O‘ZGARTIR (IJODIY TAHLIL)

Topshiriq: Suhayl va Guldursun tirik qolganida, qanday hayot kechirishardi?

Yozing.

Talabaning yozgan ijodiy ishlari baholanadi: sog‘lom fikr, mantig‘i, poetik til.

6. MANTIQUIY ZANJIR TUZING (VOQEALAR KETMA-KETLIGI)

Topshiriq: Quyidagi voqealarni vaqt bo‘yicha joylashtiring:



YUSUF VA ZULAYHO

Ilk bor Yusuf syujeti asosida yaratilgan badiiy asar XIII asrda yashagan Qul Alining “Qissayi Yusuf” dostonidir. Shoiming “Qissayi Yusuf” dostoni bugungi kunda tatar adabiyotiga nisbat berilayotgan bo‘lsa-da, asar yozilgan davrda hali turkiy qamlammg xalq sifatida shakllanish jarayoni oxiriga yetmagani uchun, bu asarni umumturkiy yodgorlik sifatida qarash maqsadga muvofiq.



Yana XIII asming ikkinchi yarmida Kichik Osiyo saljuqiylaridan Sayyod Hamza ham “Yusuf va Zulayho” dostonini yaratgan. 1409-yili Durbek degan shoirga nisbat berib kelinayotgan “Yusuf va Zulayho” dostoni ham o‘zbek tilidagi bu an‘anaviy dostonning yorqin, mukammal namunalaridandir. Sharq adabiyotida “Yusuf qissasi” va “Yusuf va Zulayho” dostonlari ko‘p uchragani bilan birga, qator variantlarga ega bo‘lsa-da, voqealar aynan bir-birini takrorlamaydi. Bu syujet turli xalqlarda qayta ishlandi, har bir xalqning yozma va og‘zaki adabiyoti bu syujetga ta’sir etdi, natijada o‘ziga xos, mazmunan bir-biridan farq qiladigan mustaqil asarlar paydo bo‘ldi. Shu bois Sharq xalqlarida bu turkumdagi dostonlarning g‘oyaviy yo‘nalishiga va syujet-kompozitsiya qurilishiga ko‘ra to‘rt guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga Firdavsiyning “Yusuf va Zulayho” dostoni mansub. Bu dostonda asosiy mavzuni Yusuf bilan Zulayhoning bir-biriga bo‘lgan qizg‘in muhabbati va ularning kechinmalari emas, balki uzoq yillar davomida suyukli o‘g‘lidan ayriliqda yashagan Yoqubning bosnidan kechirgan fojia tashkil qiladi.

Ikkinchi guruhga Ibn Sinoning “Yusuf qissasi”, Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi “Yusuf alayhissalom qissasi” mansub. Bu qissalar diniy-falsafiy mavzuda - ilohiy ishq mavzusida yozilgan.

Uchinchi guruhga Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” si singari dostonlar mansub. Bu dostonlarda asosiy mavzuni Zulayhoning Yusufga bo‘lgan otashin muhabbati, shuningdek, bu muhabbat zaminidagi “men” va ilohiy ishq tashkil qiladi. Qul Alining “Qissayi Yusuf” asari ham ana shu guruhga mansub.

To 'rtinchi guruhga kurd shoiri Salim Sulaymonning (XVI) “Yusuf va Zulayho” dostoni mansub. Zulayhoning Yusufga boigan inuhabbatini va Yoqubning farzand dog‘ida kuyib-yonganini shoir deyarli bir syujet chizig‘ida tasvirlaydi. Shuningdek, o‘zbek adabiyoti tarixida shoir Durbekka nisbat berilayotgan “Yusuf va Zulayho” dostoni ham shu guruhga kiradi.

Barcha “Yusuf” qissalari hamda “Yusuf va Zulayho” dostonlari orasida keng tarqalgan dostonlami ana shu tarzda guruhiash mumkin. Sharq adabiyotida “poetik o‘zlashtirish” natijasi bo‘lgan boshqa “Yusuf” qissalari va “Yusuf va Zulayho” dostonlarining hammasini mazkur guruhlashga jalb qilish imkoni y o ‘q. Albatta, bunday guruhlanish shartli bo‘lib, “Yusuf va Zulayho” dostonlarida majoziy ishqdan ko‘ra, haqiqiy (ilohiy) ishq ustunlik qiladigan lavhalar ko‘p o ‘rin egallagan.

TOPSHIRIQLAR

(“Yusuf va Zulayho” dostoni)

1. VAZIYATLI ROLLI O‘YIN (ROLGA KIRISH)


Metod: Talabalar “Yusuf”, “Zulayho”, “Podsho”, “Zindonbon” rollarini o‘zlashtirib, sahna ko‘rinishini jonlantiradilar.



Topshiriq: Zulayho Yusufni yo‘ldan ozdirishga harakat qilayotgan sahnani sahnalashtiring.

2. KLAUSTER USULI

Topshiriq: Yusuf obraziga oid fazilatlarni klaster shaklida chizing. Undagi shu sifatlarni ochib beruvchi voqealarni asardan topib yozing.



3. INSERT (BELGILASH) USULI

Metod: Matnni o‘qib, belgilash:

“+” – *bilganim,*

“-” – *qarama-qarshi fikr,*

“?” – *tushunarsiz,*

“!” – *hayratga solgan.*

Topshiriq: Yusuf zindonga tushgan bo‘limni o‘qib, Insert belgilarini qo‘ying.

Natija: Tanqidiy fikrlash shakllanadi.

4. MUNOZARA

Metod: “Zulayho aybdormi?” mavzusida bahs tashkil etiladi.

Javob namunasi: *Zulayho aybdor, chunki u yolg‘on ayblov bilan Yusufni zindonga tiqdi.*


5. “TO‘G‘RI YOKI NOTO‘G‘RI” TESTI

Topshiriq: “Noto‘g‘ri” bo‘lsa ✕, “To‘g‘ri” bo‘lsa ✓ belgilarini qo‘ying.

- Yusuf podshohning tushini tabir qiladi.
- Zulayho Yusufga sodiq qoladi.
- Yusuf Misrda vazir bo‘ladi.

6. VENN DIAGRAMMASI

Topshiriq: Yusuf va Zulayhoni Venn diagrammasida solishtiring.



(sabrli, kechiruvchi, havasli, xudbin, sevgiga sadoqatli.)

Yuqoridagi so‘zlarni to‘g‘ri joylashtirib chiqing. Asarning qaysi voqealari misolida bu sifatlarni ko‘rishimiz mumkin.

7.5 TA SAVOL TUZISH VA JAVOB BERISH

Topshiriq: Asar asosida 5 ta savol tuzing va javobini yozing.

Namuna:

1. Yusufni kim zindonga tashladi? – Zulayho.
2. Yusufning otasi kim? – Ya'qub.
3. Podsho nima haqida tush ko'rgan edi? – 7 semiz va 7 ozg'in sigir.
4. Yusuf zindonda kimga yordam bergan? – Sharobxo'r.
5. Zulayho oxirida nima qiladi? – Yusufni kechirim so'raydi.

8. "SAVOL-JAVOB ZANJIRI"

Metod: Har bir talaba avvalgi talabaning savoliga javob beradi va yangi savol beradi.

Topshiriq: Dars davomida zanjir tarzida savol-javob o'tkazish.

Namuna:

- 1-talaba: Yusuf nega zindonga tushdi?
- 2-talaba: Zulayho uni ayblagan. Mening savolim: Yusuf qayerda ulg'aygan?

9. "EMOTSIYA KARTASI"

Topshiriq: Yusufning boshidan o'tgan voqealarni emotsiyalar bilan xaritada ko'rsating (masrur, g'amgin, umidsiz, hayratlangan, g'azablangan).

Maqsad: Ichki kechinmalarni aniqlash.



Namuna:

- Aka-ukalari tomonidan tashlab ketilganda – **g'amgin**

10. "SAVOLNI TOP" O'YINI

Topshiriq: Javoblar beriladi, talabalar savolni o'zlari tuzishadi.

Namuna:

- Zulayho (Savol: Yusufni kim sevib qoldi?)

- Tush tabiri (Savol: Yusufning qobiliyati nima edi?)
- 7 yil qurg‘oqchilik (Savol: Podsho qanday tush ko‘rgan?)

11. “YUSUFGA MAKTUB YOZING”

Topshiriq: Siz Yusufning yaqin do‘sti bo‘lsangiz, unga zindondan chiqish arafasida qanday maktub yozardingiz?

Maqsad: Ruhlantirish, empatiya.

Namuna: *“Ey aziz Yusuf, sabring bilan yengding. Endi adolat yuzaga chiqmoqda. Sen Misrda nur bo‘lasan!”*

12. “XULQIY FAZILATLAR JADVALI”

Topshiriq: Quyidagi jadvalni to‘ldiring. Yusuf va Zulayho obrazlarining har bir holatdagi xatti-harakatlariga mos fazilat yoki illatlarni yozing.

Voqea	Yusufning harakati	Fazilat	Zulayhoning harakati	Illat
Zulayho uni yo‘ldan ozdiradi	Qarshilik ko‘rsatdi	—	Yolg‘on aybladi	—
Zindonga tushgach	—	Donolik	—	—
Podsho tushini tabir qildi	—	Zakovat	—	—
Zulayho kechirim so‘raydi	—	Bag‘rikenglik	—	Toki kechirilish

13. CHIZMA ASOSIDA TOPSHIRIQ – “VOQEALAR ZANJIRI” (TIMELINE)

Topshiriq: Yusuf hayotidagi muhim voqealarni vaqt ketma-ketligida joylashtiring va har bir bosqichda uning ruhiy holatini belgilang. (Talabalar bu chizmaga rasmlar, ranglar bilan ijodiy yondashadilar.)

Chizma namunasi:



14. “YOLG‘ON – ROST” DEVORI (DEBAT DEVORI)

Topshiriq: O‘quvchilar sinfda ikki tarafga ajraladi: Zulayho aybdor (yolg‘on taraf), Zulayho kechirilishi kerak (rost taraf). Har bir taraf dalillar keltirib bahslashadi.

“Yolg‘on – Rost devori”

Namuna:

Mavzu: Zulayho kechirilishga loyiqmi?

Rost taraf

☐ Zulayho oxir-oqibat pushaymon bo‘ldi, tavba qildi.

Yolg‘on taraf

☐ Zulayho Yusufga tuhmat qildi, nohaqlik qildi.

Har bir dalilni doskaga kartochka shaklida yopishtirishadi.

15. “XARITA YASASH” METODI

Topshiriq: Yusufning hayoti asosida joylar xaritasini chizish.

Kan'on (boshlanish), Misr, zindon, saroy, va boshqalar.

Maqsad: Asarning fazoviy tasvirini shakllantirish.



Xarita joylari:

- Kan'on – Yusufning bolaligi
- Quduq – Aka-ukalari uni tashlaydi
- Karvon yo'li – Misr sari olib ketiladi
- Misr saroyi – Zulayho uyi
- Zindon – Yusuf jazolandi
- Saroy – Yusuf podshoga tush tabir qiladi
- Podsho saroyi – Yusuf vazir bo'ladi

Talabalar xarita yasaydi va belgilaydi.

16. QIYOSLASH METODI


ISLOM MANBASI (YUSUF) VA INJIL MANBASI (YUSUF)

Namuna:

Tafsilot	Islom manbasi (Yusuf)	Injil manbasi (Yusuf)
Zulayho	Fitna qilgan, tavba qilgan	Fitna qilgan ayol ko'rsatilmagan
Qamoq	Tush tabir qiladi	Tush tabir qiladi
Oxirgi holat	Vazir bo'ladi	Vazir bo'ladi

17. TUSH PAZLI

Topshiriq: Yusuf tabir qilgan tushlarning shakllari rasmlari pazllar bilan beriladi. Talabalar har bir rasmni mos tush bilan va tabiri bilan bog'laydi



Namuna:

- 3 ta savat – Nonchi tushida.

ATOIY G‘AZALIYOTI



Atoiy (Atoyi) 15-asr Samarqand, Buxoro va Balxda yashagan, turkcha va forchada ijod qilgan mumtoz shoir. Alisher Navoiy «Nasoim ul-mahabbat» («Muhabbat shabadalari») asarida shoir xususida quyidagi ma’lumotlarni yozadi:

«Mavlono Atoyi Balxda bo’lur erdi. Ismoil ota (Ahmad Yassaviyning inisi Ibrohim otaning o’g’li) farzandlaridindur, darveshvash va xushxulq, munbasit (ochiq chehrali) kishi erdi. O’z zamonida she’ri atrok (turkiy tilda so’zlovchilar) orasida ko’p shuhrat tutti. Bu matla’ aningdurkim:

Ul sanamkim su(v) yaqosinda paritek o’lturur,

G’oyati nozuklugindin suv bila yutsa bo’lur.

Qofiyasida aybg’inasi bor. Ammo Mavlono ko’p turkona aytur erdi. Qofiya ehtiyojig’a muqayyad ermas erdi. Qabri Balx navohisidadur...»

Atoyi devonining muqovasida va qo’lyozmaning oxirida «Devoni Shayxzoda Atoyi» deb qayd etilishi ham Atoyini shayxlar oilasidan kelib chiqan deyishga asos beradi. Navoiyning xabar berishicha, Atoyi Ulug’bek saroyi shoirlari orasida ham bo’lgan.

Atoyi g‘azalnavis — lirik shoirdir. Uning g‘azallarida muhabbat mavzui bilan bir qatorda may ham kuylanadi. Mayda hayot zavqi, uning barcha go’zalliklari va lazozatlari vasf etiladi. May Atoyida Umar Xayyom ruboiylari va Hofiz g‘azallaridagi kabi hayot timsolidir.

Atoyi lirikasida xalq iboralari, ta’birlar, maqol va matallar, ertak mavzulariga oid so’zlar ko’p. G‘azallarini asosan aruzning ramal bahrida yozgan; vazni yengil, misralari qisqa, so’zlari oddiy, uslubi sodda va ravon. Shuning uchun ham uning she’rlari xalq qo’shiqlariga aylanib ketgan. Atoiy tajohuli orifona, laf va nashr kabi tasvir vosita va usullari ham yaratgan.

Atoyidan 260 g‘azalni o’z ichiga olgan devon bizgacha yetib kelgan. Taxminan 16-asrda ko’chirilgan devonning qo’lyozma nusxasi Sankt-Peterburgda saqlanadi. Shoir g‘azallaridan namunalar 1927 yilda A. N. Samoylovich tomonidan e’lon qilingan edi. (Chagatayskiy poet XV veka Atai. Zapiski kollegii vostokovedov. P.

v`sh. 2. L., 1927)1948 yilda tuzilgan «Navoiy zamondoshlari» to‘plamida Hodi Zarif uning 88 g‘azalini nashr ettirdi. 1958 yilda esa Atoyi g‘azallari devon holida chop etildi.

Shoir she’riyati haqida kengroq so‘z yuritgan tadqiqotchilardan biri E. Rustamov (Uzbekskaya poeziya v pervoy polovine XV veka. M., 1963) bo‘ldi. Atoyi haqida shuningdek oliy o‘quv yurtlari uchun tuzilgan darslik (N. Mallaev. Uzbek adabiyoti tarixi, T., 1963, 1965, 1976) va O‘zbekiston FA Til va adabiyot instituti tomonidan chiqarilgan besh tomliklarda (O‘zbek adabiyoti tarixi, 1- tom, T., (1977) maqolalar, ma’lumotlar kiritilgan. Shoir g‘azallari «Tanlangan asarlar» (T., Uzadabiy nashr, 1958) dan olindi).

G‘AZAL

Ey orazi shamsu qamarim, netti, ne bo‘ldi?

Ve, tishlari durru guharim, netti, ne bo‘ldi?

Ko‘nglum kuyarindin sanga men pand berurmen,

Ey marhami jonu jigarim, netti, ne bo‘ldi?

Sen bor ekan o‘zga kishiga, gar nazar etsam,

Chiqsun bu mening diydalarim, netti, ne bo‘ldi?

Gah javr ila o‘ltur meni, gah noz ila, sendin,

Haqqoki mening yo‘q guzarim, netti, ne bo‘ldi?

Ey lo»bati shirin, seni Farhod mengizlik,

Olamg‘a yoyildi sevarim, netti, ne bo‘ldi?

Bir zarra suchuk so‘zni Atoyidin ayarsen,

E lablari shahdu shakarim, netti, ne bo‘ldi?

TOPSHIRIQLAR

1. *Ey orazi shamsu qamarim, netti, ne bo‘ldi?*

Ve, tishlari durru guharim, netti, ne bo'ldi?

G'azali taqtesi asosida vaznini toping.

--V- / --V- / --V- / -V-

2. G'azalda ishtirok etgan badiiy san'atlarni toping.

G'azalda keltirilgan undalma va uni keltirilish maqsadi	
Tasavvufga oid atamalar va ularning izohi	
G'azalning qisqacha mazmuni	
G'azalda mavjud badiiy tasvir vositalari	
G'azalning vaznini keltiring	

TEST

1. Atoiy qaysi asrda yashab ijod qilgan?

- A) 14-asr
- B) 15-asr
- C) 16-asr
- D) 17-asr

2. Atoiy asosan qaysi shaharlarda yashagan?

- A) Toshkent, Andijon, Xiva
- B) Samarqand, Buxoro, Balx
- C) Shahrisabz, Qarshi, Urganch
- D) Balx, Termiz, Nishopur

3. Alisher Navoiy Atoiy haqida qaysi asarida ma'lumot bergan?

- A) «Xamsa»
- B) «Majolis un-nafois»

C) «Nasim ul-hidoya»

D) «Nasoim ul-mahabbat»

4. Atoiy kimning avlodidan deb taxmin qilinadi?

A) Ahmad Yassavi

B) Ismoil ota (Ibrohim otaning o‘g‘li)

C) Jaloliddin Rumi

D) Fariduddin Attor

5. Atoiy g‘azallarida qanday mavzular yetakchi o‘rin egallaydi?

A) Ilm va falsafa

B) Sadoqat va jasorat

C) Muhabbat va may

D) Tabiat va urush

6. Atoiy asosan aruz vaznining qaysi bahri bilan g‘azallar yozgan?

A) Hazaj

B) Ramal

C) Rajaz

D) Mutaqorib

7. Atoiy g‘azallari qanday uslub bilan ajralib turadi?

A) Murakkab va falsafiy

B) Diniy va hikmatli

C) Sodda, ravon va xalqona

D) Simvolik va allegorik

8. Atoiy g‘azallari dastlab kim tomonidan e‘lon qilingan? (1927 yilda)

A) Hodi Zarif

B) E. Rustamov

C) A. N. Samoylovich

D) N. Mallaev

9. Qaysi tadqiqotchi Atoiy ijodini chuqur o‘rgangan?

A) Hodi Zarif

B) E. Rustamov

C) G. Gʻulom

D) S. Ayni

10. Atoiy devonining qoʻlyozma nusxasi qayerda saqlanadi?

A) Toshkent

B) Istanbul

C) Sankt-Peterburg

D) Buxoro

GʻAZALLAR ASOSIDA MAQOL-TOPISHMOQ IZLASH TOPSHIRIGʻI

Topshiriq: Atoiy gʻazallaridan olingan ibora, maqol, xalqona soʻzlarni ajrating. Ular bilan bogʻliq maqollar yoki topishmoqlarni izlang.

SAKKOKIY

Reja:

1. *Sakkokiy haqida Navoiy.*
2. *Sakkokiyning adabiy merosi.*
3. *“Badoyi’ ul-bidoya”da Sakkokiyga Navoiy bergan ta’rif.*
4. *Sakkokiy g ‘azallari mazmuni.*



Sakkokiy haqida Navoiy. Sakkokiy XV asming birinchi yarmida yashab ijod etgan. Uning tarjimai holi haqida yetarli ma’lumot yo‘q. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida bunday yozadi: “Mavlono Sakkokiy - Movarounnahrdindur. Samarqand ahli anga ko‘p mu’taqid (e’tiqod qiluvchijdurlar va bag‘oyat ta’rifin qilurlar. Ammo faqir Samarqandda crkanda muarriklaridin (ta’rif qiluvchi) har necha tafahhus (surishtiruv) qildimkim, aning natoiji ta’bidin biror nima anglayin, ta’rif qilg‘onlaricha nima zohir bo‘lmadi. Barchadin qolsalar so‘zlari budurkim, Mavlono Lutfiyning barcha yaxshi shc‘rlari aningdurkim, zo‘rlab o‘z otig‘a qilibtur. Ul yerlarda bu nav o‘xshashi yo‘q, mazasiz muqobaralar (qarshi chiqish) gohi voqye’ bo‘lur. Bori ba’zisi ta’rif qilibkim o‘qurlar, bu matla’ni anga isnod (nisbat berish) qilurkim:

Ne nozu bu, ne shevadur, ey jodu ko‘zluk, sho‘xshang,

Kabki dariy tovosda yo‘q albatta bu raftoru rang.

Qabri ham ul sari -o‘qdur” (/Alisher Navoiy. MAT. 13-tom. 64-b.).

Navoiy bergan bu ma’lumot Sakkokiyning taijimai holiga ma’lum darajada aniqlik kiritadi: Sakkokiy asli Mavoraunnahrdan, Samarqandda shuhrat topgan, Samarqand ahlining katta hurmatini qozongan. Navoiy Samarqandda bo‘lgan paytda Sakkokiyning o‘zi va she‘rlari to‘g‘risida biron ma’lumotga ega bo‘la olmagan, Lutfiyning yaxshi shc‘rlarini Sakkokiy o‘ziniki qilib olgan, degan ba’zi mish-mishlaru bo‘htonlar asossiz va h.

“Sakkokiy” shoirning taxallusi bo‘lib, tug‘ilgan yeri, yili ham noma’lum.* Venger turkiyshunos olimi Yanos Ekmanning qayd etishicha, Sakkokiy XI Vasming ikkinchi yarmida tug‘ilgan va XV asming birinchi yarmida vafot etgan. U ilk

she'rlarini Amir Temur davrida yoza boshlagan bo'lsa, ijodiy kamoloti Ulug'bek saltanati yillariga to'g'ri keladi.

Sakkokiyning adabiy merosi. Sakkokiy devonining ikki nusxasi bor. Ammo ikkala nusxa ham nomukammal, g'azallar qismi to'liq emas. Bu nusxalarning biri Britaniya muzeyidagi 2079 raqamli nusxa bo'lib, unda 13 qasida va 57 g'azal jamlangan. Ikkinchisi Toshkent qo'lyozmasi bo'lib, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 7685 raqami ostida saqlanadi. Bu nusxada 13 qasida va 52 g'azal bor.

Ma'lumki, Navoiy Samarqandda ikki marta bo'tgan. Ammo Sakkokiyni ko'ra olmaganidan (1467-1469) shunday fikrga kelish mumkinki, Sakkokiy oldinroq vafot etgari. Shuni ham aytish kerakki, Sakkokiy yashagan joy haqida ikki xil ma'lumot bor: ba'zilar Ulug'bek saroyida yashab ijod qilgan deb aytsalar, ayrimlar Sakkokiy Sabron shahrida Mirzo Ulug'bekning noibi Arslon Xoja himoyasida yashagan deb taxmin qiladilar.

Navoiy "Badoyi' ul-bidoya"da Sakkokiylga bergan ta'rif. Yana Navoiy "Badoyi' ul-bidoya" devonining debochasida Lutfiy va Sakkokiylga quyidagicha ta'rif berib, har ikkalasining bir-biridan qolishmaydi - gan mashhur shoirligini e'tirof etadi: "Va uyg'ur iboratining fusahosidin va turk alfozining bulag'osidin Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiy rahimahumollohkim, birining shirin abyoti ishtihori Turkistonda bag'oyat va birining latif g'azaliyoti intishori Iroqu Xurosonda benihoyatdurur, ham devonlari mavjud bo'lg'ay" (Alisher Navoiy. MAT. 1-tom, T.: 1987, 14~b.). Mazkur ta'rifdan ko'rinadiki, Sakkokiy Lutfiy bilan bir qatarga qo'yishga loyiq shoir bo'lgan. O'sha uch g'azal ayni bir vazn va qofiya bilan nazira holida Lutfiy devonida bor. Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi tomonidan ko'chirilgan uyg'ur va arab xatidagi o'sha uchta g'azal Turkiyadagi Sulaymoniya kutubxonasidagi 4757 raqamli bayozda uchraydi. Bu g'azallarni turkiyalik olim Usmon Fikri Sartqoya chop ettirgan. Kamol Erosan "Mavlono Sakkokiy" (Anqara, 1999) kitobiga kiritgan. Mana, o'sha uchala g'azal:

(Rajaz: musta 'filun, musta filun, musta 'filun, musta 'filun)

Ey zulfi zanjirim, biror devonalarni yod qil,

Bashosh yuzni ko‘rsatib, g‘amgin ko‘ngulni shod qil.

Ko‘nglum nedin tushti sening yo‘lingda ul bir qayg‘ug‘a,
Ul nun qoshing haqqi uchun bu qayg‘udin ozod qil.

Har dam kelib xon mulkiga ishqing shohining elchisi,
Jonimg‘a aytur ki ravon chiqmoqqa iste’dod qil.

Kofur ko‘zung yuz ming balo gar meni o‘ldurmasa,
Qon to‘kkuchi g‘amzangni sen har dam manga jallod qil.

Har necha hukmungdur ravon, ey shoh, oshiqlar uza,
Har ishni chun so‘rulg‘usi albatta adlu dod qil.

Chun gul yuzung, bulbul begi, jonimni qildi beqaror,
Asig‘siz ushbu so‘z manga aytur: “sen oz faryod qil”.

Kirpikungnung olmosi gar Sakkokiy bag‘rin tilmasa,
Ey sho‘h, sen g‘amzang o‘qi paykonini poiiod qil.

Sakkokiy g‘azallari mazmuni. Sakkokiyning ijodiy merosi hajm tomondan kichik bo‘lsa ham, ammo mohiyati jihatidan buyukdir. U o‘z salafklarining, qolaversa, Navoiyning ta’rifiga sazovor bo‘lganidan ham uning ijod ahli o‘rtasidagi yuksak mavqeiini baholash mumkin. Albatta, Sakkokiyning shu qadar e’tiborga sazovor va mashhur shoir bo‘lib kamol topishida davming ijtimoiy-siyosiy vaziyati, temuriylarning badiiy ijodga, ilm-fanga bo‘lgan e’tibori omil bo‘ldi. Sakkokiy she’rlari o‘z davridagi ijod ahli g‘azal!aridan shunisi bilan alohida aajralib turadiki, uning ma’shuqasi dunyoda tengsiz, unga monand bironta zot yo‘q. Buning tasdig‘i sifatida *Boyungdek butmadi bo‘ston aro sarvi ravon, ey jon misrasi bilan boshlanuvchj g‘aza!ini olib ko‘raylik.*

Gʻazalning birinchi baytidanoq bunday sarvqomat goʻzal nafaqat odamzod nasli orasida, hatto tabiatda ham yaratilmagan, uning yuzi singari goʻzallik gullar orasida ham hali bu olamga kelmagan:

Boʻyungdek butmadi boʻston aro sarvi ravon, ey jon,

Yuzungtek ham ochilmadi chamanda guliston, ey jon.

Oshiq maʼshuqaga yetishish uchun har qanday jabru jalolarga, hatto maʼshuqaning “oʻqi”ga - kipriklariga mushtoq, oʻq inson tanasiga zarar yetkazganiday, maʼshuqaning kiprik qoqishi oshiqning qalbini oʻqning yarasidan ham ogʻir ahvolga soladi. Oshiq, yorim qachon menga oʻqini otarkin deya koʻzi toʻrt boʻlib kutadi:

Oʻqunguzning bashoqiga koʻngul mushtoqu koʻz oshiq,

Bular taloshmoqin boʻldi ul ikki ora qon, ey jon.

Maʼshuqaning tashqi qiyofasi tasvirida Sakkokiy goʻzal mubolagʻa yaratadi - yoming sochlari nafaqat oshiqqa, balki butun Rum ahliga xuddi Habash lashkarining kuch-qudrati barobarida gʻorat yetkazishi mumkin. Agar shunday hodisa sodir boʻlsa, “koʻngul mulkida” - oshiqning qalbida aslo omonlik boimaydi, uning qalbi vayron boʻladi:

Agar Rum ahlini zulfung Habashning lashkarin solsa,

Koʻngul muikinda ul soat topilmas hech amon, eyjon.

Sakkoiy maʼshuqaning qoshu koʻzlari, kipriklarini, ayni paytda nozkarashmalarini tasvirlar ekan, oshiq uchun nihoyatda totli azob damlari keladi. Maʼshuqadan jabr tortish oshiq uchun 1 azzatii damlardir. Shuning uchun shoir:

Mening bu xasta jonimga sening darding erur marham,

Qiyomatqa teki hargiz bu dardimgʻa davo qilma, - deya iltijo qiladi. Zotan, ishq oshiq uchun tuganmas dard, ammo oshiq bu dardning tuganmasligini istaydi. Darvoqe, agar ishq dardi tugansa, oshiq ruhsiz, oʻlik bir narsa boʻlib qoladi.

TOPSHIRIQLAR

1. SHEʼR MAZMUNINI TOPING

- **Vazifa:** Sheʼr mazmunini muhokama qiling va qayta bayon qiling.

1. *Yuzungni qilur toza koʻzum yoshi-yu ohim,*

Gul toza bo‘lur topsa, vale ob-u havoni

Namuna:

"Sakkokiy yomg‘ir va mayin shabada gulni tozalab, uning tusini, "chehra"sini ochgani kabi, oshiqning ko‘z yoshi va ohi yor yuzini yanada tozaroq, go‘zalroq qiladi, deydi. Bu baytda tazod (ko‘z yoshi va oh yuzning toza bo‘lishiga xizmat qiladi. Bular bir-biriga ziddir va tanosib (yomg‘ir va shabodaning gul tusini ochishi, oshiqning ko‘z yoshi va ohidan yor yuzining tozaroqgo‘zalroq bo‘lishi muvoziy qo‘yilgan) usuli ishlatilgan. Ayni zamonda bu baytda yuz gulga, ko‘z yoshi yomg‘irga, oh-shabodaga o‘xshatiladi.

2. Har necha hukmumdur ravon, ey shoh, oshiqlar uza,

Har ishni chun so‘rulg‘usi albatta adlu dod qil.

3. O‘qunguzning bashoqinga ko‘ngul mushtoqu ko‘z oshiq,

Bular taloshmoqin bo‘ldi ul ikki ora qon, ey jon.

4. Agar Rum ahlina zulfung Habashning lashkarin solsa,

Ko‘ngul muikinda ul soat topilmas hech amon, eyjon.

2. "SHE'RNI DAVOM ETTIR"

• **Vazifa:** Sakkokiy g‘azalining boshlang‘ich qatorlari o‘qiladi. Har bir o‘quvchi navbat bilan o‘z qatorini ijodiy ravishda qo‘shadi.

Ey gul, yuzingga huru pari bandayi joni,

Toltek bo‘yung ozodi erur sarvi ravoni.

Xo‘blar soni yo‘q Chinu, Xitoy, Xo‘tan ichra,

Yetmas sanga lekin tilagan dunyoda soniy.

Ul tishingu erningni ko‘rib bir kularingda,

Bu ikki ko‘zum la‘lu guhar bahri-yu koni.

Yuzingni qilur toza ko‘zum yoshi-yu ohim,

Gul toza bo‘lur topsa vale obu havoni.

*Ushshoq qonin to'kkali el*ga qilich olsang,
Kim ilgaru tutmas bo'yun – o'z bo'ynina qoni.*

*Oydur sening olingda bu kun bir habashiy qul,
Tonsa yuzida zohir o'lur dog' nishoni.*

*On derlar emish ko'rklu kishilar namakingga,
Sakkokiy sening yuzunga boqsa ko'rar oni.*

** el — qo'l*

3. G'AZAL TAQTESINI VA VAZNINI TOPING.

4. G'AZALDA ISHTIROK ETGAN BADIY SAN'ATLARNI TOPING.

G'azalda keltirilgan undalma va uni keltirilish maqsadi	
Tasavvufga oid atamalar va ularning izohi	
G'azalning qisqacha mazmuni	
G'azalda mavjud badiiy tasvir vositalari	
G'azalning vaznini keltiring	

5. “SHE’R BO‘YICHA DETEKTIV”

• **Vazifa:** Baytlarni o'qib tushirib qoldirilgan so'zlarni topib qo'yning va she'rni yod oling.

Bo'yungtek butmadi _____ aro sarvi ravon, ey jon,

Yuzungtek ham ochilmadi chamanda _____, ey jon.

Furqatingda, ey pari, tan kuydi-yu _____ yig'radi,
Dambadam xud qayg'udin ikki ko'zum _____ yig'radi.

LUTFIY LIRIKASI

Yaqin vaqtlargacha Lutfiyning tavallud topgan va vafot etgan joyi Hirotning Deqikanor mavzei deb ko'rsatib kelingan. Shayx Ahmad Taroziyning Mirzo Ulug'bekka bag'ishlab yozilgan „Funun ul-balog'a“ asari topilgach, undagi „ma'dan ul-latoyif Lutfiyi Shoshiy“ jumllariga asoslanib, Lutfiyning ona vatani Toshkent bo'lgan, degan fikr ham ilgari surildi.



Lutfiyning hayot yo'li singari, ijodiy taqdiri ham juda ibratli: u 99 yil yashagan. Umrining asosiy qismi o'qish, o'rganish va badiiy ijod mehnati bilan o'tgan. Shoir hayotiga oid lavhalar Alisher Navoiyning „Majolisun-nafois“, „Holoti Sayid Hasan Ardasher“, „Nasoyimul-muhabbat“, Xondamirning „Makorimul-axloq“ kabi asarlarida bor. Navoiyning „Majolis unnafois“ tazkirasida ma'lumot berilishicha, Lutfiy umrining oxirlarida „oftob“ radifli bir she'r yozgan, o'sha zamonning ko'p shoirlari unga tatabbu' qilganlar, ammo ulardan hech biri Lutfiyning „panjasiga panja“ ura olmaganlar. Navoiyning yozishicha, Lutfiy 90 yoshdan o'tganda, Abdurahmon Jomiy otig'a radifi „suxan“ saj' qasidaye aytib erdiki, zamon xushgo'ylari barcha xo'bliqqa musallam" tutmishlar („Nasoyim ul-muhabbat“).

Lutfiy ham zohiriy-dunyoviy, ham diniy tasavvufiy ilmlarni chuqur egallagan, davr va zamoniga ochiq nazar bilan qarashga qodir, haqiqat va ma'rifatga sodiq ijodkor edi. Navoiy so'zi bilan aytganda, u forsiy va turkiyda naziri yo'q“ shoir bo'lgan. Lutfiy garchi o'z ona tili — turkiy tilda yaratilgan she'rlari bilan mashhurlikka yetishgan bo'lsada, forsiyda ham o'zining shoirlik iqtidori va mahoratiga ko'pchilikni iqror eta olgan. Ikkinchidan, Lutfiy she'riyat bilan tariqatni, majoz bilan haqiqatni uyg'unlashtirgan edi. Ammo u so'nggi nafasigacha shoirlik burchi va ilhomiga sodiq qolib, o'zbek she'riyati xazinasini biri biridan qimmatli nazm durdonalari bilan boyitdi. Shu bilan bir qatorda, shoirlik nechog'lik „ma'ruf va mashhur“ bo'lmasin, „darveshlik tariqini dag'i ilikdan“ (Navoiy) chiqarmagan edi. Xuddiki shu narsa uning nafaqat o'z zamondoshlari va ijod ahli orasida, balki davr hukmdorlari oldida ham yuqori mavqega ko'tarilishiga bir asos bo'lgan.

Haqiqatdan ham Lutfiyning she'riyati — xilma-xil shakllardan tarkib topgan mazmundor, rangin she'riyat. Bizgacha shoirning 16–20-asrlar mobaynida ko'chirilgan turkiy devonining 33 qo'lyozma nusxasi yetib kelgan bo'lib, ular Toshkent, Dushanba, Istanbul, Tehron, London, Parij, Sankt-Peterburg kutubxonalari va qo'lyozma fondlarida saqlanadi. Olim E. Ahmadxo'jayevning aniqlashi bo'yicha, Lutfiy qalamiga mansub she'rlarning umumiy miqdori 2774 bayt yoki 5548 misradan ortiq. Ularning katta qismi (2086 bayti) g'azal janrida yozilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Lutfiy g'azalnavis sifatida Sharq adabiyotida barqarorlashgan adabiy-estetik an'analar bilan xalq og'zaki ijodiyoti tajriba tamoyili va usullarini nihoyatda mohirlik bilan muvofiqlashtirgan. Shu boisdan ham uning g'azallarida milliy his-tuyg'ular nurlanib, insoniy dard, armon, qayg'u va shodlik tasviri takrorsiz bir ta'sirchanlik kasb etgan. Lutfiy nainki g'azallarida, ruboiy, tuyuq, qit'a, fardga o'xshash boshqa janrlardagi she'rlarida ham nafasat hissi shakllangan, did va saviyasi baland kishilarning – zukko va hayotsevar xalq vakillarining fikr-u tuyg'ularini tarannum etgan. Shoirning: Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma, Qondur jigarim, xoh inon xoh inonma, — kabi misralari sodda, og'zaki nutqqa yaqin va kitobiy bezakdorlikdan yiroq va samimiy tarzda yozilgan.

Lutfiy devonidagi bosh mavzu ishq va asosiy maqsad oshiqning kasb-u holini tasvirlashdan iborat bo'lsada, shoir deyarli har bir she'rida mavzuga yangicha yondashib, betakror ohanglar yaratadi, mohiyatiga mos poetik obrazlar topadi, bir-biriga o'xshamaydigan badiiy san'atlarni qo'llaydi. Lutfiy devonida tashbeh, talmeh, tazod, iyhom, xususan, irsoli masal san'ati namoyon bo'lgan. Lutfiy ruboiy, tuyuq, qit'alarini ham san'at namunasi maqomiga ko'tara olgan.

Yaqin-yaqingacha „Gul va Navro'z“ dostoni Lutfiy asari deb kelingan edi. Keyingi tadqiqotlar natijasida bu doston muallifi Haydar Xorazmiy ekanligi aniqlandi. Lutfiy — turkiy she'riyatda maktab yaratgan san'atkor. Bu ijod maktabidan Alisher Navoiy va Mirzo Bobur saboq olishgan. Roqim, Amiriy, Sultonxon to'ra Ado, Tabibiy singari shoirlarning devonlaridan.

Lutfiy g'azallari ilhomida bitilgan muhammaslar joy olgan.

Lutfiy she'riyatining ta'siri faqat O'rta Osiyo bilan chegaralanib qolmasdan, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga ham yetib borgan. Atoqli turk olimi M. F. Ko'prulizodaning e'tirof etishicha, Lutfiyning she'rlari yolg'iz chig'atoy shoirlari orasida emas, balki „Harobot“ muallifi Ziyo Poshoga qadar bo'lgan usmonli turk shoirlari orasida ham zavq bilan o'qilgan.

15 asr o'zbek she'riyati takomilida o'ziga xos o'ringa ega, katta iste'dod sohibi, „Malikul-kalom“ (Navoiy), tuyuq janrining ustasi.

Lutfiydan katta adabiy meros qolmagan. Manbalarda shoirning 200 dan ortiq asar yozgani aytiladi, biroq bizgacha birgina devoni ma'lum (Turkiyaning Ko'niyo shahrida saqlanadi). Sharafiddin Ali Yazdiyning „Zafarnoma“(1437) asarini Shohruh Mirzoning taklifi bilan she'riy tarjima qilgan.

Shoir ijodi bilan Fitrat, E.Rustamov, E.Fozilov, S.Erkinov, Y.Is'hoqov, E.Ahmadho'jaev va boshqalar shug'ullanganlar.

TOPSHIRIQLAR

1. SHE'R MAZMUNINI TOPING

- **Vazifa:** Guruhlarga bo'linib she'r mazmunini toping va qayta bayon qiling.

Jonim chiqadur dard ila, jononima ayting,

Men xasta gado holini sultonima ayting.

O'rtanmagu ko'z yoshiyu o'lmakturur ishim,

Bu qissani ul sham'i shabistonima ayting.

Qat-qat yuragim bog'ladi qon g'uncha meng'izlik,

Bu dardi dilimni guli xandonima ayting.

Qon yoshim erur yux uza yulduz kabi sonsiz,

Ul ko'zlari cho'lpon, mahi tobonima ayting.

Lutfiyi dilafkor tilar hajr eliding dod,

Ahvolini ul begimau xonima ayting.

Namuna:

1. Bayt

Jonim chiqadur dard ila, jononima ayting,

Men xasta qado holini sultonima ayting.

• **Mazmun:** Shoir sevgi dardidan jon berayotganini aytadi va bu holni jononiga, ya'ni sevgilisiga yetkazishni so'raydi. O'zini "xasta gado" deb atash orqali shoir sevgilisi oldida kamtar va ojiz ekanligini ifodalaydi, sevgilisini esa "sulton" (hokim) darajasida ulug'laydi.

• **Badiiy vositalar:**

○ **Tazod:** Shoirning "gadolik" va sevgilisining "sultonlik" darajasi orqali zohiriy va botiniy holatdagi qarama-qarshilik ko'rsatilgan.

○ **Tanosub:** dard, xasta

2. "SHE'RNI DAVOM ETTIR" IMPROVIZATSIYASI

• **Vazifa:** Lutfiy she'rining boshlang'ich qatorlari o'qing va o'zingiz ijodiy ravishda davom ettiring.

Sensen sevarim, xoh inon, xoh inonma,

Qondur jigaram, xoh inon, xoh inonma.

Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh,

Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.

Haqqoki qilich kelsa boshimga, eshikingdin

Yo'qtur guzarim, xoh inon, xoh inonma.

Usruk ko'zing ashkolina har gah nazar etsam,

Qolmas xabarim, xoh inon, xoh inonma.

Ya'qub bikin ko'p yig'idin qolmadi sensiz

Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma.

*Oy yuzung 'a ko 'z solg 'ali o 'zga kishi birla,
Yo 'qtir nazarim, xoh inon, xoh inonma.*

*Ishq o 'tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,
Ey siymbarim, xoh inon, xoh inonma.*

3. "KIM BILADI?" VIKTORINASI

• **Vazifa:** Lutfiy hayoti, ijodi va she'rlari bilan bog'liq savollardan iborat viktorina o'tkaziladi.

1. *"Mavlono Lutfiy o'z zamonasining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo 'q erdi... va turkcha devoni ham mashhurdur". Ushbu so 'zlar qaysi asardan olingan?*

- a) *Nasr ul-laoliy*
- b) *Nasoyim ul-muhabbat*
- c) *Majolis un-nafois*

2. *Lutfiy vafotidan so 'ng qayerga dafn etilgan?*

- a) *Dehikanor*
- b) *Bog 'i davlatxona*
- c) *Mashhad*

3. *"...To 'qson to 'qqiz yoshida olamdin o 'tdi. Qabri Dehikanordadur, o 'z maskanida erdi".*

- a) *Lutfiy to 'g 'risidagi ushbu ma'lumotlar qaysi asardan olingan?*
- b) *Nazm ul-javohir*
- c) *Nasoyim ul-muhabbat*
- d) *Majolis un-nafois*

4. *Lutfiy nechanchi yillarda yashab ijod etgan?*

- a) *1356-1465*
- b) *1366-1455*
- c) *1366-1465*

5. *"Gul va Navro 'z" dostonining muallifi kim?*

- a) *A.Navoiy*

b) *Lutfiy*

c) *H.Xorazmiy*

6. *Lutfiy turkiy devoning bizgacha nechta nusxasi yetib kelgan?*

a) *2 ta*

b) *33 ta*

c) *35 ta*

7. *"... bir necha matlallari borkim, tab' ahli qoshida o'qusa, bo'lur".*

yuqoridagi Lutfiy haqida fikrlar kimga tegishli?

a) *A.Navoiy*

b) *Z.M.Bobur*

c) *Xondamir*

8. *Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra, Lutfiy me'rosi necha baytni tashkil etadi?*

a) *3.5 ming*

b) *3 mingga yaqin*

c) *3 mingdan ortiq*

9. *Lutfiy adabiy merosining qanchasini g'azallar tashkil etadi?*

yarmiga yaqin

a) *75 %*

b) *85 %*

c) *80%*

10. *Bobur nomli xalqaro jamoat fondi tashabbusi bilan Hirot yaqinida joylashgan Dehikanor (hozirgi Nangobod) qishlog'idagi Lutfiy qabri ustiga qachon maqbara qurildi?*

a) *2006*

b) *2012*

c) *2000*

11. *Tamoman turkona ruhda bitilgan g'azal qaysi?*

a) *Bu ko'nguldur, bu ko'ngul*

b) *Xoh inon, xoh inonma*

c) *Ayoqingg'a tushar har lahza gisu*

12. "Turkona" g'azal ...

- a) asosan o'zbekcha so'z va iboralar yoziladi
- b) an'anaviy 7 baytdan iborat
- c) ko'plab forscha so'zlar ishtirokida yoziladi

13. Lutfiyning qaysi g'azali ta'sirida Boborahim Mashrab ham bir tazmin g'azal yozgan?

- a) Bu ko'nguldur, bu ko'ngul
- b) Xoh inon, xoh inonma
- c) Ayoqingg'a tushar har lahza gisu

14. Lutfiyning qaysi g'azaliga XIX asr yarmida Nodira o'xshatma yozgan edi?

- a) Bu ko'nguldur, bu ko'ngul
- b) Xoh inon, xoh inonma
- c) Ayoqingg'a tushar har lahza gisu

15. Lutfiyning qaysi g'azalida har bir baytda bittadan maqol qo'llangan?

- a) Bu ko'nguldur, bu ko'ngul
- b) Xoh inon, xoh inonma
- c) Ayoqingg'a tushar har lahza gisu

16. Qaysi g'azalning radifida tazod mavjud?

- a) Bu ko'nguldur, bu ko'ngul
- b) Xoh inon, xoh inonma
- c) Ayoqingg'a tushar har lahza gisu

17. Lutfiy o'zining "Ayoqingg'a tushar har lahza gisu..." g'azalida lirik Yor timsolini "Oy bilan Kundan ham ortiq" ekanini qaysi maqol bilan isbotlashga urinadi?

- a) Qo'r qar, qaydakim qon ko'rsa. hindu
- b) Kishining ko'zidur, ore, tarozu
- c) Oqqan ariqqa oqar suv


18. Lutfiy qanday nom bilan e'zozlangan?

- a) Malik ul-kalom
- b) G'azal mulking sultoni

c) *Piri shuaro*

“PIRAMIDA O‘YINI”

Testga bergan javoblaringiz asosida savollar tuzib piramidaga joylang.



4. KODLANGAN SHE‘R (QR-KOD BILAN O‘YIN)

• **Vazifa:** QR-kodni skanerlang. Kod orqasida yashiringan g‘azalni ifodali o‘qing va mazmumini to‘g‘ri talqin qilishga harakat qiling.



1. *Nega jonima jafo qilursan...*
2. *Qon bo‘ldi ko‘ngil firoqingizdan...*
3. *Senga ne...*

5. LUTFIYNING “EMOJI SHE‘RI”

• **Vazifa:** Ushbu emoji'larni tahlil qilib, asl matnni tiklang va tushuntiring.



6. LUTFIYNING “SIRLI QUTISI”

- **Vazifa:** Navbatma-navbat qutidan kartochka oling va topshiriqni bajaring.
- **Baytlardagi badiiy san’atlarni toping va baytni tahlil qiling.**

*Dod ko ‘zungdinki, dinga necha yuz ursam, meni
Kufr sori sehr ila ul nomusulmon tortadur.*

*Mayl etar o ‘z jinsig ‘a har jins o ‘zini lojaram,
Beli sori ul kamandi anbarafshon tortadur.*

*Yo ‘q turur yolg ‘uz bu Lutfiy jonig ‘a javri raqib,
Qayda bir dono durur, ul javri nodon tortadur.*

*Nega jonima jafo qilursan?
Vaqti o ‘ldi agar vafo qilursan.*

*Jonim chiqadur firoq o ‘tindin
Dardimg ‘a qachon davo qilursan?*

*Etagingga kishining ilki etmas,
Seni bu vajh ila men moh derman.*

*Ishq o ‘tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,
Ey siymbarim, xoh inon, xoh inonma.*

*Ya'qub bikin ko'p yig'idin qolmadi sensiz
Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma.*

*Ayoqingg'a tushar har lahza gisu,
Masaldurkim: «Charog' tubi qorong'u».*

7. "SHE'R BO'YICHA DETEKTIV"

- **Vazifa:** Berilgan tuyuqda tushirib qoldirilgan so'zlarni toping. Tuyuqlarni yod oling.

Charxi kajraftor eliding _____,
Chiqmadim hijron qishidin _____,
Bir meni yorliq bila yod etmas ul,
Har necha ul shahg'a qulluq _____.

Qomatimni necha qoshing _____.
Necha hajr o'ti jonimda _____.
G'amza birla to'kti qonim ul sanam.
To hinotek qon elina _____.

Men sening ilkingdin, ey _____ , _____
Vah, qachon yetkaymen ut _____
Bevafolarga meni qilding asir.
Sen menga sultonsen, ey _____ , _____

HAYDAR XORAZMIY “GULSHAN UL-ASROR”



Haydar Xorazmiy (14-asrning oxiri — Xorazm — 15-asrning 1-yarmi) — shoir. O‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalaridan biri.

Hayoti va ijodi haqida ma’lumot Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", "Muhokamat ul-lug‘atayn" asarlari hamda o‘zining "Mahzan ul-asror" dos-tonida berilgan. Haydar Xorazmiy asosan Xorazmda yashagan va og‘ir hayot kechirgan. Birmuncha vaqt Hirotda temuriylardan Umarshayxning o‘g‘li Sulton Iskandar (15-asr) saroyida yashagan. Turkiy va forsiyda she’rlar yozgan, devon tuzgan. Nizomiy Ganjaviyning "Mahzan ul-asror" asariga "Gulshan ul-asror" nomi bilan turkiy tilda javob yozib (1409–1414), Sulton Iskandarga bag‘ishlagan. Asar syujeti va g‘oyaviy yo‘nalishi jihatidan ham Nizomiy dostoniga yaqin, vazni ham bir xil — aruzning sare’ bahrida yozilgan. Hajmi 639 bayt. Asar Nizomiynikidan farq qilib, avval hikoya, so‘ng shu hikoyadan kelib chiqadigan xulosa va fikrlarni umumlashtiruvchi bob bilan ta’minlangan. Haydar Xorazmiy bu asari bilan o‘zbek adabiyotida she’riy hikoyani rivojlantirgan. Ko‘pchilik hikoyalarida oliyjanob insoniy fazilatlar targ‘ib qilingan, mehnat va mehnat ahli ulug‘langan. Dostonda markazlashgan davlat va odil hukmdor g‘oyasi ilgari surilgan; axloq-odob, mehnatsevarlik, saxiylik, rostgo‘ylik targ‘ib etilgan.

"Gulshan ul-asror" o‘zbek epik she’riyati tarixida muhim hodisa va turkiy tildagi axloqiy-falsafiy dostonchilikning yirik namunasi bo‘lib, turkiy tilning boyligi, qudrati va ko‘rkini namoyish qildi hamda o‘zbekozarbayjon adabiy aloqalari rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi. Asarning qo‘lyozma nusxalari London, Parij, Vena, Qozon kutubxonalarida, fotonusxalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

TOPSHIRIQLAR

(“Gulshan ul-asror” asari)

1. BAYTNI DAVOM ETTIR

Namuna:

__1. *“Ishq ul bir otashdur, kimu bo‘ldi xam, _____”*

“Har ne ki bor edi, qildi aning tam.”



2. *Mulk erur dilbaru sohibjamol....*
3. *Davlat-u izzat erur, ey, xoja bosh...*
4. *O‘zgalarga o‘xshamas abdol ishi...*

2. RAMZNI TOP

Vazifa: Baytdan ramz tanlab, uning ma’nosini izohlang.

Namuna:

*“Ko‘ngul bog‘in aritib shaydo bo‘lur,
Gulshan ichra gardishi rindo bo‘lur.”*

Savol: “Gulshan” ramzi nimani anglatadi?

Javob: “Gulshan” – tasavvufda ilohiy haqiqat bog‘i, ya’ni ruhiy kamolot yo‘li.

1. *Kafshim erur ushbu yorilmish tobon,
Hil’atim ush eski yamoqlik chopon.*

2. *Nafsni qilg‘il ham ul ottin tamiz,
Saqlama ul poyida asru semiz.*

3. *Aql esa sendur sen aning maxzani,
Ishq esa joningdir aning maskani.*

3. SAHNA KO‘RINISHI (ROLI O‘YIN)

Tavsif: Bayt asosida sahnalashtirish topshiriladi.

Namuna:

“Aql aytar: “Ne foyda ishq ichra jon?”

Ishq aytar: “Ne jon, ishqsiz jonon!”

Aql va Ishq obrazlari o‘rtasida munozara tashkil etiladi.



Asardan shunga o‘xshash parchalardan topib, sahna ko‘rinishi yarating.

4. BAYTGA SHARH YOZ

Tavsif: Bayt ma’nosini tahlil qilish.

Misol:

*“Har kimki erdi ko‘nglida dardu jahon,
Bilkim, erur jism ichra ruhi nihon.”*

Topshiriq: “Jism va ruh” nisbati qanday izohlangan?

1. Bir nafas ey, dunyo ishidin ma’lul,

Oqil esang, qil nu nasihat qabul.

2. Er kishiga himmat agar bo‘lsa yor,

Oqibat ul – amr murodni topor.

3. Er kishi emgakda tetikroq bo‘lur,

Shisha necha singa itikroq bo‘lur.

5. ARALASHTIRILGAN BAYTNI TO‘G‘RILASH

Tavsif: Bayt misralari aralashtiriladi. Talabalar uni to‘g‘ri tartibga keltiradi.

Namuna:

- “Ko‘nglum aro yondi ul ishq otash”
- “Keldi harorat bila ul shirin nafas”

To‘g‘risi:

*“Keldi harorat bila ul shirin nafas,
Ko‘nglum aro yondi ul ishq otash.”*

Elik ayoq so‘ndi yarog‘i bila...

Kimgaki himmat nazari tush bo‘lur

Himmat eli davlat etagin tutar

Himmat eli davlat ayog‘i bila...

Ko‘kni talashkuchi uchar qush bo‘lur

Er kishi himmat ila ishga yetar.

6. FIKR-MULOHAZA BILDIR (MUNOZARALI TOPSHIRIQ)

Tavsif: Bayt asosida muhokama.

Savol: Sizningcha, ilm ustunmi, ishqmi?

Bayt:

*“Aql bila topmadim men hech ne,
Ishq bila yetdim men har ne.”*

7. SAVOL-JAVOB VIKTORINASI

Tavsif: Baytni o‘qib, unga savol tuzish va bir-biriga berish.

Bayt:

*“Kimki yo‘ldadur, anga yo‘lchi kerak,
Ko‘rsatadur haqiqat, murshid kerak.”*

Savol: Tasavvufda murshid nima sababdan muhim?

8. “KIM AYTDI?” O‘YINI

Tavsif: Baytni o‘qib, bu fikr Aqlgami yoki Ishqgami tegishli ekanini ayting.


Bayt:

*“..... der: men emasman oson yo‘l,
Har kimki keldi, yondi, bo‘ldi kul.”*

9. TASNIFLASH TOPSHIRIG‘I

Tavsif: Berilgan baytlarni mavzulariga ko‘ra ajratish (masalan: aql, ishq, sabr, fano, murshid).

Baytlar:



Namuna:

- *“Aql bila yo‘q erur bu yo‘lga yo‘l.”* → Aql

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR



Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, shoir, adib, olim, sarkarda, yirik davlat arbobi, "Buyuk Boburiylar sulolasi" asoschisi

Hayot yo'li. Bobur 1483-yili 14-fevralda Andijon shahrida, Farg'ona ulusining hokimi Umarshayx Mirzo va asli chingiziylardan bo'lgan malika Qutlug' Nigor Xonim oilasida dunyoga keladi. "Bobur" so'zi forsiy tilidan "babr", ya'ni "bars", "yo'lbars" degan ma'noni bildiradi. Boburning otasi Umarshayx Mirzo Sohibqiron Amir Temur avlodidan. Amir Temurning uchinchi o'g'li Mironshoh Mirzoning evarasi bo'lgan. Boburning onasi Qutlug' Nigor-Xonim mo'g'ul xonlaridan biri Yunusxonning qizi bo'lgan.

Barcha shahzodalar singari Zahiriddin Muhammad Bobur ta'lim va tarbiyani otasining saroyida oladi. Biroq otadan juda erta yetim qoladi. 1494-yili Umarshayx Mirzo baxtsiz hodisa tufayli vafot etadi. 12 yoshida Bobur otasining o'rniga taxtga o'tirishga majbur bo'ldi. U hukmdor bo'lgan dastlabki yillarda Temuriy shahzodalar o'rtasida toju taxt uchun ayovsiz kurash avj oladi. Yosh Zahiriddin Andijon taxti uchun amakisi Sulton Ahmad Mirzo hamda ukasi Jahongir Mirzo bilan kurashishiga to'g'ri keladi. Bobur ukasi bilan murosaga kelishga harakat qiladi Jahongir Mirzoga Farg'ona ulusini ikkiga taqsimlab, yarmini topshiradi. O'zi esa Samarqand uchun bo'layotgan kurashlarga kirishadi.

Kurashlar hech qanday natija bermaydi, unda katta harbiy kuchga ega bo'lgan Shayboniixonning qo'li baland keladi. Bobur Samarqandni tashlab ketadi. Biroq Shayboniixon 1504-yili Andijonni ham qo'lga kiritadi va Bobur janub tomon bosh olib ketishga majbur bo'ladi. Kobul ulusida o'z hokimiyatini o'rnatadi. 1505-1515-yillar davomida u Markaziy Osiyoga qaytishga harakat qiladi, biroq bu urinishlaridan ham hech narsa chiqmaydi.

Bobur o'z mavqeyini tiklash maqsadida 1519-1525-yillarda Hindiston uchun bir necha bor janglar olib boradi. 1526-yil Panipatda Hindiston sultoni Ibrohim Lo'di bilan jang qiladi. 1527-yili esa Chitora hokimi Rano Sango bilan kurashadi. Ikki kurashda ham Boburning qo'li baland keladi. Shu tariqa Bobur Hindistonda o'z

hokimiyatiga asos soladi. Bobur asos solgan sulola tarixda eng yirik sulolalardan biri bo'lib, uning avlodlari 350-yildan ortiq Hindistonga hukmronlik qiladi.

Bobur hukmronligi davrida Hindiston gullab-yashnaydi. Adabiyot, san'at, shaharsozlik rivojlanadi. Uning o'g'illari va avlodlari davrida Hindiston qudratli mamlakatlardan biriga aylandi. Boburning avlodlari bobosining bunyodkorlik ishlarini munosib davom ettirishadi. Mamlakatda mukammal ma'naviy-ruhiy muhit vujudga keladi. Hindiston tarixida Boburning ahamiyati nihoyatda katta. Yirik hind olimi Javoharlar'l Neru u haqida shunday deydi: "Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga, san'atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi".

Bulardan so'ng Bobur uzoq yashamadi: 1530-yili Agrada 47 yoshida vafot etadi. Rivoyatlarga ko'ra, Boburning to'ng'ich o'g'li Humoyun Mirzo og'ir dardga chalinadi. Bobur uch kechayu uch kunduz Yaratgandan o'g'lining dardiga shifo so'rab, farzandi chekayotgan dardni o'ziga berishini so'raydi. Humoyun Mirzo tuzaladi, biroq Zahiriddin Muhammad Bobur ko'p o'tmay vafot etadi.

Bobur ijodi. Bobur o'zbek tarixida tom ma'noda yirik shaxs. Uning tarixchi olim, zukko adib va dilbar shoir sifatida qoldirgan adabiy merosi bebahodir. Bobur hukmdorlik majburiyatlaridan ortib yirik asarlar yozishga muvaffaq bo'lgan. Uning lirikasi adabiyotdagi o'ziga xos lirika. Shubhasiz, she'riyatining asosiy mavzuyi Vatan, Vatan sog'inchi bo'lgan. Taxt uchun qondosh aka-ukalarning dushman bo'lib kurashishi, atrofdagi insonlarning xiyonati, vatanini birlashtirolmaganidan so'ng tortgan azoblari va nihoyat umrining so'nggigacha Vatan sog'inchi uning she'riyatiga ko'chgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu mavzular Bobur g'azallari, ruboiylarida keng yoritilgan.

Shu bilan birgalikda Bobur lirikasida yuksak va oliyjanob insoniy tuyg'ular, adolatparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini madh etgan. Xalqda uning:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,

Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.

Yaxshi kishi ko'rmag'ay yomonlig' hargiz

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir.

ruboiysi mashhur. Bobur she'riyatini asosan ishqiy mavzudagi asarlar tashkil etadi. Ishqiy g'azallarda Bobur hazrat Navoiydan ilhomlangan bo'lsa ajab emas. Bobur she'riyatida axloq va diniy mukammallik masalalari ham ko'tarilgan. Lirikasining o'ziga xosligi shundaki, u asarlarini nihoyatda sodda, samimiy, hammaga tushunarli bo'lgan tilda yozishga harakat qilgan. G'azal va ruboiylarida balandparvoz so'zlar, mukammal iboralarni qo'llamagan. Xususan, bu haqida u o'z "Boburnoma" asarida ham to'xtalib o'tgan: "Ravshan va toza shaplar yordamida, soddaroq yoz: va senga ham, seni xatingni o'qug'anga ham oson bo'ladi".

O'zni, ko'ngul, aysh bilan tutmoq kerak,

Bizni unutmog'ni unutmoq kerak.

Ayshu tarab gulbunig'a suv berib,

G'ussa niholini qurutmoq kerak.

Tiyra turur zuhd damidir ko'ngul,

Ishq o'ti birla yorutmoq kerak.

Har nimag'a ham yema, g'am ko'p turur,

Aysh bila o'zni unutmoq kerak.

Qo'yma mashaqqat aro, Bobur, ko'ngul,

O'zni farog'at bila tutmoq kerak.

Bobur lirikasi mana shunday nasihatlariga boy, sodda va samimiyydir. Shoirning she'riy merosi ko'pqirrali. U nasrda ham salmoqli ijod qilgan. Boburning barcha nazmiy asarlari "Qobul devoni" so'ngra "Hind devoni"ga jamlangan. U 1521-yili falsafiy-diniy asari "Mubayyin"ni yozadi. Asarda islom shariatining 5 ustuni, shuningdek "Mubayyinu-l-zakot" soliq chiqimi kitobini yozgan. "Harb ishi", "Musiqqa ilmi" kabi ilmiy asarlar yozgani ma'lum, biroq ular hanuzgacha topilmagan.

Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana,

Tiyra bo'ldi ro'zg'orim ul qaro qoshdin yana.

Men xud ul tifli parivashg'a ko'ngul berdim, vale,

Xonumonim nogahon buzulmag'ay boshdin yana.

*Yuz yomonliq ko 'rub ondin telba bo 'ldung,ey ko 'ngul,
Yaxshilig 'ni ko 'z tutarsen ul parivashdin yana,
Tosh urar atfol mani,uyida forig ' ul pari,
Telbalardek qichqirurmen har zamon toshdin yana.
Oyog 'im etgan cha Boburdek ketar erdim,netay,
Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana.*

Bobur she'rlarining umumiy hajmi 400 dan ortiq. Shulardan 119 tasi g'azal, 231 tasi ruboiy. Bobur tuyuq, qit'a, fard, masnaviy kabi janrlarda ham asarlar yaratgan.

Uning "Aruz haqida risola" ilmiy asari Sharq tilshunosligida katta ahamiyatga ega. Asarda shoir nutqdagi urg'uli va urg'usiz, uzun va qisqa bo'g'inlar tizimi nazariyasini boyitgan, uning tasnif va turlarini rivojlantirgan. O'z qarashlarini arab, fors tojik va turk she'riyati manbalari bilan asoslab bergan. Shu bilan u Alisher Navoiy an'analarini munosib davom ettiradi. Xalq she'riyatiga e'tibor beradi. Ba'zi asarlarida xalq qo'shiq san'ati haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

*O 'lum uyqusig 'a borib jahondin bo 'ldum osuda,
Meni istasangiz, ey do 'stlar, ko 'rgaysiz uyquda.
Nekim taqdir bo 'lsa, ul bo 'lur tahqiq bilgaysiz,
Erur jangu jadal, ranju riyozat barcha behuda.
O 'zungni shod tutqil, g'am yema dunyo uchun zinhor
Ki, bir dam g'am yemakka arzimas dunyoyi farsuda.
Zamona ahli ichra, ey ko 'ngul, oyo topilg 'aymu,
Seningdek dard paymovu meningdek dard paymuda.
Ulusdin tinmadim umrimda hargiz lahzae, Bobur,
Magar o 'lsam bu olam ahlidin bo 'lg 'aymen osuda.*

Shoh va shoir, shuningdek, badiiy tarjimalar bilan ham shug'ullangan. Yirik so'fiy, Bahouddin Naqshbandiyni izdoshi Xoji Ahror Valining "Volidiya" ya'ni "Ota onalar risolasi"ni she'riy ko'rinishga tarjima qilgan. Arab grafikasi asosida "Xatti Boburiy"ni tuzadi. Ushbu grafika asosida muborak Qur'oni karim hamda Boburning shaxsiy asarlari qayta yozilgan.

*Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim.
Jonimdin o'zga jonni dilafkor ko'rmadim,
Ko'nglum kibi ko'ngulni giriftor topmadim.
Usruk ko'ziga toki ko'ngul bo'ldi muhtalo,
Hargiz bu telbani yana hushor topmadim.
Nochor furqati bila xo'y etmisham, netay,
Chun vaslig'a o'zumni sazovor topmadim.
Bore boray eshigiga bu navbat, ey ko'ngul,
Nechaki borib eshigiga bor topmadim.
Bobur, o'zungni o'rgatako'r yorsizki, men
Istab jahonni muncha qilib yor topmadim.*

"Boburnoma" asari. "Boburnoma" Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyoti ustuni. Jahon adabiyoti va manbashunosligida muhim va noyob yodgorlik. Eski o'zbek (chig'atoy) tilida yozilgan. Asarning "Boburiya", "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Tabaqoti Boburiy", "Tavorixi Boburiy" kabi ko'plab nomlari ham ma'lum.

Temuriylar tarixi haqida batafsil so'ylaydigan yirik manba. Asarning o'ndan ortiq qo'lozma nusxalari O'zbekiston fanlar Akademiyasi sharqshunoslik institutida saqlanadi. Ko'plab dunyoviy, jumladan, fors, ingliz, rus, turk, golland, fransuz tillariga tarjima qilingan. Xususan, asar fors tiliga Boburning nabirasi, yirik hukmdor Akbarshoh amri bilan tarjima qilinadi, unga eng mahoratli hind rassomlari tomonidan miniaturalar chizilgan. Hozirgi vaqtga qadar "Boburnoma" 25 dan ortiq tillarga tarjima qilingan.

Asar voqealari 12 yoshlik kichkina Boburning hukmdor bo'lganidan boshlanadi. Asar birinchi shaxsdan so'zlangan bo'lib, unda Bobur hayotida ko'rganx-kechirganlaridan tashqari, janglari, yurishlari, qadami yetgan shaharlar va maskanlari haqida qiziqarli ma'lumotlarni qoldiradi.

Aytish mumkinki, "Boburnoma" har tomonlama ajib asar. Birinchidan, u avtobiografik-Bobur hayoti, zamondoshlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Ikkinchidan, asar o'sha davr geografiyasi, madaniyatshunosligi, san'ati, hattoki, o'simliklar olami haqida ham ma'lumotlarga boy. Qiziq jihati shundaki, asarda 1508-yildan 1519-yilgacha bo'lgan biror voqea kuzatilmaydi. Bu balki muallifning xohishi yoki qo'lozmaning turli sabablarda yo'qolgan bo'lishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu asar Boburning har tomonlama yetuk, ziyrak, zukko shaxs bo'lganidan dalolat beradi. Ayniqsa, asardagi hikmatlar qadrlidir. Unda sharqona donishmanlik aks etgan. Masalan: *"...har kimdin yaxshi qoida qolg'on bo'lsa, aning bilan amal qilmoq kerak"*, *"agar ota yomon ish qilg'on bo'lsa, yaxshi ish bilan badal qilmoq kerak"* kabi nasihatlar ham uchraydi.

Boburnoma asosida bir qator badiiy asarlar yaratilgan. Xususan, fransuz adibasi Flora Anna Stilning "Boburxon", yana bir fransuz adibi Fernard Grenard "Bobur", amerikalik yozuvchi Harold Lembning "Bobur yo'lbars" romanlari. Hindistonlik Muni La'l boburiylar tarixiga asoslanib 6 ta roman yozgan. O'zbek adabiyotida esa Oybek, Pirimqul Qodirov, Xayriddin Sulton, Xurshid Davron kabi yozuvchilar Boburga atab qissa-romanlar yozgan.

Ayniqsa, Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" hamda Boburiy shahzodalar haqida "Avlodlar dovoni" kabi asarlari juda mashhur. Yozuvchi Xayriddin Sulton Bobur qadami yetgan manzillar haqida qiziqarli roman yozgan. Xurshid Davron "Samarqand xayoli" qissasi, "Bobur sog'inchi" pyesasini yaratgan. Boburning qizi sharq adabiyotida birinchi tarixchi, olima, adiba Gulbadan-begim "Boburnoma" asarining davomi sifatida "Humoyunnoma" asarini yaratadi. Yana bir boburiyzoda malika Zebunniso ham mumtoz o'zbek adabiyotida o'zining nafis g'azallari bilan mashhur.

Shoir nomini abadiylashtirish maqsadida uning ona shahri Andijonda haykal o'rnatilgan. Bir qancha maskan va manzillarga Bobur nomi berilgan. Har yili 14-fevral respublika bo'ylab Bobur tavallud topgan kun keng miqyosda nishonlanadi.

TOPSHIRIQLAR

("Mubayyin asari")

1. SO'Z – TAVSIF – XULOSA O'YINI

Topshiriq: Quyidagi so'zlar Bobur asarida qanday ma'noda kelgan? Tavsiflang va xulosa chiqaring.



Soʻz	Tavsif	Xulosa
Mubayyin	Ochib beruvchi, izohlovchi, bayon qiluvchi	Asar Qurʼon tafsiriga yaqin manzuma
Eʼtiqod	...	...
Moʻmin	...	...

2. QARAMA-QARSHI JUFTLIKLAR (MATCHING)

Boburning manzumasidan iqtiboslar asosida, quyidagi tushunchalarni juftlab chiqing:

A	B
Halol	Doʻzax
Savob	Munofiq
Moʻmin	Harom
Jannat	Gunoh

3. “KIM TEZ, KIM TOʻGʻRI?” OʻYINI

Topshiriq: Quyidagi savollarga tez va toʻgʻri javob bering:

1. Bobur bu asarda nechta diniy farz haqida soʻz yuritadi?
2. “Toʻgʻri yoʻl” deganda nimani tushunadi?

4. ROLGA KIRISH (ROLE PLAY)

Talabalar guruhlariga boʻlinadi. Har bir guruh Boburning mubayyinlik vazifasini bajaradi – masalan, “Moʻminning sifatleri” mavzusini asosli tarzda targʻib qiladi.

5. “ANIQLA!” TESTI (PARCHADAN TOP)

Topshiriq: Quyidagi iqtibos qaysi gʻoyani anglatadi?

Namuna:

Din bila yo‘qolmasin hech iymon,

Bilmagay o‘zin muqim inson.

● **Javob:** E’tiqodsiz din bo‘lmaydi, iymon kishining tayanchi.

**1. Kim-ki shayxin-u anbiyoni so‘kar,
Qonini o‘z iligi birla to‘kar.**

**2. Jumlani yaxshi e’tiqod qiling,
Barchasin yaxshiliqqa yod qiling.**

**3. Ul xilof erdi nohaq-u botil,
Lek alarg‘a tegurmagay - sen til.**

**4. Yaxshi deng, yaxshi ham ko‘rung borini,
Izz-u ta‘zim ila so‘rung borini.**

6. “SIRLI KONVERT” O‘YINI

Har bir konvertda bir tushuncha: “taqvo”, “tavba”, “diyonat”, “sabr”, “hikmat”.
Konvertni ochib, tushunchani Bobur asaridan misol bilan izohlang.



7. “GAPNI TO‘LDIR”

Quyidagi baytni to'ldiring:

Namuna:

"... bila bil, din asosi,

To'g'ri yo'lning bo'lar boshi."

● **Javob:** Iymon

1. agar-chi zolimdur,

Ahli islom ichra hokimdur.

2. Yana mundin keyin bor,

Toat-u ma'siyini tortuv bor.

8. "BOBUR BAYTIGA CHIZMA"

Talaba bir baytni tanlab, uning mazmunini **chizma**, **grafik**, yoki **mantiqiy daraxt** orqali ifodalaydi. Masalan:

"Zohid agar dunyo desang, u o'tkinchi mehmondur..."



TEST SAVOLLARI (5 TA MISOL)

1. "Mubayyin" asari qanday janrda yozilgan?

- A) Qissa
- B) Manzuma
- C) Nasriy risola
- D) Tarixiy yodnoma

2. Bobur bu asarda qanday masalalarni yoritgan?

- A) Siyosiy g'oyalar
- B) Shohlar sulolasi
- C) Aqoid, axloq, tafsir
- D) Muhabbat va g'am

3. Quyidagi tushunchalardan qaysi biri e'tiqodga taalluqli?

- A) Mehnat
- B) Taqvo
- C) Bunyodkorlik
- D) Insof

4. Bobur iymonni qanday talqin qiladi?

- A) Qurbonlik qilish
- B) Qalbdan ishonch
- C) Namoz o'qish
- D) Til bilan tasdiqlash

5. Bobur "Mubayyin"da qanday arabcha so'zlarni ko'p ishlatgan?

- A) Falsafa, tibbiyot
- B) Sura, iymon, taqvo, tavba
- C) Shohnoma, doston
- D) Hijriy sanalar

ALISHER NAVOIY “MAHBUB UL-QULUB” ASARI



Musulmon Sharqi she'riyati tarixini Alisher Navoiy lirikasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uning lirik merosi o'zigacha yaratilgan fors-tojik va turkiy she'riyatning davomi bo'lish bilan birga barcha zamonlardagi o'zbek she'riyatining eng yuksak cho'qqisi hamdir. Har ikkala tilda yuksak badiiy asarlar yarata olish qobiliyatiga ega bo'lgan hassos shoir 45 ming misraga yaqin turkiy tildagi she'rlari va 12 ming misradan ortiq fors-tojik tilidagi nazmiy merosi bilan o'sha davr she'riyati rivojiga katta hissa qo'shdi.

Alisher Navoiy bolalik yillaridanoq badiiy ijod bilan shug'ullana boshlagan. “*Uch yosh bila to'rt yoshning orasida*” forsigo'y adib Qosim Anvorning baytini yod o'qib, yig'ilganlarni hayratda qoldirgan (“Majolisun nafa'is”) Alisher 15 yoshlarida “maliku-l-kalom” Lutfiyning tahsiniga sazovor bo'ladi. Adabiyot ixlosmandlari undan devon tuzishni iltimos qilganlarida, u g'oyat kamtarlik yuzasidan devon tuzish uchun hali vaqt erta deb hisoblaydi. Shunda shoirning muxlislari 1465-66 yillarda uning she'rlarini to'plab, devon tuzadilar va bu devon o'z davrida “xattotlar sultoni” nomi bilan mashhur bo'lgan Sultonali Mashhadiy tomonidan nasta'liq xatida ko'chiriladi. Navoiyning o'zi “Badoe'u-l-bidoya”ga yozgan debochasida “...ammo xaloyiq arosida ming bayt-ikki ming bayt ortug'roq, o'ksukrakkim o'zlari jam' qilib erdilar, bag'oyat mashhur bo'lub erdi”, – deb yozadi. Devon uni nashrga tayyorlagan adabiyotshunos olim Hamid Sulaymonov tomonidan shartli ravishda “Ilk devon” deb nomlangan bo'lib, 391 g'azal, 41 ruboiy, 1 mustazod, 1 muxammas – jami 434 she'rdan tashkil topgan.

Devonga shoirning 1466 yildan avval yozilgan asarlari kirgani uchun undagi she'rlarning yozilish sanasi nisbatan aniq deb hisoblash mumkin, shu sababli bu devon shoirning o'spirinlik va yigitlik davridagi ijodi va tarjimai holi haqida muayyan tasavvur beruvchi manba sifatida yuksak qiymatga ega. Devondagi g'azallarni kuzatar ekanmiz, bugungi kunda xalq orasida mashhur bo'lgan quyidagi g'azallar aynan shoir ijodining ilk davrida yaratilganligiga guvoh bo'lamiz:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,

Ko'zlarimg'a kecha tong otquncha uyqu kelmadi...

Ko'rgali husnuningni zoru muhtalo bo'ldum sango,

Ne balolig' kun edikim oshno bo'ldum sango...

Navoiy falsafiy tafakkurida muhim qiymatga ega bo'lgan "Ango" radifli g'azalning ham aynan shu devondan o'rin olganligi shoirning o'sha davrdagi yuksak salohiyatidan darak beradi. G'azal matla'sini keltiramiz:

Har gadokim, bo'riyoyi faqr erur kisvat ango,

Saltanat zarboftidin hojat emas xil'at ango.

"Ilk devon"dagi barcha she'rlarning keyinchalik "Xazoyinu-l- maoniy"ga kiritilganligi ularning Alisher Navoiy uchun ham qadrli bo'lganligini ko'rsatadi.

Navoiyshunos olim, filologiya fanlari doktori Aftondil Erkinov jahon qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan nusxalarni o'rganish asnosida Alisher Navoiyning ixlosmandlari tomonidan tuzilgan yana bir devoni qo'lyozmasini aniqlab, 2012 yilda fanga ma'lum qildi. Mazkur devon shoirning Oqquyunlilar sulolasi (Ozarbayjon va G'arbiy Eron hududida 1378-1508 yillarda hukmronlik qilgan o'g'uz turklari) hukmronligi hududidagi muxlislari tomonidan tuzilgan bo'lib, hozircha fanda shartli ravishda "Oqquyunlilar devoni" nomi bilan yuritilmoqda.

Devon 1471 yil 25 dekabrda Anisiy taxallusi bilan she'rlar yozgan shoir va xattot Abdurahim ibn Abdurahmon Xorazmiy tomonidan Oqquyunlilar saltanatining markazlaridan biri bo'lgan Sheroz shahrida ko'chirilgan. Devonda jami 229 ta she'r bor: 224 g'azal, 1 mustazod, 3 muxammas va 1 tarje'band. Bu majmuadagi 224 g'azaldan 217 tasi "Badoe'u-l-bidoya"ga va faqat bittasigina "Navodiru-n-nihoya"ga o'tgan. Devondagi 90% g'azal «Ilk devon»da uchramaydi. Bu holat mazkur g'azallarning katta qismi 1466 yildan keyingi 5 yil orasida (1471 yilgacha) yaratilganligini ko'rsatadi. Avvallari Alisher Navoiyning turkiy tildagi she'riyati 4 bosqichda: "Ilk devon", "Badoe'u-l-bidoya", "Navodiru-n-nihoya", "Xazoyinu-l-maoniy" tarzida o'rganilib kelinardi. Endilikda mazkur devon topilgandan so'ng Alisher Navoiy she'riyatini besh bosqichda o'rganishga zarurat seziladi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Bosqichlar	Navoiy devonlari	Tuzilish muddati
I	Ilk devon	1465-66
II	Oqquyunlilar devoni	1471
III	Badoe'u-l-bidoya	1470-80
IV	Navodiru-n-nihoya	1480-87
V	Xazoyinu-l-maoniy	1492-98

Oqquyunlilar saltanatining asosiy aholisi o‘g‘uz turklari bo‘lgani uchun mazkur qo‘lyozmada Alisher Navoiy she‘rlari o‘g‘uz lahjasiga moslashtirilib ko‘chirilgan. Masalan, Navoiyning mashhur g‘azali matla’si ushbu devonda quyidagi holatda uchraydi:

*Mehr **cho‘x ko‘rsatdim**, ammo mehribone **topmadim**,*

*Jon base qildim fido, oromi jone **topmadim**.*

Oqquyunlilar devoni hozirda Misrning Kohira shahrida saqlanmoqda.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro taxtga chiqqanidan keyin uning topshirig‘i bilan o‘zining birinchi rasmiy devoni “Badoe'u-l-bidoya” (“Badiiylilikning boshlanishi”)ni tartib beradi. Devonning Alisher Navoiy hayotlik davrida (1480, 1482 va 1486 yillarda) ko‘chirilgan nusxalari Parij Milliy kutubxonasida (1480 yil, inv.№ 746), Britaniya muzeyida (1482 yil, inv.№ 401) va Toshkent shahrida (1486 yil, inv.№ 216, asos nusxa) saqlanadi. Devon mazkur nusxalar asosida filologiya fanlari nomzodlari Sh.Sharipov va M.Rahmatullaevalar tomonidan nashrga tayyorlangan (MAT, 1-jild).

Shoir bu devoni uchun maxsus debocha ham yozib, unda devon tartib berish masalalariga to‘xtaladi va quyidagi xususiyatlarni alohida ko‘rsatib o‘tadi:

1. *“Avval budurkim, har kishikim devon tartib qilibdurur, o‘ttiz ikki harfdinki, xaloyiq iboratida voqi'durur va ulus kitobatida shoyi’, to‘rt harfg‘a taarruz qilmaydururlar...*

2. *Yana bukim, har harf g‘azaliyotining avval bitigan g‘azal bila o‘zga g‘azallar orasida uslub xaysiyatidin tafovut rioyat qilmaydururlar. Muqarrardurkim, har amrda bir lahza haq subhonahu va taolo hamdidin yo rasul*

alayhissalom na'tidin, yo bu ikki ishga dalolat qilurdek bir amrdin g'ofil bo'lmamog'liq avlodur...

3. *Yana bir bukim, go'yiyo ba'zi el ash'or tahsilidin va devon takmilidin g'araz majoziy husnu jamol tavsifi va maqsud zohiriy xattu xol ta'rifidin o'zga nima anglamaydururlar. Devon topilg'aykim, anda ma'rifatimiz bir g'azal topilmag'ay va g'azal bo'lg'aykim, anda mav'izatangiz bir bayt bo'lmag'ay...*

4. *Yana bukim, soyir davovinda rasmiy g'azal uslubidinkim, shoyi'durur, tajovuz qilib, maxsus nav'larda so'z arusing jilvasig'a namoyish va jamolig'a oroyish bermaydururlar. Va agar ahyonon matla'e maxsus nav'da voqi' bo'lg'on bo'lsa, hamul matla'uslubi bila itmom xil'atin va anjom kisvatin kiydurmaydururlar, balki tuganguncha agar bir bayt mazmuni visol bahorida guloroyliq qilsa, yana biri firoq xazonida xornamoyliq qilibdurur... Ul jihatdin sa'y qilindikim, har mazmunda matla'e voqi' bo'lsa, aksar andog' bo'lg'aykim, maqta'gacha surat xaysiyatidin muvofiq va ma'ni jonibidin mutobiq tushkay”.*

Alisher Navoiy bu o'rinda devonni g'azallar bilan boshlash, g'azallarni 28 harf emas, balki 32 harf (چ – chim, ج – je, گ – gof va ل – lom-alifni ham qo'shgan holda) bilan tugallash zarurligi, devonga dastavval Allohga hamd yoki Payg'ambarga na't mavzusidagi g'azallarni joylashtirish, g'azallarga ma'rifat va mav'iza mavzulariga doir baytlar kiritish, g'azal matla'sida keltirilgan fikrni maqta'gacha rivojlantirib borish va albatta, devonga janr jihatdan rang-barang she'rlarni kiritishni nazarda tutadi.

Alisher Navoiyning mazkur devoni aynan yuqoridagi qonun-qoidalarga amal qilingan holda tartib berilgan bo'lib, unda 11 janrga oid jami 1046 ta she'r mavjud. Devonga she'rlar quyidagi tartibda joylashtirilgan: g'azal – 777 ta, mustazod – 3 ta, muxammas – 5 ta, musaddas – 2 ta, tarji'band – 3 ta, qit'a – 46 ta, ruboiy – 85 ta, lug'z – 10 ta, muammo – 52 ta, tuyuq – 10 ta, fard – 53 ta.

Alisher Navoiy tuzgan ikkinchi rasmiy devoni “Navodiru-n-nihoya” (“Behad nodirliklar”) deb atalib, 1480-1487 yillar oralig'ida tuzilgan. Devonning 1487 yilda Hirotda mashhur xattot Abdujamil kotib tomonidan ko'chirilgan nodir qo'lyozma nusxasi hozirda O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida

(inv. №11675, asos nusxa) saqlanmoqda. Shuningdek, devonning yana bir nisbatan to'liq nusxasi Sulton Ali Mashhadiy tomonidan Hirotida ko'chirilgan bo'lib, bu nusxa ham hozirda O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (inv. №1995) saqlanadi. "Navodiru-n-nihoya" devoni matni mazkur nusxalar asosida filologiya fanlari nomzodi M.Rahmatullaeva tomonidan nashrga tayyorlangan bo'lib, unda 862 she'r bor (MAT, 2 jild). Mazkur nashrdan o'rin olgan she'rlarning barchasi g'azal janriga oid. Ushbu devondagi 64 g'azal "G'aroyibu-s-sig'ar"ga, 331 g'azal "Navodiru-sh-shabob"ga, 213 g'azal "Badoe'u-l-vasat"ga va 196 g'azal "Favoyidu-l-kibar"ga kiritilgan. Hazrat Navoiy "Navodiru-n-nihoya"dagi g'azallarni keyinchalik "Xazoyinu-l-maoniy"ga kiritganda ko'pincha ularni tahrir qilgan, ba'zi g'azallarning faqat matla'sini saqlab qolib, qolgan baytlarini butunlay o'zgartirgan[\[1\]](#).

Devon Navoiyning hamd mazmunidagi mashhur g'azali bilan boshlanadi:

Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,

Yuzung quyoshig'a zarroti kavn o'lub shaydo.

Alisher Navoiy 1492-1498 yillarda Husayn Boyqaroning taklifi bilan o'zining barcha she'rlari, jumladan, avvalgi rasmiy devonlariga kirgan she'rlarini ham to'plab, "Xazoyinu-l-maoniy" ("Ma'nolar xazinasini") nomli yirik kulliyot yaratadi. Kulliyot to'rt devonni o'z ichiga olganligi uchun "Chor devon" deb ham yuritiladi. Kulliyotning Sankt-Peterburg (1498-99, inv. Xanikov-55; 1592-96, inv. Dorn-558), Istanbul (1495-97, xattot Darvesh Muhammad Toqiy ko'chirgan, inv. № 808), Parij (1525-27, kotib al-Hijroniy ko'chirgan, inv. № 316-317) nusxalari mavjud bo'lib, ular asosida professor H.Sulaymonov kulliyotning ilmiy-tanqidiy matnini yaratdi (1959-60). Mazkur matn MATning 3-6 jildlarini tashkil etuvchi devonlar uchun asos bo'lgan.

Alisher Navoiy to'rt devonning har biriga inson umrining fasllariga moslab nom berdi. Shu ma'noda 7-8 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan davrni inson umrining bahori deb atadi va kulliyotning birinchi devonini "G'aroyibu-s-sig'ar" ("Bolalik g'aroyibotlari") deb nomladi. 20 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan davrni inson umrining yozi deb belgiladi va "Navodiru-sh-shabob" ("Yigitlik nodirliklari") deb

atadi. 35-45 yoshni umrning kuziga qiyos etdi va "Badoe'u-l-vasat" ("O'rta yosh go'zalliklari") deb nomladi. 45-60 yoshini umrining qishiga o'xshatib, "Favoyidu-l-kibar" ("Keksalik foydalari") deb atadi. Har bir devonga 650 tadan g'azal kiritdi, shunga muvofiq boshqa she'riy janrlarga ham joy ajratdi.

Olim H.Sulaymonovning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, Navoiy "Xazoyinu-l-maoniy" kulliyotini tuzish ustida bir necha yil tinimsiz mehnat qilgan va 1498 yildagina uni hozirgi holatda tugal tarzda yakunlagan. Navoiy kulliyot devonlarini o'zaro ichki mustahkam bog'liq holda va qat'iy mutanosiblikda tuzadiki, ularga keyinchalik birorta g'azal kiritish yoki devonlar tarkibidan tushirib qoldirish va hatto ichki o'rnini almashtirish ham mumkin bo'lmagan.

"Xazoyinu-l-maoniy" kulliyotining ichki tuzilishi jihatidan nihoyatda mustahkam tarzda tartib berilganligini shundan tasavvur qilish mumkinki, Alisher Navoiy undagi to'rt devonning har biriga teng miqdorda 650 tadan g'azal joylashtirgangina emas, balki shu bilan birga, shu g'azallarning qofiyalanishiga ko'ra ham har bir devonda o'zaro teng va qat'iy mutanosib bo'lishiga jiddiy ahamiyat bergan. Ya'ni, "alif" harfi bilan tugallanuvchi qofiya va radifli g'azallar to'rtala devonda ham 39 tadan, "be" harfi bilan tugallanuvchi qofiya va radifli g'azallar 27 tadan va h.k. teng tarzda uchraydi.

Yoki yana bir misol. "Xazoyinu-l-maoniy" kulliyotida hammasi bo'lib "Ango" radifli 12 g'azal mavjud. Bu g'azallar to'rtala devonga uchtdan teng tarzda taqsimlangan. Shuningdek, ular har bir devonda bir o'rinda, ya'ni 8-9-10 o'rinlarda joylashtirilgan. Bularning barchasi kulliyotning nihoyatda mustahkam tartibda o'zaro mutanosib holatda tuzilganligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy "Xazoyinu-l-maoniy" kulliyoti takmilini 1498 yilda tugatgandan so'ng bu sanadan keyingi yillarda ham yuksak ijodiy sur'at bilan ishlashda davom etgan. Shoirning o'zi kulliyot debochasida guvohlik berishicha, bir kunda bir-ikki, ba'zan uch-to'rt g'azal yozgan paytlari ham bo'lgan:

Kun bor ediki bir g'azalu ikki g'azal,

Bal uch g'azalu to'rt g'azal ba'zi mahal...

Navoiyshunos A.Abdugʻafurovning yozishicha, Navoiy hayotining soʻnggi yillarida ham ana shunday katta ilhom va jiddiy surʼat bilan barakali qalam tebratgan va keyingi ikki yildan ortiq vaqt davomida koʻplab gʻazal, qitʼa, ruboiy, muxammas va boshqa lirik janrlarda asarlar yaratgan[\[2\]](#). Olim bu lirik sheʼrlar oʻrin olgan bir necha manbalarni keltiradi:

1. “Muhokamatu-l-lugʻatayn”da shoir oʻzbek adabiyoti va jonli soʻzlashuv tilining boyligini koʻrsatish maqsadida koʻplab soʻz va iboralarning yozma adabiyotda ishlatilishiga misol tariqasida oʻz sheʼriyatidan baytlar keltiradi. Keltirilgan baytlarning aksariyati taxallus bilan yakunlanuvchi maqtaʼ ekanligi hazrat Navoiyning mazkur gʻazali tugal holda mavjud boʻlganligini koʻrsatadi.

2. Baʼzi tazkiralarda, xususan, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahhob” tazkirasida keltirilgan maqtaʼ bayt Navoiy devonlarining hech birida uchramaydi.

3. Zahiriddin Muhammad Boburning “Risolai aruz” asarida Navoiy ijodidan ramal bahri uchun misol tariqasida keltirilgan qirq olti gʻazal matlaʼlarining bittasi kulliyot tarkibiga kirmaganligining guvohi boʻlamiz.

4. Alisher Navoiy asarlariga XV-XVIII asrlarda tuzilgan lugʻatlar, xususan, “Badoeʼu-l-lugʻat”, “Abushqa”, “Sangloh” lugʻatlarida koʻplab soʻzlarning izohi uchun keltirilgan ayrim misol baytlar ham “Xazoyinu-l-maoniyy”da uchramaydi.

5. Alisher Navoiy gʻazallariga bitilgan koʻplab taxmislar tarkibidagi shoir qalamiga mansub baytlar ajratib olinganda ularning baʼzilari “Xazoyinu-l-maoniyy” kulliyotida mavjud emasligi maʼlum boʻladi[\[3\]](#).

Bularning barchasi Alisher Navoiy umrining soʻnggi yillarida ham ijod qilishdan bir lahza toʻxtamaganligini koʻrsatadi.

Alisher Navoiy forsiy tilda bitgan sheʼrlarini ham yigʻib, “Devoni Foniyy” nomli toʻplam tuzdi. Bizgacha devonning bir necha qoʻlyozma nusxalari etib kelgan. Bulardan 2 tasi Parij (inv. № 285, 1345), 2 tasi Turkiya (inv. № 3850, 1952), va bir nusxa Tehron (inv. № 15002) kutubxonalarida saqlanadi. Bu nusxalar orasida Parijdagi 285 raqamli qoʻlyozma nisbatan mukammal hisoblanadi[\[4\]](#). Akademik B.Valixoʻjaev “Devoni Foniyy” nusxalarini oʻrganib chiqib, ulardagi sheʼriy janrlar miqdorini quyidagicha deb koʻrsatadi: 10 qasida, 554 gʻazal, 1 musaddas, 1 marsiya,

72 qit'a, 73 ruboiy, 16 ta'rix, 373 muammo, 9 lug'z. Olim ularning miqdorini 1109 ta deb belgilab, umumiy hajmi 6179 bayt ekanligini ta'kidlaydi.

Ko'ringanidek, Alisher Navoiyning barcha she'riy merosi 9 devonda jam bo'lgan bo'lib, ularning ikkitasi ixlosmandlari tomonidan tuzilganligi Navoiy she'rlariga hamma davrlarda, xususan, o'z davrida ham yuqori darajada ehtiyoj bo'lganligidan darak beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. – T.: Fan, 1987-1988. 1-2- jildlar.
2. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. – T.: Fan, 1988-1990. 3-6- jildlar.
3. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. – T.: Fan, 2003. 20-jild.
4. Navoiy Alisher. Ayyomi visol o'ldi yana: Yangi topilgan g'azallar (Nashrga tayyorlovchi F.Sulaymonova). – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995.
5. Navoiy Alisher. Xazoyinul maoniy (Ilmiy-tanqidiy tekst asosida nashrga tayyorlovchi H.Sulaymonov). 4 jildlik. 1-4-jildlar. – T.: Fan, 1959-1960.
6. Ishoqov Yo. Alisher Navoiyning ilk lirikasi: Filol. fan.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissert. – T., 1963.
7. A.Abduq'afurov. “Xazoyinu-l-maoniy”dan chetda qolgan g'azallar// Navoiyning ijod olami (maqolalar to'plami). – T.: Fan, 2001.
8. Erkinov A. Navoiyning muxlislari tomonidan tuzilgan yana bir devoni // O'zbek tili va adabiyoti. – T.: Fan, 2012. – № 1.
9. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. 2-jild (XV asrning ikkinchi yarmi). – T.: Fan, 1977.

[1] 80-yillar oxirida adabiyotshunos olimi Suyima G'anieva ushbu devonning Navoiy muhri bosilgan notugal surat – nusxasini Eron Islom Respublikasidan olib keldi. Bu nusxa “Navoiy dastxati” nomi bilan 1991 yilda e'lon qilindi.

[2]Adabiyotshunos F.Sulaymonova Alisher Navoiyning “Xazoyinu-l-maoniy” kulliyotiga kirmagan she'rlarini to'plab, “Ayyomi visol o'ldi yana” nomi bilan nashr

ettirdi. Mazkur to‘plamga Alisher Navoiyning 61 g‘azali, 2 ruboiysi, 7 qit‘asi va 4 fardi kiritilgan. MATning 20-jildiga ilova tarzida kiritilgan qismda Alisher Navoiyning ushbu she‘rlaridan tashqari Husayniy g‘azaliga taxmisi va turli manbalarda uchraydigan she‘riy parcha hamda baytlari keltirilgan.

TOPSHIRIQLAR

(“Mahbub ul-qulub asari”)

1. “KIM U?” O‘YINI – XARAКТЕРНИ TOPING

Topshiriq: Quyidagi tavsifga qarab kim haqida gap ketyotganini toping. **Namuna:**

“U ilmdan yiroq, ammo o‘zini donishmand ko‘rsatadi, rishvat evaziga fatvo beradi.”



Javob: Riyokor muftiy (13-fasl)

1. *Bu nokas agar omiydur, fisq-u fujur aning komidur. Majlisda nag‘manavozliq, ilm va taqvo a‘zosig‘a – navhasozliq.*

2. *Tariqlari – xudnamoliq va rasmlari xudoroliq. Ishlari – mastlig‘, varzishlari – xudparastlig‘.*

3. *.....musulmonlar peshvosidin iboratdur, va ismlom muqtadosida ishoratdur.*

4. *.....g‘a o‘z fanida hazoqat kerak va bemorlar holig‘a shafqat va marhamat kerak.*

5. *Haq ibodatig‘a nido qilg‘ay, jon anga fido, agar yaxshi savt bila ado qilg‘ay.*

2. “RANGLAR ORQALI BAHOLA”

Jamiyatdagi toifalarni “yashil ● – foydali”, “sariq ● – ogohlantiruvchi”, “qizil ● – xavfli” ranglarga ajrating.

Namuna:


- Shayx ul-Islom – ●
- Noqobil sadr –
- Fosiq shoira –
- Haqiqiy tabib –
- Riyoqar voiz –

3. “SIFAT ZANJIRI”

Har bir toifaga quyidagi shaklda zanjir tuzing:

Toifa → Fazilat/Nuqson → Asardan iqtibos

Namuna:



4. “BAHS: KIM FOYDALIROQ?”

Topshiriq: Talabalar “tabib”, “muftiy”, “sadr”, “faqih” rollariga kirib, oʻz toifasining jamiyatga foydaliligini isbotlaydi.

5. “BAYTDAN MA'NO TOP”

Namuna:

Bayt:

*“Haq yo ‘lida kim senga bir harf o‘qutmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.”*

Savol: Bu baytda qanday axloqiy prinsip ifodalangan?

● **Javob:** Ustozga hurmat, ilmga ehtirom

**1. Valoyat ahlig‘a jam‘I malomatig‘a boq,
Ki, xalq ko‘zidin aylar namozini yashurun.**

*Bu tufroqki, namozida mu‘jibi nodon,
Tutar imomat uchun xayl qiblasida o‘run*

**2. Kishikim bo‘lmag‘ay ma‘jun-u qandining xaridori,
Oning hangomasi birla tuzalmas hech bozori.**

*3. Bu hayl odam emaslar, yaxshi boq san,
Erur suding alardin gar yiroqsan.*

*4. Bir manzil erur anda base ranj-u uqubat,
Tushgan kishiga anda o'kush dard-u suubat.
Vale ul haram ichra bo'lg'ong'a xos,
Umid ulki ham Tengri bergay xalos.*

6. “SAHNA O‘YINI: SADR VA QOZINING ZIDDIYATI”

Topshiriq: Bir guruh “noqobil sadr”, ikkinchisi “taqvodor qozining” faoliyatini sahnalashtiring.

7. “QANDAY DARAJADASIZ?” O‘YINI

Har bir talaba o‘zini qanday jamiyat qatlamida tasavvur qiladi? Masalan:

Agar men muftiy bo‘lsam, men rishvat olmayman? Nega?	Tabib bo‘lsam, qanday davo qilardim?
☐ ...	☐ ...
☐ ...	☐ ...
☐ ...	☐ ...

8. “MANFAATLI VAMANFAATSIZ” xarita

Toifalarni quyidagi jadval asosida belgilang:

Toifa	Fazilatlari	Nuqsonlari	Iqtibos
Mudarris	Bilim beradi	---	---
Muqriy	Fisqni tark etsa foydali	---	---
Imom			

Toifa	Fazilatlari	Nuqsonlari	Iqtibos
Sadr			
Tabib			
Nazm ahli			
Dehqon			

TEST SAVOLLARI

1. “Mahbub ul-qulub” asarida qancha fasl bor?

- A) 30
- B) 52
- C) 40
- D) 25

2. Navoiyga ko‘ra, eng maqbul shoh qanday bo‘lishi kerak?

- A) Harbiy yutuqli
- B) Adolatli va mehribon
- C) Boy va qudratli
- D) Aqlsiz, lekin saxiy

3. Quyidagi fikr qaysi toifa haqida?

“Ilmi yo‘q, ammo harom yo‘l bilan fatvo beradi, dini dunyoga sotadi.”

- A) Muftiy
- B) Qazi
- C) Mudarris
- D) Tabib

4. “Navoiyga ko‘ra, tabib qanday bo‘lishi kerak?”

- A) Badavlat va keskir
- B) Marhamatli, hoziq, xushxulq
- C) Qattiqqo‘l, amirga yaqin

D) Yozuvchi bilan do'st

5. "Ko'p og'zaki nasihat qiladi, ammo o'zi amal qilmaydi." Bu qaysi toifaga xos?

A) Muazzin

B) Mudarris

C) Voiz

D) Yasovul

**ALISHER NAVOIYNING "TARIXI ANBIYO VA HUKAMO" ASARI
BO'YICHA TOPSHIRIQLAR:**

("Tarixi anbiyo va hukamo" asari)

1. "TO'G'RI JAVOBNI TOP" METODI



Topshiriq: Quyidagi fikrlar orasidan to'g'ri javobni tanlang.

1. Qaysi farishta Odam tuprog'ini olib keldi?

☒ Azroil a.s.

☐ Jabroil a.s.

☐ Mikoil a.s.

☐ Isrofil a.s.

2. Odam a.s. qaysi tuproqdan yaratilgan?

Makka tuprog'idan

Hind tuprog'idan

Bag'dod tuprog'idan

Shom tuprog'idan

3. Iblis nima uchun lanatga uchradi?

Sajda qilmagani uchun

Yolg'on gapirgani uchun

Odamni yomonlagani uchun

Qurbonlik qilmagani uchun

4. Qaysi payg'ambar birovni birinchi marta dafn qildi?

Qobil

Hobil

Odam a.s.

Shis a.s.

5. Nuh a.s. kemasi qayerda to‘xtagan?

Judi tog‘i

Ararat tog‘i

Makkada

Hindistonda

2. “SAVOL-JAVOB ZANJIRI” METODI

Topshiriq: Berilgan misollar asosida savollarga javob yozing.

1. Qobil kimni o‘ldirdi?

☒ Hobilni

2. Odam a.s. Ka’bani qayerda qurgan?

3. Iblis nega farishtalar ichida edi?

4. Nuh a.s. nechta o‘g‘lini eslaydi?

5. Kan’on nima uchun halok bo‘ldi?

3. “KICHIK GURUHDA BAHS” METODI

Topshiriq: Guruhlarga bo‘linib quyidagi masalani muhokama qiling.

“Qobilning gunohi va uning oqibatlari haqida fikr yuriting”.

Namuna:



4. “MATNDAN SO‘NGGI SO‘Z” METODI

Topshiriq: Jumlani davom ettiring.

Namuna:

1. Iblisning la'natlanish sababi...
☒ ...sajda qilmasligi bo'ldi.
2. Odam a.s. birohmatdan...
3. Qobil o'z akasini o'ldirgach...
4. Azroil tuproqni olganda...
5. Odam a.s. farzandlariga...

5. “TASVIRDAN HIKOYA TUZISH” METODI

Topshiriq: Quyidagi hodisalar asosida hikoya yozing.

Azroil a.s. yerdan tuproq oldi	
Iblis sajdadan bosh tortdi	
Qobil akasini pichoqladi	
Odam a.s. duo qildi	
Tog'dagi qurbonlik	

6. “SARLAVHA BER” METODI

Topshiriq: Har bir voqeaga sarlavha tanlang.

Namuna:

1. Qobilning jinoyati → ☒ *Ilk qon*
2. Hobilning fidokorligi →
3. Iblisning g'ururi →
4. Odamning g'ami →
5. Farishtalarning sajdasi →

7. “TUZILGAN JADVALNI TO‘LDIR” METODI

Topshiriq: Har bir qahramon haqida ma’lumotni to‘ldiring.

Ismi	Nasabi	Amali	Natija
Odam			
Qobil			
Hobil			
Iblis			
Azroil			

8. “ANIQ VA XATO” O‘YINI

Topshiriq: Gaplar to‘g‘rimi yoki noto‘g‘ri? To‘g‘ri bo‘lsa ☒, xato bo‘lsa ☐

belgilarini qo‘ying.

1. Qobil qurbonligi qabul qilindi.
2. Odam a.s. Hindistonda yashagan.
3. Hobil Qobilni o‘ldirdi.
4. Iblis farishta edi.
5. Odam a.s. Ka’bani qurgan.

9. “CHIZMADAN TAHLIL” METODI

Topshiriq: Voqeani bosqichma-bosqich chizma bilan tushuntiring. (Jadval shaklida)

Bosqich	Voqea
Yaratilish	
Farishtalarning holati	
Qurbonlik	
Jinoyat	
Dafn qilish	

10. “SABAB–NATIJA” METODI

Topshiriq: Har bir voqea sababini va oqibatini aniqlang.

Voqea	Sabab	Natija
Iblis sajda qilmadi	G'urur va hasad	Lanatga uchradi
Qobil qurbonligi qabul qilinmadi		
Qarg'aning o'limi		
Odam a.s. yig'ladi		
Qabil o'tga sajda qiladi		

11. "QIYOSLASH" METODI

Topshiriq: Belgilangan shaxslarni taqqoslang.

Shaxslar	O'xshash jihatlari	Farqli jihatlari
Odam – Nuh	-	-
Qobil – Hobil	Odamning o'g'illari	Qobil – qotil, Hobil – sabrli, adolatli
Azroil – Iblis	-	-
Ibrohim – Lut	-	-
Ismoil – Is'hoq	Ibrohimning o'g'illari	-

12. "AQLNI SINOVDAN O'TKAZ" METODI

Topshiriq: Berilgan faktlarga asosanib, mulohaza bildiring.

1. Iblis "Men undan yaxshiman" dedi.

Savol: Bu jumlaning bugungi hayotga qanday taqqoslash mumkin?



Takabburlik va tengsizlik fikrlaridan kelib chiqadigan muammolarni tushuntiradi.

2. Qobil otashga sajda qildi.

Savol: O'sha davrda odamlar qanday yo'ldan adashgan?

3. Odam – yer yuzining birinchi imoratchisi.

Savol: Bugungi ekologik muammolarga qanday bog'lash mumkin?

4. Ibrohim a.s. butlarni sindirdi.

Savol: Bu voqea zamonaviy "mental" butlar (pul, mashhurlik) bilan qanday bog'lanadi?

5. Ismoil a.s. qurbonlikka tayyor edi.

Savol: Bu bizga qanday fidoyilik saboqlarini beradi?

13. "DAVOMINI YOZ" METODI

Topshiriq: Berilgan gaplarni asar ruhida davom ettiring.

1. Qobil Hobilni o'ldirgach...

✓ *uni dafn qilishni bilmay yurdi.*

2. Odam a.s. tanho qolgach...


3. Nuh a.s. kemani tugatgach...

4. Lut a.s. xalqini ogohlantirgach...

5. Ibrohim a.s. qurbonlikni tayyorlab...

14. "KARUSEL SAVOLLAR" METODI

(Sinf bo'ylab savollar aylanadi. Har o'quvchi javobini yozadi.)



TEST SAVOLLARI

1. Odam a.s.ga sodiq farishtaning ismi nima?

- A) Iblis
- B) Jabrail
- C) Azroil
- D) Mikail

2. Qobilning qurbonligi nima uchun rad etildi?

- A) Qurbonlik noto'g'ri hayvondan bo'ldi
- B) Niyatida xolislik yo'q edi
- C) Qurbonlik yo'q edi
- D) Iblis sabab

3. Odam Ka'bani qayerda qurgan?

- A) Shom
- B) Hindiston
- C) Makka
- D) Misr

4. Hobilni kim o'ldirdi?

- A) Iblis
- B) Qobil
- C) Azroil
- D) Havo

5. Qaysi payg'ambar otashga tashlangan, ammo kuymagan?

- A) Ibrohim a.s.
- B) Nuh a.s.
- C) Lut a.s.
- D) Shis a.s.

XO‘JA IJODI

Xoja — to‘liq ismi Ibodulla Sayid Poshshoxo‘ja binni Abdulvahobxoja bo‘lgan Xoja Zangi ota avlodlaridan bo‘lib 1480-yilda Ashxobod yaqinidagi Niso shahrida Shayx ul-islom Abdulvahobxoja oilasida tavalud topgan.



Xojaning hayoti haqidagi asosiy ma’lumotlar bizga uning o‘g‘li Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” ya’ni “Do‘stlar yodnomasi” asari orqali yetib kelgan.

Xoja Niso, Marv madrasalarida ta’lim oladi, Samarqand va Buxoroda yashaydi, bir qancha vaqt vaqf yerlarining hisobi ustidan nazorat olib boruvchi sadrlar lavozimini egallagan. Balx hokimligi Kistan Qaro Sulton qo‘liga o‘tgach, Xoja din ahllari va ulamolar boshlig‘i - shayxulislomlik vazifasida ishlagan.

Xoja Shayboniylar saltanatida viloyat hokimi, jumlat ul-mulk vazifalarida ishlaydi. Adib nihoyatda chiroyli xat yozganligi uchun xonlar o‘rtasida yozishmalar ham olib borgan.

1547-yilda vafot etgan Xoja Bahouddin Naqshbandiy qabri yoniga dafn qilingan.

Xojaning “Muftoh ul-adl”, “Gulzor”, “Maqsad ul-atvor” asarlari mashhur bo‘lib, bu asarlar hikoyat, qit’a, ruboiy, masnaviy, fard kabi janrlarda yozilgan.

“Muftoh ul-adl” (Adolat yoki odillik kaliti) asari 1508-1510-yillarda yozilgan bo‘lib, Shayboniixonning o‘g‘li Temur Sultonga bag‘ishlangan. U 15 bobdan iborat.

“Gulzor” asari laqabi “Odil” bo‘lgan Kiston Qora sultonga bag‘ishlab, 1538-yilda yozilgan. Asar mobaynida Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidan ijodiy foydalanilgan.

“Maqsad ul-atvor” dostoni Kistan Qaro Sultonning tog‘asi Jonibek Sultonga bag‘ishlangan bo‘lib, 1514-1520-yillarda yozilgan. Asar Nizomiy Ganjaviyning “Mahzan-ul-asror” asariga nazira shaklida yozilgan.

TOPSHIRIQLAR:

1. “BAYTDAN XULOSA CHIQAR”

Namuna:



*“Davlat erur adli la yesa’n gosh,
Voy agar zulm ila qilsang maosh.”*

Savol: Shoh adolatdan og‘sa nima bo‘ladi?

● **Javob:** Zulm davlatni barbod qiladi.

1. *Raiyat erur mevalik yag‘och,
Suv bersang anga, meva berur sanga.
Solur mevasinu bo‘lur barg rez,
Xazon yelidek qilsa anga jafo.*

2. *Har necha bo‘lsa tikan mujibi tashvishu zarar,
Gul bila birga uzub boshqa tikarlar ani bot.
Garchi tol shoxchasidin meva namudor o‘lmas,
Chun nabot ila qo‘shulsa bo‘lur ul dog‘i nabot.*

3. *Norunj so‘yi bazm ichida mul bo‘lmas,*

4. *Har sho‘ra nihol qobili gul bo‘lmas.
Yuz ming yil agar farog‘ ila tutsa maqom,
Hargiz chaman ichra zog‘ bulbul bo‘lmas.*

2. SO‘ZLAR IZHORI (TUSHUNCHA VA SINONIMLAR)

So‘z	Ma’nosi	Sinonimi
Hilm		
Adl		
Ilm		
Sabr		

3. BAYTNING DAVOMINI TOPING

Namuna:

“Qahr ila mazlumni o‘ltur deme...”

● **Javob:**

“O‘ldi esa, so‘ngra pushaymon yema.”

1. *Kimki saning aybingni aytur sanga...*
2. *Bu olamdin vafoyi ko'rmadim hech...*
3. *Qo'yma ko'ngul ichra havoyu havas...*

4. BAHS-MUNOZARA O'YINI

Savol: Qaysi biri shohda muhimroq: saxovatmi yoki adolat?

● **Javobni asardan dalillar bilan asoslash:**

Namuna:

“Adl bila ahli zamonam no'lur” – shoh saxovatli bo'lsa ham, adolat bo'lmasa xalq aziyat chekadi.

5. “MAVHUM TUSHUNCHANI SHARHLANG”

Tushuncha: “Sabr kemasi”

Topshiriq: Nega muallif sabrni kema bilan solishtiradi? Asardan misollar toping.

Namuna: Chunki sabr g'azab to'fonidan insonni olib o'tadi.

Hilmni o'z tavrininga yor aylagil,

Sabru tahammulni shior aylagil.

Bo'lsa g'azab bahri agar mavjxez,

Sabr kemasi bila kir onga tez.

6. “HIKMAT DARAXTI”

Shoxlari — “Adolat”, “Ilm”, “Sabr”, “Hilm”, “Ishq”

Har bir shox ostiga baytdan misol yozing.



TEST SAVOLLARI

1. “Miftoh ul-Adl” kimga bag‘ishlangan?

- A) Bobur Mirzo
- B) Shayboniyxon
- C) Temur Sulton
- D) Jonibek Sulton

2. Asarning asosiy g‘oyasi nima?

- A) Shaxsiy muhabbat
- B) Din va siyosat yondashuvi
- C) Adolatli boshqaruv, ilm va hilm
- D) Nasihat va haj safarlari

3. Quyidagi bayt nimani bildiradi?

“G‘amzada ning xotirini shod qil,
Zulm-u sitam bandidan ozod qil.”

- A) Dushmanni jazolash
- B) Huzur topish
- C) Mazlumni qo‘llash

4. “Qahr ila mazlumni o‘ltur deme” baytining asosiy g‘oyasi nima?

5. Poshshoxojaning “Miftoh ul-Adl” asari janri qanday?

- A) Nasriy risola
- B) Diniy qissa
- C) Didaktik doston
- D) Tarixiy yodnoma

“HUSAYNIY – SHOH VA SHOIR”

Husayn Boyqaro (forscha: سلطان حسين بايقرا), Husayniy (1438-yil, Hirot—1506-yil, 4-may, Bobo-Ilohi, Hirot yaqinida) — Temuriylar sulolasining vakili, Xuroson podshosi, taniqli turkiy shoir va davlat arbobi.



Hirot yaqinida tugʻilgan. 1469-yildan umrining oxirigacha Xuroson podshohi. Uning hukmdorligi yillarida iqtisodiy va madaniy hayot yaxshilangan. Navoiyning maktabdosh doʻsti va homiysi.

Tarixiy manbalardan shu narsa maʼlumki, Husayn Boyqaro Temuriy shahzodalar orasida jasoratli, mard, odil va tadbirkor saltanat sohibi boʻlgan. Husayn Boyqaro Hukmronlik qilgan davrda Xuroson fuqarolari birmuncha osoyishta va farovon hayot kechirgan. Ayniqsa, vaziri Alisher Navoiyning saʼy-harakatlari natijasi oʻlaroq, mamlakatda yirik suv inshootlari, maʼmuriy va madaniy qurilishlar, madrasa, masjid, karvonsaroy, rabotlar, koʻpriklar va sh.k. qurilish ishlari keng koʻlamda olib borilgan. Shu bois Husayn Boyqaroning hukmronlik davrida Hirot fan va madaniyat markaziga aylangan edi. Bu davrda ilmu fanning barcha jabhalarida qalam tebratgan allomalar, soʻz ustalari, adiblar, shoirlar, musiqashunoslar, hunarmand naqqoshlar va musavvirilar Hirotning dovruqʻini jahonga mashhur qilganlar.[1]

Husayn Boyqaro, Husayniy (toʻliq nomi Husayn ibn Mirzo Mansur binni Mirzo Boyqaro) (1438— Hirot — 1506) — Xuroson hukmdori (1469-1506), shoir. 15-asr oʻzbek mumtoz adabiyotining namoyandalaridan. Temuriylardan Umarshayx mirzoning evarasi. Onasi Feruzabegim temuriylardan Mironshohning nabirasi. Husayn Boyqaro, Bobur taʼriflaganidek, ikki tomonlama ulugʻ („karim ut-tarafayn“) boʻlgan.

Hukmdorlik yillari

14 yoshda Abulqosim Bobur saroyiga xizmatga kirgan. 1454-yil Abulqosim Boburning Samarqandga — Abu Said Mirzoga qarshi yurishida qatnashgan. Abulqosim Bobur yengilgach, sulh tuzib, Hirotga qaytgan. Husayn Boyqaro esa onasining tavsiyasi bilan Abu Said Mirzo saroyida qolgan. Koʻp oʻtmay, qamoqqa

olingan. Feruzabegim uni qutqarib, Hirotga olib kelgan. Shoh vafot etgach, Husayn Boyqaro Marv hukmdori Sulton Sanjar xizmatiga kirgan va uning qizi Beka Sultonbegimga uylangan. Sulton Sanjar Husayn Boyqaroni o'z o'rniga qo'yib, Mashhadga yurish qilgan. Bu orada Marvda Husayn Boyqaroga qarshi fitna uyushtirilib, u ovga chiqqanda, shahar darvozalari berkitib olingan.

Husayn Boyqaro 1457-yilni qo'shni Marv bilan Xiva oralig'idagi biyobonda o'tkazgan. 1458-yilda 300 kishilik qo'shin bilan Sulton Sanjarning yaqinlaridan Bobo Hasan qo'shinini yengib, Niso viloyati, so'ng Astrobodni egallagan. 1459-yilda Husayn Boyqaro huzuriga Abdurazzoq Samarqandiy elchi bo'lib kelgan. 1460-yilda vaziyat taqozosi bilan Husayn Boyqaro Astrobodni tashlab chiqishga majbur bo'lgan. Ammo 1461-yil shaharni qaytarib olgan. Shu yil yoz oxirlarida Hirotga yurish qilgan. Biroq Abu Said Mirzoga bas kelolmay, orqaga chekingan, buning ustiga, Astroboddan ham mahrum bo'lgan. Amudaryo orqali Xorazmga o'tib, Vazir shahriga — Mustafaxon huzuriga elchi yuborib, Abu Saidga qarshi birgalikda kurashishga da'vat etgan. Lekin elchi kelguncha, uning og'asi Pir Budog' bilan kelishib, Mustafoxonga qarshi yurish qilishgan, lekin Vazir shahrini ololmay, bitim tuzganlar. Husayn Boyqaro Adoqqa borib, 1461-yil oxirlarigacha o'sha yerda qolgan. Adoqda turib, Astrobod, Gurgon va Eronning boshqa tumanlariga hujumlar uyushtirgan, mag'lubiyatga uchraganida, shu yerdan panoh topgan. Mustafozulmiga qarshi ko'tarilgan isyondan foydalanib, avval Vazirni, 1462-yilda Urganch va Xivani qo'lga kiritgan. Oradan 1 yil o'tmay, Abu Said uni Xorazmdan surib chiqargan.

1463-1464-yillarda Urganch, Xiva, Hazorasp, Tirsakni qo'lga kiritgan. Shu yerda kuch to'plab, yana Xurosonga hujum qilgan. Ammo Abu Said qo'shinlari Xivani egallay. Husayn Boyqaro uni qaytarib oladi. 1467-yilda yana Urganchni egallaydi. Shu yili u o'zbeklar xoni Abulxayrxondan yordam so'rab, Dashti Qipchoqqa boradi. Xon yordam va'da qiladi, lekin betob bo'lib qolganligi tufayli, bu va'da amalga oshmaydi. 1469-yil martigacha Xorazm va Buxoro o'rtasida sarson-sargardon yurgan Husayn Boyqaro, Abu Said vafot etgach, Hirotni egallab, Samarqanddan do'sti Alisher Navoiyni maxsus yorliq bilan chaqirib oladi va

muhrdorlik vazifasiga tayinlaydi. Navoiy do'stini taxtga chiqishi bilan qutlab, unga „Hiloliya“ qasidasini taqdim etgan.

1469-1470-yillar Shohrux mirzoning avlodlaridan Yodgor Muhammad Mirzo va Abu Said Mirzoning o'g'li Sulton Mahmud Mirzo taxt da'vogarlarini sifatida maydonga chiqadilar. Yodgor Mirzoning tarafdorlari, xususan, onasi Poyanda Sultonbegim Hirot ichkarisida zimdan ish olib borgan. 1470-yilning iyulida Husayn Boyqaro qo'shin bilan dushmanga qarshi jangga ketganda, poytaxtda sotqin bek va amaldorlar Yodgor Mirzo nomiga xutba o'qitganlar. Husayn Boyqaro 1 oydan so'ng Navoiyning tadbirkorligi bilan Yodgor Mirzoni qo'lga olib, taxtni qayta egallagan va umrining oxirigacha hukmdorlik qilgan. Saltanatiga Xorazm, Seyiston, Qandahor, Balx, G'aznadan Domg'ongacha bo'lgan yerlar kirgan. Yurak xastaligidan vafot etgan Husayn Boyqaro o'zi qurdirgan madrasa ichidagi maqbaraga dafn etilgan. Hozir maqbara vayron bo'lgan, qabr va uning ustiga o'rnatilgan „Sangi haft qalam“ saqlanib qolgan.

Xuroson mamlakati Husayn Boyqaro davrida

Husayn Boyqaro Temuriylar orasida ancha shijoatli va ma'rifatli, shariatga qat'iy amal qilgan hukmdor bo'lgan. Husayn Boyqaro Xurosonda hokimiyatni egallagach, asosiy e'tiborni mamlakatda tinchlik, osoyishtalikni qaror toptirish, ichki hududiy nizolar, ziddiyatlarni bartaraf etish va markaziy hokimiyatni mustahkamlashga qaratgan. U o'lkada madaniy-ma'rifiy va obodonchilik ishlarini rivojlantirishga alohida rag'bat ko'rsatgan: iqtisodiy hayot yuksalib, savdo-sotiq rivojlangan, yuzlab karvonsaroylar, rabot, ko'priklar, maktab, madrasa, masjid, xonaqoh, hammom, tabobatxona, yetimxona, suv havzalari qurilgan, kanallar qazilgan, bog'lar barpo etilgan.

Hirot mamlakati Husayn Boyqaro davrida

Husayn Boyqaro davrida Hirot Sharqning fan, madaniyat, hunarmandchilik rivojlangan yirik markaziga aylangan: turli mamlakatlardan iste'dod sohiblari Hirotga panoht axtarib kelganlar. Til, adabiyot, tarix, tasviriy san'at, xattotlik, kitobat san'ati, tabobat, handasa, musiqa, qog'oz tayyorlash, tomosha san'ati va boshqa sohalar rivojlangan. Hirot, Mashhad, Marv, Nishopur singari shaharlarda ko'plab

noyob obidalar barpo etilgan. Mahalliy hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar Xurosondan tashqarida ham mashhur bo'lgan. Husayn Boyqaro, Navoiy va Jomiy ko'plab iste'dodlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlaganlar; o'z davrining zabardast shoir, olim, muarrix, musiqachi, xattot, naqqoshlari xuddi shu zamonda yetishib chiqqanlar va faol ijod qilganlar.

Ijodi

Husayn Boyqaro turkiy tilda yozishni rag'batlantirgan va shunga da'vat qilgan. O'zi ham badiiy ijod bilan shug'ullanib, „Husayniy“ taxallusi bilan she'rlar yozgan, she'riyat majlislari tashkil etib, shoirlarga rahnamolik qilgan. Undan bizgacha she'rlar devoni va Navoiyga bag'ishlangan "Risola" asari yetib kelgan. „Risola“ asari 1945-yilda turk olimi Ismoil Hikmat tomonidan topilib, ilmiy muomalaga kiritilgan. Shoh shoirning hozirgacha 202 g'azal, Navoiy gazaliga bog'langan 3 muxammas, 6 ruboiy, shuningdek, fors-tojikcha 2 g'azal 1 ruboiy va bir necha baytlari ma'lum. G'azallarining barchasi ramal bahrida. Lekin ular Husayn Boyqaroning tab'i baland, didi nozik shoir bo'lganligini ko'rsatadi. Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasining 8-majlisini to'liq Husayn Boyqaro ijodibo'g'ina bag'ishlab, uning devonidagi 164 g'azalning matla'ini keltiradi va u qo'llagan badiiy timsollar, she'riy san'atlar, nozik ma'no va ohorli tashbehlar xususida fikr yuritadi. Husayn Boyqaro g'azallari tilining musiqiyligi va jarangdorligi bilan ajralib turadi.

Farzandlari

Husayn Boyqarodan 14 o'g'il, 11 qiz qolgan. Badiuzzamon Mirzo, Shohg'arib Mirzo, Muhammad Husayn, Ibrohim Husayn kabi o'g'illari badiiy ijod bilan ham shug'ullanishgan. Keyinchalik o'zaroichki urushlar, Husayn Boyqaro va saroy amaldorlarining maishatga berilib ketishi oqibatida Xuroson davlati zaiflashgan. Uning vafotidan so'ng 1507-yili Hirot shayboniylar tomonidan zabt etilgan.

Husayn Boyqaro badiiy ijod bilan shug'ullanib, g'azalnavis shoir sifatida adabiyot tarixida iz qoldirgan. Boburning xabariga ko'ra, devonidagi g'azallari aksariyat bir vaznda (ramali musammani maqsur) yozilgan. G'azallarida dunyoviy muhabbatni kuylagan, betakror satrlar yaratgan.

„Risola“ nomli nasriy asarida Navoiy ijodiga keng va ob’yektiv baho bergan. Husayniy asarlari O‘R FA ShI jamg‘armasida saqlanadi.

Shoir ijodi bilan E.Rustamov, S.G‘anieva, E.Ahmadxo‘jaev, A.Erkinov va boshqalar shug‘ullanganlar.

TOPSHIRIQLAR

1. “SHE’RDAN SAN’ATNI TOP!”

Namuna:

“La’l erur ikki labing so‘z rishtasin o‘tkargali...”

● **San’at:** Istiora va tashbeh (la’l – labga, rishta – so‘zga o‘xshatilgan)

1. *Bo‘ldi gul vaqtiyu men dardu g‘amida mubtalo,
Ishq o‘tidin loladek bag‘rimda yuz dog‘i balo.*

2. *Firoqingda xasta ko‘nglum qatra-qatra qon erur,
Olloh-olloh, bu ne hajri behadu poyon erur?*

3. *Oyni ne yanglig‘ sanga nisbat qilurkim, husn aro
Sarvdek ham qaddi yo‘q, ham gul kibi ruxsori yo‘q.*

2. “QOFIYANI TOP!”

Namuna:

*“Bo‘ldi gul vaqtiyu men dardu g‘amida mubtalo,
Ishq o‘tidin loladek bag‘rimda yuz dog‘i...”*

❓ **Savol:** Qaysi so‘z bilan qofiyadosh so‘z yetishmayapti?

● **Javob:** “balo”

1. *G‘unchani og‘zing desam, naylay aning guftori yo‘q,
Sarvni qadding desam, netay aning yo‘q.*

2. *Ey ko‘ngul, ul dilraboning o‘zga yori bor emish,
Vah, sanga dushman bo‘lub, ul o‘zgalarga emish.*

3. *Necha kuygay hajr ila farsuda jonim dam-badam,*

Hajridin ko‘nglumga yuz g‘am,g‘am uza dardu

3. “BAYTLAR ICHIDAN VAZNNI TOP”

Quyidagi baytni to‘g‘ri taqte’sini yozing qiling (Ramali musammani mahzuf):

Namuna:

*“To tushubdurmen sirishkim bahridin girdobda,
Zulfidek sargashta jismim bo‘ldi pechu tobda.”*



(Dilnavoz Yusupova
“Aruz vazni qoidolari va
mumtoz poetika asoslari”)

● **Javob:** Foilotun – foilotun – foilotun – foilun

-V-- / -V-- / -V-- / -V-

1. *Voy,yuz ming voykim,sarvi ravonim bordilo,
Sabru hushim mulkidin oromi jonim bordilo.*

2. *Vahki,g‘am dashtida itgan notavon ko‘nglum qani,
Tarki jonim aylagan bexonumon ko‘nglum qani?*

3. *Hech musulmong‘a, nigoro,dog‘i hijron bo‘lmasun —
Kim,visolingdin judo bo‘lsa,anga jon bo‘lmasun.*

4. “G‘AZALDAN HIKOYA YOZ”

Baytdan ilhomlanib mini-hikoya tuzing:

Namuna:

“Ey sabo bergil xabar, sarvi ravonim keldimu...”

● **Javob:** Hikoya sodiq oshiqning uzoq kutgan orzusi ro‘yobga chiqqan holatda yoziladi.

1. *Ko‘rsatma chamanda sarvi yo‘ldosh manga –
Kim,ko‘rganidan ko‘zdin oqar yosh manga.
Indursa ne bo‘ldi har nafas bosh manga,
Ul sarvi ravonki, bo‘ldi bo‘ydosh manga.*

2. *Ul sho‘xki birdam manga hamdam bo‘lmas,
Zaxm ursa firoqi,vasli marham bo‘lmas.*

Ishqida ko‘ngul nasibi juz g‘am bo‘lmas,

Ko‘ngul ko‘taray desam, ko‘ngul ham bo‘lmas.

5. “G‘AZALDAGI QARAMA-QARSHILIKLAR”

Topshiriq: Quyidagi so‘z juftliklaridan qaysilari tazod san‘atiga misol?

- Visol – hijron
- Yor – g‘anim
- Gul – tikan
- Subh – shom

Quyidagi g‘azaldan tazod san‘atiga misollar toping.

*Necha kuygay hajr ila farsuda jonim dam-badam,
Hajridin ko‘nglumga yuz g‘am, g‘am uza dardu alam.*

*Yor bordi ko‘zdinu ko‘nglimda furqat shiddati,
Hajri bedod ayladi, jonimg‘a davron javr ham.*

*Kecha-kunduz jonima, vahki, balolar yuz qo‘yub,
Shom to subh uyqu yo‘qdin ko‘ngluma yuz ming sitam.*

*Hajr aro sabrim yo‘qi anduh aro ko‘p muztarib,
Ashkdin seli balo, oh o‘tidin har dam alam.*

*Barcha bir soriyu yo‘qtur yor vaslidin umed,
Topkasen vasl, ey ko‘ngul, ul damki bo‘lg‘aysen adam.*

*Ey Husayniy, motamim sharhini dedimkim yozay,
So‘zidin ham safhag‘a o‘t tushti, ham kuydi qalam.*

6. “BAYTDAN RASM”

“Chun junun zanjiriga bo‘ldum giriftor, ey ko‘ngul...”

Bu misra asosida chizmachacha chizing – telba oshiq, zanjir, g‘amli yuz. **Namuna:**



1. *Bir quyosh hajrida chektim o‘tlug‘ afg‘on bu kecha,
Kuymakim dudidin o‘ldi charx giryon bu kecha.*

2. *G‘unchani og‘zing desam, naylay aning guftori yo‘q,
Sarvni qadding desam, netay aning raftori yo‘q.*

*Oyni ne yanglig‘ sanga nisbat qilurkim, husn aro
Sarvdek ham qaddi yo‘q, ham gul kibi ruxsori yo‘q.*

7. “BADIYY QATOR YASASH”

Tushunchalar: la‘l, sham‘, zulf, qon, lolalik

● **Topshiriq:** Ushbu so‘zlar qatnashgan 2 misralik yangi bayt yozing (ijodiy).

TEST SAVOLLARI (JAVOBLARI BILAN)

1. “Husayniy” taxallusi kimga tegishli?

- A) Alisher Navoiy
- B) Bobur Mirzo
- C) Husayn Boyqaro
- D) Sulton Mahmud

2. Quyidagi baytda qaysi san‘at mavjud?

“Loladek may jomini tutgil g‘animat, gul chog‘i...”

3. Husayniy g‘azallarining umumiy ohangini qanday ta‘riflash mumkin?

- A) Hajviy
- B) Irfoniy
- C) Ishqiy-lirik
- D) Tarixiy-epik

4. Husayniy g‘azallarida eng ko‘p uchraydigan motivlardan biri nima?

- A) Vatanni madh etish
- B) Yaratganni ulug‘lash
- C) Mahbubdan judo bo‘lish va hijron
- D) Tabiatni tasvirlash

5. “Zulf” deganda mumtoz she‘riyatda ko‘pincha nima tushuniladi?

- A) Jang maydoni
- B) Mahbuba sochi
- C) Guldasta
- D) Quyosh nuri

ORALIQ NAZORAT SAVOLLARI:

1. Pahlavon Mahmudning hayoti va ijodiy merosi.
2. Pahlavon Mahmudning gʻoyaviy-falsafiy, badiiy xususiyatlari va mazmun-mohiyati.
3. Pahlavon Mahmud ruboiylarining mavzu doirasi, timsollar tarkibi.
4. “Kanzul-haqoyiq” asari va muallifi haqida maʼlumot bering.
5. Rabgʻuziy va uning “Qisasi Rabgʻuziy” asari.
6. “Qisasi Rabgʻuziy” asarining mavzusi, mundarijasi.
7. “Qisasi Rabgʻuziy” asaridagi qissa va hikoyatlar, ularning mazmun-mohiyati, gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari.
8. “Qisasi Rabgʻuziy”dagi qissalarning mushtarak va oʻziga xos xususiyatlari.
9. Xorazmiy va uning “Muhabbatnoma” asari.
10. “Muhabbatnoma” – turkiy adabiyotda “noma” janrining ilk namunasi.
11. “Muhabbatnoma”ning janrlar tarkibi, badiiy xususiyatlari.
12. Sayfi Saroyi – lirik shoir, dostonnavis va tarjimon.
13. “Suhayl va Guldursun” dostoni va “Guliston bit-turkiy” asarining gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari.
14. “Muhabbatnoma” tarkibida kelgan sheʼriy janrlarni izohlang.
15. Durbek va uning “Yusuf va Zulayho” dostoni.
16. “Yusuf va Zulayho” dostonining yaratilishi, dostonning obrazlar tizimi, gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari.
17. “Yusuf va Zulayho” dostoni muallifi haqidagi munozaralar xususida nimalarni bilasiz?
18. “Yusuf va Zulayho” dostonida muallifining Balx qamali tasvirini berishdan muddaosi nima?
19. “Yusuf va Zulayho”da adolatli va tadbirkor podshoh gʻoyasi qanday tasvirlangan?
20. Haydar Xorazmiy hayoti va ijodiy merosi.
21. “Maxzanul -asror” asari va muallifi haqida maʼlumot bering.
22. “Gul va Navroʻz” asari va muallifi haqida maʼlumot bering.

23. Atoyi hayoti va ijodi.
24. Atoyi she'riyati, g'azallariga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlar.
25. Sakkokiy – g'azalnavis va qasidanavis shoir.
26. Sakkokiy g'azal va qasidalarida badiiy mahorat masalasi.
27. Lutfiy hayoti va ijodini o'rganish manbalari.
28. Lutfiyning ijodiy faoliyati. Lutfiy va Navoiy.
29. Husayniy – turkigo'y shoir.
30. Alisher Navoiy asarlarida Husayniy va uning ijodi haqida.
31. Husayniyning “Risola” asari haqida ma'lumot bering.
32. “Qisasi Rabg'uziy”ni yozishda Rabg'uziy qaysi manbalardan foydalangan?
33. “Menki pishurdum bu laziz oshni, Shayx Nizomiydin olib choshni”, - bayti keltirilgan asar va muallifi haqida ma'lumot bering.
34. Sayfi Saroyi – dostonnavis va tarjimon.
35. Sakkokiy – g'azalnavis shoir.
36. Sakkokiy – qasidanavis shoir.
37. Atoyi she'riyati haqida ma'lumot bering.
38. “Gul va Navro'z” dostoni kimning qalamiga mansub?

YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI:

1. Pahlavon Mahmudning hayoti va ijodiy merosi.
2. Pahlavon Mahmudning g'oyaviy-falsafiy, badiiy xususiyatlari va mazmun-mohiyati.
3. Pahlavon Mahmud ruboiylarining mavzu doirasi, timsollar tarkibi.
4. "Kanzul-haqoyiq" asari va muallifi haqida ma'lumot bering.
5. Rabg'uziy va uning "Qisasi Rabg'uziy" asari.
6. "Qisasi Rabg'uziy" asarining mavzusi, mundarijasi.
7. "Qisasi Rabg'uziy" asaridagi qissa va hikoyatlar, ularning mazmun-mohiyati, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
8. "Qisasi Rabg'uziy"dagi qissalarning mushtarak va o'ziga xos xususiyatlari.
9. Xorazmiy va uning "Muhabbatnoma" asari.
10. "Muhabbatnoma" – turkiy adabiyotda "noma" janrining ilk namunasi.
11. "Muhabbatnoma"ning janrlar tarkibi, badiiy xususiyatlari.
12. Sayfi Saroyi – lirik shoir, dostonnavis va tarjimon.
13. "Suhayl va Guldursun" dostoni va "Guliston bit-turkiy" asarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
14. "Muhabbatnoma" tarkibida kelgan she'riy janrlarni izohlang.
15. Durbek va uning "Yusuf va Zulayho" dostoni.
16. "Yusuf va Zulayho" dostonining yaratilishi, dostonning obrazlar tizimi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
17. "Yusuf va Zulayho" dostoni muallifi haqidagi munozaralar xususida nimalarni bilasiz?
18. "Yusuf va Zulayho" dostonida muallifining Balx qamali tasvirini berishdan muddaosi nima?
19. "Yusuf va Zulayho"da adolatli va tadbirkor podshoh g'oyasi qanday tasvirlangan?
20. Haydar Xorazmiy hayoti va ijodiy merosi.
21. "Maxzanul -asror" asari va muallifi haqida ma'lumot bering.
22. "Gul va Navro'z" asari va muallifi haqida ma'lumot bering.

23. Atoyi hayoti va ijodi.
24. Atoyi she'riyati, g'azallariga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlar.
25. Sakkokiy – g'azalnavis va qasidanavis shoir.
26. Sakkokiy g'azal va qasidalarida badiiy mahorat masalasi.
27. Lutfiy hayoti va ijodini o'rganish manbalari.
28. Lutfiyning ijodiy faoliyati. Lutfiy va Navoiy.
29. Husayniy – turkigo'y shoir.
30. Alisher Navoiy asarlarida Husayniy va uning ijodi haqida.
31. Husayniyning "Risola" asari haqida ma'lumot bering.
32. "Qisasi Rabg'uziy"ni yozishda Rabg'uziy qaysi manbalardan foydalangan?
33. "Menki pishurdum bu laziz oshni, Shayx Nizomiydin olib choshni", - bayti keltirilgan asar va muallifi haqida ma'lumot bering.
34. Sayfi Saroyi – dostonnavis va tarjimon.
35. Sakkokiy – g'azalnavis shoir.
36. Sakkokiy – qasidanavis shoir.
37. Atoyi she'riyati haqida ma'lumot bering.
38. "Gul va Navro'z" dostoni kimning qalamiga mansub?
39. Alisher Navoiy vazir va jamoat arbobi sifatida qanday ishlami amalga oshirdi?
40. Alisher Navoiy "Xamsa"sining yaratilishi tarixi haqida so'zlang. Abdurahmon Jomiyning bu asaiga bergan yuksak bahosi haqida nimalarni bilasiz?
41. Alisher Navoiy umrining so'nggi yillarida qaysi asarlarini yozdi?
42. Alisher Navoiy she'riy merosining asosini qaysi manbalar tashkil etadi?
43. Alisher Navoiy devonlari, ulaming tartib berilishi tarixi, janriy tarkibi haqida ma'lumot bering.
44. Alisher Navoiy she'riyatidagi mujoziy va ilohiy ishq mohiyatini nima tashkil etadi? "Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq" misrasini izohlang.
45. Alisher Navoiy g'azalnavislikda kimlarni o'ziga ustoz deb bilgan? Shoirning nazmda shakl va ma'no mutanosibligi xususidagi adabiytanqidiy qarashlarini izohlang.

46. Musalsal va mustaqil baytlardan tarkib topgan gʻazallarning bir-biridan farqli jihatlari nimalarda namoyon boʻladi?
47. Alisher Navoiyning “Yordin ayru koʻngil mulkedurur sultoni yoʻq” misrasi bilan boshlanuvchi gʻazalida qanday mavzular qalamga olinadi?
48. Kichik sheʼriy asarlar: qitʼa, ruboiy, tuyuq, chiston (lugʻz)larning janriy xususiyatlari haqida maʼlumot bering.
49. Alisher Navoiyning qaysi asarlari tarkibida qitʼalar mavjud va shoir oʻz qitʼalariga xos xususiyatlar haqida qanday mulohazalarini bayon etgan?
50. Alisher Navoiy ruboiylarining yetakchi mavzusi nimalarda koʻrinadi?
51. Alisher Navoiyning qitʼa, ruboiy singari janrlarga nisbatan tuyuq janrida kam asarlar ijod etganligining sababi nimada deb oʻylaysiz?
52. Alisher Navoiyning chistonlarida nimalar yashiringan?
53. Alisher Navoiy turkiy va forsiy tillarda qanday qasidalar ijod etgan?
54. Alisher Navoiyning “Hiloliya” qasidasining yozilishi tarixi va voqeabandligini tashkil etuvchi lavhalar hamda yetakchi obrazlari haqida maʼlumot bering.
55. Alisher Navoiy “Devoni Foni” qoʻlyozma nusxalari, janriy tarkibi haqida nimalar bilasiz?
56. “Xamsa” ijod etish uchun “Panj ganj”ning qanday xususiyatlari bu adabiy janrga xos boʻlgan meʼyor sifatida belgilandi?
57. Sharq xalqlari adabiyoti tarixida Shayx Nizomiya izdoshlik qilish anʼanasi qanday yoʻnalishlarda davom etdi?
58. Alisher Navoiy “Xamsa”si va uning yaratilishi tarixiga doir nimalarni bilasiz?
59. “Hayrat ul-abror”dan keltirilgan maqolat va hikoyatlarning mazmun-mohiyati, gʻoyasi nimalardan iborat?
60. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonini ijod etarkan, uni yangicha tarzda yaratish niyatini qanday tamsillar vositasida badiiy ifoda etgan? Xuddi shu holat “Layli va Majnun”da qanday bayon etiladi?
61. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida ulugʻ salaflarining ijodiy tajribasiga qanday munosabat bildiradi? Ularning Xusrav, Shirin va Farhod

muhabbati mojarolaridan bahs etuvchi dostonlari xususidagi turkiy “Xamsa” ijodkorining e’tirozlari nimalardan iborat?

62. “Fahod va Shirin” dostonidagi yetakchi obrazlarning ramziymajoziy xususiyatlarini izohlang.

63. “Layli va Majnun” dardchil ishqiy-sarguzasht mavzuining tarixiy asosi va tadrijiy takomili xususida nimalarni bilasiz?

64. Layli va Majnunlarning pok sevgisi haqidagi mushohadalaringsizni bayon eting. Majnunning Ka’ba ziyorati tafsilotlari lavhasini sharhlashga harakat qiling.

65. Shoh Bahromning ishqiy sarguzashtlari mavzuining tarixi va tadrijiy takomili haqida ma’lumot bering.

66. “Sab’ai sayyor” dostonining Shoh Bahrom ishqiy sarguzashtlariga bag’ishlangan shu mavzudagi boshqa asarlardan jiddiy farqlanuvchi jihatlari nimalarda namoyon bo’ladi?

67. “Sab’ai sayyor”dagi hukmdorlar obraziga oid fikrlaringizni bayon eting.

68. “Sab’ai sayyor” dostonidagi hikoyatlar, qasrlarning ranglari bilan qoliplovchi hikoyatning qanday bog’liqlik jihatlari mavjud?

69 Shoh Bahrom obrazi “Xamsa” tarkibidagi Farhod va Majnun obrazlaridan qaysi jihatlarga ko’ra farqlanadi? Shoir “Sab’ai sayyor”da oshiqlik va shohlik haqidagi qanday falsafiy qarashlarini bayon etadi?

70 Iskandar haqidagi afsona va rivoyatlarning keng tarqalishini qadimgi tarixchilar qanday izohlashadi?

71 “Saddiy Iskandariy”ning nomlanishida qanday majoziy ma’no mujassam? Uni boshqa dostonlar nomlari bilan qiyosiy izohlashga harakat qiling.

72. Bobur Mirzo hayoti va faoliyati haqida ma’lumot beruvchi mo’tabar manbalardan qaysilarini bilasiz?

73. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati borasida ilmiy izlanishlar olib borgan sharqshunos olimlardan kimlarni bilasiz?

74. Zahiriddin Muhammad Bobur nomining jahonga tanilishida ijod ahlidan kimlarning xizmatlari singgan?

75. “Boburnoma” muallifi otasi Umarshayx Mirzo haqida qanday ma’lumotlar keltiradi?
76. Bobur Mirzoning Farg‘ona viloyati taxtiga o‘tirishi tarixi haqida ma’lumot bering.
77. Bobur Mirzo qanday adabiy, ilmiy asarlar muallifi sanaladi?
78. Shoiming manzum asarlari deganda qaysi manbalar nazarda tutiladi?
79. Bobur Mirzo she’riyatidagi yetakchi janrlar qaysilar? Ularning mavzulari, o‘ziga xos xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
80. Zahiriddin Muhammad Bobur tuyuq janrini uning qanday ko‘rinishlariga murojaat etish bilan yanada boyitdi?
81. “Boburnoma”ning yozilishi tarixi, tuzilishi va o‘ziga xos xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
82. “Boburnoma”da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaroning ijodiy faoliyatiga qanday munosabat bildiriladi?
83. Muhammad Solih hayoti va ijodi haqida ma’lumot beruvchi manbalar qaysilar? Ularda tilga olingan qayday ma’lumotlar shoir hayoti va ijodini o‘rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi?
84. Muhammad Solihning yoshlik yillari haqida ma’lumot bering.
85. Muhammad Solihning Shayboniixon xizmatini ixtiyor etgandan keyingi hayoti haqida qanday ma’lumotlarga egasiz?
86. Muhammad Solihning Muhammad Shayboniixoniga bag‘ishlab yozilgan adabiy, tarixiy asarlari qaysilar?
87. “Shayboniynoma”ning tuzilishi, yozilishi tarixi haqida nimalar bilasiz?
88. “Shayboniynoma”da Shayboniixon obrazi qanday tasvirlangan? Fikrlaringizni dalillaiga tayanib isbotlashga harakat qiling.
89. Shoir temuriy shahzodalarning badiiy tavsifida nimalarga ko‘proq e’tibor beradi?
90. Shayboniixon Sulton Ali Mirzo ixtiyoridagi Samarqandni o‘z tasarrufiga o‘tkazganda, Movarounnahr-u Xurosonning qaysi shaharlarida xalq qo‘zg‘olonlari bo‘lib o‘tdi?

91. "Shayboniynoma"ning badiiyati, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida tutgan o'rni haqida nimalar deya olasiz?
92. Xojaning hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beruvchi mo'tabar manbalar hamda uning o'rganilishi tarixi haqida ma'lumot bering.
93. Xojaning oila muhiti haqida nimalar bilasiz?
94. Xoja sadrlik faoliyatini qachondan boshlagan, u shayboniylar xizmatiga o'tib qanday lavozimlarda faoliyat ko'rsatdi?
95. "Miftoh ul-adl" qachon yozilgan va kimga bag'ishlangan?
96. "Maqsad ul-atvor" dostonining yozilishi tarixi haqida nimalar bilasiz?
97. "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" asarlari uslubi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko'ra mumtoz adabiyotimizdagi qaysi asarlarga o'xshaydi?
98. "Gulzor" va "Miftoh ul-adl" asarlarining bir-biridan farqli, o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
99. Xoja hikoyalarining mavzu rang-barangligi, qahramonlari haqida ma'lumot bering.
100. Hukmdorlar hamda axloqiy-ta'limiy mavzuda bitilgan hikoyalarni g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qiling.

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
Pahlavon Mahmud – ruboiynavis.....	5
Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun” dostoni.....	39
Yusuf va Zulayho.....	45
Atoiy gʻazaliyoti.....	53
Sakkokiy.....	57
Lutfiy lirikasi.....	65
Haydar Xorazmiy “Gulshan ul-asror”	75
Zahiriddin Muhammad Bobur.....	79
Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asari.....	89
Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari.....	101
Xoʻja ijodi.....	108
Husayniy — shoh va shoir.....	111
Oraliq nazorat savollari.....	121
Yakuniy nazorat savollari.....	123